

МАРТ 2021

Тошкент, Ўзбекистон



ЗАМОНОВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ-АМАЛИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ

**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

Замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари [Тошкент; 2020] 1 март 2021 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2021. -183 б

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI 10.26739/conf_3/05/2021

Ушбу тўпламнинг электрон шакли қуйидаги сайтларда

<https://tadqiqot.uz/conf/>

www.conferences.uz

Таҳририят кенгаши

- 1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор
- 2.Шахобиддин Саидович Ашуров Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент
- 3.Джуроев Рисбой Хайдарович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.
- 4.Асқаров Ахмадали Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.
- 5.Ли Ю Ми (Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PhD
- 6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.
- 7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 8.Насруллаева Нафиса Зафаровна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 9.Кисилев Дмитрий Анатолевич Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 10.Сувонова Нигорабону Низамиддиновна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.
- 11.Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, фалс.ф.д.
- 12.Муслимов Нарзулла Алиханович. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 13.Халиков Аъзам Абдусаломович педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 14.Уразова Марина Батировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 15.Мирсолиева Мухаббат Тухгасиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.
- 16.Мамадалиев Абдумажид Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 17.Садиқова Альбина Венеровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 18.Авазов Шериммат Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 19.Мамаражабова Зулфия Нарбаевна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 20.Адилова Саодат Хусановна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 21.Расулов Анвар Баходирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PhD
- 22.Абдуазимов Азиз Абдусобирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,
- 23.Рахимова Гулсанам Аширбековна Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций журналлов: www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темура пр.1, дом-2.
web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел:(+998-94) 404-00-00

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email:info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-00-00

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

Abduolimov Abdug'affor Abduxalil o'g'li KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	8
Adham Suyarov, Nodirbek Dilmurodov 3D MAX DASTURIDA STANDART PRIMITIVLAR YARATISHNI O'RGATUVCHI DASTURIY ISHLANMA YARATISH VA UNDAN TA'LIM JARAYONIDA SAMARALI FOYDALANISH.....	11
Djumanova Barno Oglonbek kizi ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION.....	15
Isayeva Hosiyatxon Sobirjonovna PEYZAJ VA UNING XURSHID DAVRON IJODIDA QO'LLANILISHI.....	17
Joniqulov Jo'rabek KIMLARGA ERGASHDIK?.....	19
Kurbanova Feruza Choriyevna AXBOROT XAVFSIZLIGI VA AXBOROTNI HIMOYALASHDA PEDAGOGIKANI O'RNI.....	21
Toshpo'latova Sitora Bahodir qizi ICHKI MUHITNI BEZASH.....	23
Hamroqul Qormishovich Bo'riyev, Normurodova Muzaffara Adxamovna TABIIY FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	26
Mirzayeva Dilorom Mashrabjon qizi QO'QON XONLIGIDA ADABIYOTNING RIVOJI VA BU DAVRDAGI BIZGA QOLDIRILGAN ADABIY MEROSLAR.....	29
Saidaxmadova Nilufar G'ulomjon qizi UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV OMILLARI.....	31
Shamuratova Nozima Ismoil qizi, Muxamedaminov Aziz Odiljon o'g'li ZAMONAVIY MAKTAB KUTUBXONALARI KO'RSATKICH TAMOYILLARI.....	33
Tajieva Saltanat NOSOG'LOM AXBOROT OQIMLARIDAN YOSHLARNI HIMOYALASH.....	35
Xayitgul Muzaffarova ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARGA BARVAQT YORDAM TIZIMINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI.....	37
Xummatova Kamola Xayruллаевна ECTS КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ИМКОНИЯТЛАРИ.....	39
Yuvashev Aziz Mamasoliyevich BAYRAM VA TOMOSHALARDA REJISSOR G'OYASINING BADIY TALQINI MASALALARI.....	42
Азизов Солижон Ўчмас ўғли РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ ПЛАТФОРМАЛАРИДА ЁЗУВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДЛАРИНИ ТАДБИҚ ЭТИШ ТЕНДЕНЦИЯСИ.....	45
Хулкар Асатуллаевна Лутфуллаева ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА АКТИВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ ПО САМООБРАЗОВАНИЮ И	



САМОРЕАЛИЗАЦИИ.....	49
Nodira Tashpo'latova Xudjamuradovna "O'SMIR YOSHDA GI O'QUVCHILAR BILAN OLIV BORADIGAN ISHLAR".....	53
Ш.Мўминова, З.Содиқов ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНИШИДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ.....	56
N. Jumanova TA'LIM BERISH JARAYONIDA TALABANING PEDAGOGIK IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	64
Марғуба Олтмишбаевна Дадаханова ДАВЛАТ ХУДУДИЙ КАНАЛЛАРИ СТРУКТУРАСИ ВА ФАОЛИЯТИ.....	67
Бойдадаев Даврон Махмудович ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ФАОЛИЯТИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ДИАГНОСТИК МОДЕЛЛАРНИНГ ЎРНИ.....	70
Ishqobilov Farrux Xayrilloyevich TA'LIMDA VIRTUAL LABORATORIYALARNI QO'LLASH.....	76
Sh. N. Ismailov, S. X. Yusupova MULOHAZA YURITISH" AQLIY FAOLIYAT TURINI BAHOLASHGA OID TOPSHIRIQLAR VA ULARNING TAHLILI.....	79
Маллаева Озода Махрамовна УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНИДА M-LEARNINGДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ.....	83
Ғ.С.Мустафоев ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИНГ АҲОЛИ БАНДЛИГИГА ТАЪСИРИ.....	86
Мансурова Муниса Анваровна, Норқобилова Мехринисо АНАЛИЗ ОБЩИХ ТРЕБОВАНИЙ К СПЕЦИАЛЬНЫМ ОДЕЖДАМ ДЛЯ РАБОЧИХ В СФЕРЕ НЕФТЕ ДОБЫЧИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	89
Ғ.С.Мустафоев ТАЪЛИМ, ИНСОН МЕҲНАТ САЛОҲИЯТИНИНГ ИННОВАЦИОН МЕЗОНИ Сафарова Феруза Хабибуллаевна РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ.....	97
Турланова Сауле Дадажановна ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ, РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.....	100

ФИЛОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШИ

Бадалова Ш.А. ТЕЗИС НА СТАТЬЮ "О ПОСТРОЕНИИ ЗЕВГМАТИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ".....	102
Leyla Eshkuvatovna Holmuradova, Arabov D. KONTAMINATSİYALASHGAN NUTQDA JAMOAVIY XOS SO'ZLAR.....	105
Дадаханова Муаззам Алтмишбаевна ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА МОДЕРНИСТИК МЕТАФОРА.....	107
Nabijonova Nazokatxon A'zamxon qizi FILOLOGIYA SOHASI HAQIDA.....	109



Jumaniyozova Nuriya Axmedovna DISCOURSE AND LEGAL DISCOURSE IN LINGUISTICS.....	111
Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi MIF VA FOLKLOR.....	113
Narziyeva Gulshod G'aybullayevna, Jabborova Nafisa Jafar qizi BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANIDAN GRAMMATIK MASHQLAR VA ULARNING TASNIFI XUSUSIDA.....	115
Nurullayeva Nodira Habibjon qizi ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR; FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA SOHASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH OMILLARI.....	117
Qosimbetova Aygul ANAFORA VA EPIFORANING LINGVOPOETIK O'ZIGA XOSLIGI (T. Jumamurodovning ijodi namunasida).....	119
Boltayev Chutkul Boltayevich INGLIZ TILINI O'QITISHDA SHAXSLARARO MULOQOTNING O'RNI.....	122
Tagaev Shuhrat Murtazaevich IMPROVING STUDENTS' COMPETENCE OF READING AND COMPREHENDING ACADEMIC TEXTS IN ENGLISH.....	127
Axmadjanova Gulnihol "ERROR CORRECTION TECHNIQUES: WRITTEN AND SPOKEN ERROR CORRECTIONS".....	130
Байжанова Оқила Искандаровна НУТҚ МАДАНИЯТИНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЎРГАНИШ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА.....	133
Tursunova Yulduz Yusuf qizi ABDULLA QAHNOR NIKOYALARIDA UCHROVCHI TURKIY QATLAMGA MANSUB AYOLLAR ISMINING LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	135
Холматова Ситора Баходир қизи ФАКТЧЕКИНГ - АХБОРОТНИ ВЕРИФИКАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛИ СИФАТИДА.....	137
Холмуродова Л.Э., Махмудова Махбуба МАТН ТАРЖИМА ОЛДИ ТАХЛИЛИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	141
Махзуна Хамраева Гайратовна ЭВИДЕНЦИАЛ ОМОФОН ҲОДИСАЛАР ТИПОЛОГИЯСИ.....	144
Покиза Примкулова НЕМИС ТИЛИДА КОНЦЕПТУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	147
Раимова Севар Собировна ЎҚУВЧИЛАРДА ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЎЗБЕК ТИЛНИ ЎРГАТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛЛАРИ.....	150
Душаева Умида Юсуфовна КОМПАРАТИВ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛЕКСИК БИРГА ҚўЛЛАНА ОЛИШЛАРИ.....	152
Искандарова Нодира Бахрамбековна РОМАНТИЗМ И ВОСТОЧНЫЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ГЕТЕ.....	154
Ниязова Айшолпан Абдикаримовна "ТИЛЛАРДАГИ ИРРЕАЛ ЛЕКСИКАНИНГ БАДИИЙ ДИСКУРСДАГИ РОЛИ".....	156



Урунова Дилафруз Уткировна РЕЧЕВАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	158
Хайдаров Сулаймон Амиркулович РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ВОСИТАЛАРИ ВА МЕТОДЛАРИ.....	160
Хужаева Дилдора Икромбаевна СХОДНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ ПЕРЕДАЧА ПРИ ПЕРЕВОДЕ (на основе материалов из русского и узбекского языков).....	164
Зухра Эргашева, Шухратхон Имяминова НЕМИС ТИЛИДА АНТРОПОНИМЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	167
Farangiza Kurbanova "BILINGV"LAR NUTQIDA INTERFERENSIYA HODISASINING NAMOYON BO'LISHI.....	170
Khidirov Laziz COMMENT FACILITE L'APPRENTISSAGE DE LA LANGUE ETRANGERE ?	174
Seytmuratova Ariwxan SH.SEYITOV SHIGARMALARINDA GRAMMATIKALIQ ANTONIMLERDIŇ QOLLANILWI ÓZGESHELIKLERI	177
Primova Gulzira Tilakboyevna МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИ ЖАРAYONИДА "EGALIK SHAKLLARI VA ULARNING IMLOSI" MAVZUSINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGATISH.....	180



ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Abduolimov Abdug'affor Abduxalil o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kursanti

Annotatsiya: Maqolada "korruptsiya" atamasining etimologik tushunchasi va ta'rifi, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini aks ettiruvchi bir qator qonun hujjatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: korruptsiya, qonun, entsiklopediya, yuridik shaxs, qonun, soliq.

Davlatimiz mustaqilligini qo'lg'a kiritgan ilk kunlardan o'z oldiga insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilib qo'yib, bu yo'lda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Hozirgi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng birlamchi masalalardan biri korruptsiya muammosidir. Bu muammo ko'plab mamlakatlar qatori O'zbekistonni ham qiynab keladi. Unga qarshi kurashishning keskin, samarali va izchil ravishda kurashmoq lozim.

Korruptsiya atamasining etimologik tushunchasi va ta'rifi jihati xususida turli fikrlar mavjud. Jumladan, keng ommalashgan birinchi fikr tarafdorlariga ko'ra, etimologik jihatdan korruptsiya atamasi lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadi.

Yuridik atamalar qomusiy lug'atida korruptsiya tushunchasiga "davlat funktsiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning g'ayriqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi", deb ta'rif berilgan.[1]

O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurash masalasi bosh masalalardan biri hisoblanib kelinadi. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy me'yorlar aks etgan ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Bunda, O'zbekiston Respublikasining bosh qonuni hisoblangan Konstitutsiyaning 2, 15, 30, 44 va 58-moddalarida korruptsion huquqbuzar-liklarning oldini olishga qaratilgan huquqiy me'yorlar belgilandi. Chunonchi, 2-moddada - mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi; 15-moddada - davlat, uning organlari, mansabdor shaxslarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rish; 30-moddada - mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga dahldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi; 44-moddada - har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi mumkinligi, mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi; 58-moddada - mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.[2]

Nemis faylasufi Tomas Gobbs "O'z boyligi bilan mag'rurlanadigan odamlar davlat idoralari Korruptsiyaga tortish orqali jazodan qutilib qolish yoki pul va boshqa turdagi sovg'alar evaziga kechirishlari to'g'risidagi ishonch asosida bemalol jinoyatlar sodir qilishadi...

Korruptsiya – davrlar osha o'sib kelayotgan ildiz bo'lib, u har xil orzu-havaslar



ortidan birortayam qonunni mensimaslikdir” degan. [3]

Frantsuz temurshunosi Marsel Brion Amir Temurning saltanat boshqaruvidagi mansabdor shaxslarning qo‘l ostidagi xodimlar va xalqqa nisbatan ta‘magarlik qilmasliklari uchun ularning moliyaviy ta‘minotiga alohida e‘tibor berib turganligini qayd etgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashda eng avvalam bor, uni oziqlantiruvchi g‘oyalarga qarshi vatanparvarlik, xalq parvarlik, adolatparvarlik g‘oyalarini ilgari surish talab etiladi.

Darhaqiqat, amaldorga pora beruvchi bo‘lmasa, Korrupsiyaning ildizi quriydi. Qonunlar puxta, hayotiy va sifatli bo‘lsa, Korrupsiyaga yo‘l qoldirilmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning ma‘naviy - ma‘rifiy vositalaridan biri, bu boshqaruv tizimida, oshkoralik va shaffoflikni ta‘minlash. Ma‘lumki, Korrupsiya mansabdor va uning xizmatidan manfaatdor shaxs o‘rtasidagi xufyona til biriktiruvdir. Shu sabab, mansabdor faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash dolzarb vazifa sanaladi.

Korrupsiya o‘z rivojlanish jarayonida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqurroq kirib borishga harakat qiladi. Bu jarayon esa, ma‘lum bir hududda belgilangan ob‘ektiv ijtimoiy ehtiyojlarni ta‘minlab borish imkonini berib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni isloh qilish davrida uyushgan jinoyatchilikning aniq siyosiy va iqtisodiy maqsadlariga erishish uchun vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Korrupsiyaning namoyon bo‘lishi va rivojlanishi bevosita unga qarshi kurashish mexanizmi to‘g‘ri shakllantirilganligi hamda doimiy ravishda jamiyatdagi mavjud o‘zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashti-rilishi yoki umuman yangilanishi bilan bog‘liqdir.

Ushbu mexanizm korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy jihatlari uning asosiy va eng muhim bo‘g‘inini tashkil qiladi. Chunki, har bir faoliyatning qonuniyligi, samaradorligi va ko‘zlangan maqsadga erishishning garovi bo‘lib, uning huquqiy asoslari vosita sifatida xizmat qilishi hammaga ma‘lum. [6]

Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1.O‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga nima halolu nima xarom ekanligini doim tushuntirib borish;

2.Fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish;

3.Rahbar kadrlarni tanlashda ularni bilimi, tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatidan tashqari, ularni odamiyligi va yuksak axloqiy fazilatlariga ham e‘tibor berish;

4.Yoshlarni harbiy xizmatga, oliy o‘quv yurtlariga va ichki ishlar organlariga qabul qilishda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

5.Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda (tinglovchi va kursantlarda) Korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirib borish;

6.Davlat idoralarida ishlovchi xodimlarni ish haqini muntazam oshirib borish va ish haqini o‘z vaqtida berish;

7.Ommaviy axborot vositlari orqali targ‘ibot - tashviqot ishlarini muntazam ravishda olib borish lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017-yilning 3-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”[7] gi Qonunini tasdiqlangani, ushbu jinoyatchilik turiga qarshi kurashishning tizimli instituti paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyani tag-tomiri bilan quritish va bu illatga qarshi samarali kurashishda: har bir insonning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta‘limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2003. – 201 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: ”O‘zbekiston”, 2017.
3. Kriminologiya. Uchebnik. Otv.redaktor: Rustambaev. M.X. – Tashkent: TGYuI, 2008. – S. 219.
4. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”
5. Jalolov SH.R, Nurmammedova G.B. Poraxo‘rlik jinoyatlarini profilaktika qilish bo‘yicha hudud metodikasi. Ilmiy amaliy tavsiyalar. T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2019-82-b.



3D MAX DASTURIDA STANDART PRIMITIVLAR YARATISHNI O'RGATUVCHI DASTURIY ISHLANMA YARATISH VA UNDA TA'LIM JARAYONIDA SAMARALI FOYDALANISH.

Adham Suyarov
QarMII o'qituvchisi
Nodirbek Dilmurodov
QarMII talabasi

Annotatsiya: Talabalarga o'qitiladigan uch o'lchovli modellashtirish o'quv fanining dolzarbligi va zarurligi shundan iboratki, talabalar fanni o'zlashtirishda professional darajadagi bilimlarni o'zlashtirish, 3MAX Studio, Corel Draw, Photo Shop kabi multimediyali dasturiy ta'minotlar va multimedia qurilmalari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maqola mavzusida keltirilgan 3D Max Studio dasturida ishlash bo'yicha talabalar bilimni yanada oshirish uchun o'rgatuvchi elektron ishlanmalarni yaratish va ushbu ishlanmani o'quv jarayonida mavzuga qo'llash hamda yetarli samaraga erishish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: 3 MAX Studio, Corel Draw, Photo Shop, multimedia, dasturlash, interfeys, Internet, tasvirlarni vizuallashtirish, virtual joylashuv, dasturiy-uslubiy va boshqa ma'lumotlar bilan bog'langan.

Ma'lumki, bugungi kunga qadar axborotlashtirish va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha ko'plab qaror va nizomlar ishlab chiqildi. Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reestri to'g'risidagi nizomlar ishlab chiqildi. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalari kompyuter va texnik vositalar bilan yetarlicha ta'minlangan bo'lsada, ular-dan ta'lim jarayonida foydalanish uchun fan va mavzular kesimida dasturiy mahsulotlar hali to'liq tayyor emas. Ta'lim jarayoni-da texnik vositalardan keng foydalanish, Internet tarmog'ida axborot izlash, olish va saqlash masalasi o'quv-metodik manbalar tayyorlash va ularni tatbiq etish uchun mo'ljallangan seminar-treninglarni o'tkazishga, dasturiy ishlanmalar yaratishga zarurat tug'dirmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan uch o'lchovli modellashtirish o'quv fanining dolzarbligi va zarurligi shundan iboratki, o'quvchilar fanni o'zlashtirish davomida professional darajadagi bilimlarni o'zlashtirish, 3MAX Studio, Corel Draw, Photo Shop kabi multimediyali dasturiy ta'minotlar va multimedia qurilmalari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Multimedia tizimlari yo'nalishi mutaxassisliklari uchun bunday dasturlar bilan ishlash juda muhim hisoblanadi. Bunday dasturiy vositalarni yaxshi bilgan mutaxassis o'z g'oyalari ilgari surish, o'z loyihalarini ishlab chiqish, turli animatsion taqdimotlarni ishlab chiqish va tushun-tirish uchun juda yaxshi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Fanni o'qish jarayonida talaba quyidagilarni bilishi zarur:

- kompyuter grafikasi ko'rinishlari va ularning xususiyatlari;
- uch o'lchovli tasvirlar bilan ishlash asoslari;
- 3DS MAX dasturi interfeysi va dastur bilan ishlash asoslari;
- modifikator ko'rinishlari;
- Max yorug'lik manbasi ko'rinishlari;
- 3DS MAX ning tayanch ma'lumotlari;
- animatsiyalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar;
- dasturning effektlari va filtrlari;
- Fanni o'qish jarayonida talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:
- kompyuter tasvirlari turlarini farqlash;
- dasturning ishchi interfeysini optimal sozlash;



uch o'lovli tasvirlarni yaratish;
oddiy ob'ektlarni yaratish va ularning parametrlarini o'rnatish;
modifikatorlar yordamida ob'ektlarni taxrirlash;

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur maqolaning vazifasi mavzuda keltirilgan 3D Max dasturida standart primitivlar yaratish-ni o'rgatuvchi dasturiy ishlanma yaratish mavzusi zahirida talabalarning soha bo'yicha kichik mutaxassislarini tayyorlashda dav-lat ta'lim standarti asosida o'qitiladigan mutaxassislik fanidagi 3D Max Studio dasturi imkoniyatlarini o'rganishda elektron das-turiy ishlanma yaratish va bu dastur imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berish masalasi yotadi. Ushbu muammoni hal qilish orqali talabalarni mutaxassislik fanlarini chuqur o'zlashtirishlari hamda kelgusida soha bo'yicha o'z faoliyatlarini olib borishla-rida maxsus qo'llanma bo'lib xizmat qilishi nazarda tutiladi. Bugungi kunda o'zbek tilining lotin alifbosida bunday o'quv qo'l-lanma ishlab chiqilmagan. Shu sababli bu mavzuni dolzarb hamda talabalar uchun muhim deb hisoblash mumkin.

Dastur haqida umumiy ma'lumotlar. Uch o'lovli grafika ilmiy tekshirishlarda, injenerlik loyiha ishlarida, fizik ob'ektlarning kompyuter modellarini qurishda keng qo'llaniladi. Uch o'lovli grafika kompyuter grafikasi tarkibiga kiruvchi eng murakkab va keng qamrovli yo'nalishdir. Uch o'lovli grafika bilan ishlovchi foydalanuvchi loyihalash, yoritish, ob'ektlar va kameralarni ko'chirish, tovush va namoyish effektlardan foydalanish kabi sohalardan bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu yerda shu sohaning tashkil etuvchilari - fazolar, ob'ektlarni modellashtirish, namoyish tog'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Uch o'lovli grafika bilan ishlaganda, shakllar hosil qilinadigan fazoga alohida e'tibor berish kerak. Bu holda an'anaviy 2D - tekislik uch o'lovli grafika maqsadlariga to'g'ri keltiriladi. 3D- grafikada ishchi fazoni shunday ifodalash kerakki, unda nafaqat modellashtirilayotgan uch o'lovli geometrik shaklni, balki uning geometrik joylashishi va holati hisobga olinishi kerak. Uch o'lovli grafikada Dekart, silindrik va sferik koordinata sistemalari ishlatiladi. Qurilgan barcha uch o'lovli ob'ektlarni geometrik va nogeometrik ob'ektlarga bo'lish mumkin. Geometrik ob'ektga asosan sahna tashkil etuvchilarini qurishda ishlatila-di: personajlar, jismlar, boshqa so'z bilan aytganda - mavjud borliq ob'ektlarini. Nogeometrik ob'ektlar esa sahnaga jonlilik hissini berish uchun (to'g'ri yoritish), ob'ektlarga ta'sir etuvchi kuchlarni modellashtirishda (masalan gravitasiya yoki shamol esishi) va hokazo. Boshqacha aytganda namoyish etilayotgan kadrda geometrik ob'ektlar aynan (chiziqlar va sirtlar ko'rinishda), nogeometrik ob'ektlar esa oraliq (soyalar, tezlanish va hokazo) ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Бу дастур нимага керак?
Кино ва мультфильмларда
Рекламада
Ўйинларда
Архитектура дизайнида
3D моделида

"3D Studio Max" grafik tahrir dasturi dastlab AQSH dagi "Macro-vision Corp" firmasi tomonidan 1996 yilda yaratilgan bo'lib, u bugungi kunga qadar o'z yaratuvchilari tomonidan har xil versiyalarda to'xtovsiz rivojlantirib kelinmoqda. Ushbu elektron mu-harrirda ishlovchilar safi dunyo miqyosida yil sayin ko'payib bormoqda.

Dastlab, ishni 3Ds Max dasturini atroflicha o'rganib chiqishdan boshlasak, avval dastur yordamida ob'ekt ko'rinishda asosiy maqbul ishlarni amalga oshirish: sodda primitivlarini tuzish, ob'ektlarni belgilash, ularning bir-biriga o'zaro tekislash, proeksiya



oynasidagi aks etish xolati va joylashishi, ularni o'zgartirish, ma'lum masshtabga keltirish, o'zgartirish va aylantirish mumkin. Bu oddiy amallar 3Ds max 7 dasturining keyingi asosiy faoliyatigaxizmat qiladi. Masalan, stol parallelpeddan tashkil topgan, stol lampasi esa - silindr va yarim shakldan, avtomobil ballon esa - boshqa yuqoridagilarga o'xshamagan shakllardan tashkil topgan. Katta va kichik darajadagi barcha ko'rgazmalarda amalda uch o'lovli virtual joylashuv shartlari qo'llanilib kelinmoq-da. 3 Ds max 7 standart ob'ektlari o'zida "qurilish materiallar" ini tashkil etgani uchun ular yordamida turli ko'rinishlar tashkil etishga ko'maklashadi. Maqolaning maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash). Maqola mavzusida keltirilgan 3D Max dasturida standart primitivlar yaratishni o'rgatuvchi dasturiy ishlanma yaratishdan asosiy maqsad sifatida talabalarning mustaqil bilim olishlari samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarni ko'roq bilim olishlari va yetuk mutaxassis bo'lib yetishlarida manba yaratishga erishishdan iborat.

Maqolada keltirib o'tilgan talabalarning Informatika va axborot texnologiyalari, Multimedia tizimlari va texnologiyalari bo'yicha kichik mutaxassislar uchun mutaxassislik fanlari blokidagi uch o'lovli modellashtirish fanida 3D Max Studio dasturida ishlash bo'yicha talabalar bilimni yanada oshirish uchun o'rgatuvchi elektron ishlanmalarni yaratish va ushbu ishlanmani o'quv jarayonida mavzuga qo'llash hamda yetarli samaraga erishish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bugungi kunda dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda foydalanish masalalariga oid juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, internet tarmog'ida juda ko'plab saytlarda elektron o'rgatuvchi dasturiy vositalar ishlab chiqilmoqdaki, bunday dasturlarni amalda foydalanish orqali ham kerakli bilimlarni olish imkoniyatlari ochib berilmoqda.

Talabalarga fan sirlarini o'rgatishda elektron ma'lumotlar, ensiklopediyalar, ta'lim beruvchi dasturlar, ta'lim oluvchilar bili-mini avtomatik nazorat qilish vositalari, elektron o'quv nashri sifatida ko'rib chiqiladigan yagona dasturli uslubiy majmualardagi elektron qullanmalar, trenajerlar va virtual stendlar kabi elektron vositalarni yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tah-liliy ishlarimiz natijalariga ko'ra mamlakatimiz o'quv yurtlariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlar asosida o'quv yurtlarini axborotlashtirishga intilish jarayoni talimda elektron qullanmalar uchun yo'l ochib bermoqda. Ta'limni isloh qilish shunday elektron ishlanmalarni yaratishni talab qiladiki, ularning mavjud bo'lishi, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun, auditoriya va uy sharoitida bir xil bo'lgan kompyuterli muhitni ta'minlashni taqazo etadi

Shuni ta'kidlash joizki yangi yaratiladigan qullanmalarda fizika, texnika, matematika va tibbiyot sohalaridagi ibratli ishlari yoritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero qo'llanmalarda millat fikrining, millat tafakkurining va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi zarur. Ma'lumki, hozirgi kunda internet texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda, bu esa talabalarni internetda ishlash bilan birga ularga mos ravishda turli xil sahifalarni yaratish texnologiyasini bilishlari talab qilinadi.

Bu o'rinda, dasturlangan ta'lim haqida Amerikalik pedagog U. Shrammning quyidagi fikrini misol tariqasida keltirish mumkin: Dasturlangan o'qitish - bu avtomatik repetitor bo'lib, u talabani:

- mantiqiy o'zaro bog'liq, qisqa qadamlar orqali;
- deyarli xato qildirmasdan;
- to'g'ri javob berishga yo'llaydi va u;
- o'z o'rnida baholanib mustahkamlanishi natijasida;

Demak, bundan ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsini batamom inkor etiladi, degan xulosaga kelish mumkin. O'quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini qo'llash tarafdorlari o'qitish sifatini yaxshilash, aynan ana shu vositalarga bog'liq deb hisoblaydilar. Tegishli uslubiy tavsiyalar ta'lim jarayonida texnik muxitni yaratishga, ya'ni texnologiya



tushunchasini o`qitish jarayoniga qo`llash masalalariga qaratildi. Dastlab "kompyuterli texnologiya" va "yangi axborot texnologiyasi" kabi tushunchalar vujudga keldi. Bular pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik vosita sifatida qo`llanila boshlandi. Mustaqil ta`lim va dars mashg`ulotlarida o`rgatuvchi dasturiy ishlanmalar, elektron ishlanmalar o`quv fanini yoki uning malum bir bo`limini mustahkam o`rganishni tahminlovchi va o`zida odatdagi qo`llanma, malumotnoma mashqlar to`plami, laboratoriya praktikumi xususiyatlarini birlashtiruvchi dasturiy-uslubiy majmuadir. Ushbu "elektron ma`ruzachi", faqat qo`llanma (yoki ishlanma) yoki o`quv qo`llanmasining barcha afzalliklarini saqlab qolish uchun mo`ljallangan bo`lmasdan, balki kompyuterlar tomonidan tah-minlanadigan zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia imkoniyatlaridan to`la ravishda foydalanish uchun ham yaratiladi.

Biz yuqorida Dasturiy ishlanmalar bo`yicha respublikamizda olib borilayotgan faoliyatlar tahlili hamda mustaqil ta`lim va dars mashg`ulotlarida o`rgatuvchi dasturiy ishlanmalarni tahlil qilib o`tdik. Ushbu maqolada keltirib o`tilgan 3D Max dasturida standart primitivlar yaratishni o`rgatuvchi dasturiy ishlanma yaratish masalasi dolzarb masala ekanligini alohida keltirib o`tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Oliy va urta maxsus ta`lim vazirligi. O'zbekiston Respublikasi halq ta`limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qumitasi tomonidan yaratilgan "Uzluksiz ta`lim tizimi uchun o`quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish" konsepsiyasi.

Zakon Respubliki Uzbekistan "Ob informatizatsii" - Narodnoe slovo, 2004, 11 fevral.

E.V.Shikin, A. V. Boreskov. Kompyuternaya grafika. (Dinamika, realisticheskie izobrajaniya), M. 1996, 288 s.

Reynbou V. Kompyuternaya grafika. Ensiklopediya. Piter, 2003. Petrov M. N., Molochkov V. P. Kompyuternaya grafika. Uchebnik dlya vuzov (2-e izdanie, s CD-ROM). Piter · 2004

A.R. Maraximov, S.I. Raxmonqulova. Internet va undan foydalanish. Toshkent, 2001.



ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

TA'LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Djumanova Barno Oglonbek kizi
3rd year student of Tashkent region
Chirchik state pedagogical institute

Abstract. Information and communication technologies have become an integral part of reality, serving the needs of modern society in a variety of areas: from uninterrupted work to vital important institutions and business structures (security system, banking, finance, etc.) to numerous social networks and entertainment. This paper purposes to explore utilizing ICT in the modern curriculum and effectiveness in teaching and learning process of foreign language.

Keywords. ICT- information and communication technologies, Internet resources, foreign language, English.

New technologies are developing rapidly and allow us perform tasks that could not be solved several decades ago . New technologies also have a huge impact on the education system. As E. V. Kopaeva notes, the current stage of innovative development of the education system depends on the effectiveness of the implementation of the following conditions: improving the resource and material base of an educational institution in accordance with the Federal State Educational Standard; increasing the level of material and technical equipment of the school; preparation of the future teacher for work in new conditions; orientation to the requests of all subjects of the educational process and the creation of comfortable conditions for the effective implementation of new educational standards. From the point of view of I. I. Klimova, "in the conditions of the use of modern electronic information resources, multimedia and network technologies in the educational process "it is necessary to achieve compliance of Russian education with" modern trends in world development "and" current and future challenges of the modern world ".The use of information and communication technologies (hereinafter - ICT) on a regular basis not only allows access to extensive information on various subjects of the curriculum, but also contributes to the formation of a vital skill - the ability to use various digital tools. This skill is not inferior in importance to such basic skills as the ability to count, read, write and express your opinion. Despite the importance of using ICT in the educational process, there are a number of problems associated with their use in teaching English as a foreign language . In this article, it will be tried to determine the attitude of teachers to the use of ICT in foreign language lessons and understand what exactly they associate information and communication technologies with in teaching English as a foreign language. Since these questions can only be answered by analyzing the use of ICT among teachers of English in secondary schools, we needed to develop a special research strategy. To this end, It has been identified a group of respondents consisting of 100 English teachers language of secondary schools in Tashkent region. The majority of the participants were women (76 women and 24 men).The age of teachers varied within 3 age categories: from 25 to 35 years old (32 people), from 35 to 45 years old (40 people),



from 45 to 60 years old (28 people). To determine the ICT competence of the representatives of the experimental group, a survey of respondents was conducted, according to the results of which we were able to establish that more than 70% of them do not have special training in the use of ICT in teaching a foreign language, which does not prevent 60% of teachers from considering themselves competent users in this area. More than 90% of those surveyed reported that they need access to ICT in their free time. Nearly 60% of respondents said they have little difficulty learning new digital tools and about 70% of teachers believe they will be able to take full advantage of digital tools in the process of teaching English language as a foreign language. An important indicator that has an impact on the integration of teachers in the field of digital technologies is the confidence of teachers in the positive impact of ICT on students in the process of mastering the educational program and consolidating the educational material. Among other positive factors of the use of ICT in teaching a foreign language, the most obvious, in the opinion of the participants in the experiment, are the following:

- allow you to adapt teaching materials in accordance with the specific circumstances and needs of students;
- allow you to refer to the latest news and the most relevant materials in the network primary sources;
- make it possible to combine and combine methods of practicing basic skills (through the use of texts, images, audio and video clips, etc.);
- increase student engagement, etc.

Summarizing the above, we can note that the use of ICT cannot solve all the problems, emerging in modern education, however, can significantly improve its quality. The modern technological world needs to integrate ICT into education. That is why one of the main the teacher's task is the need to make new technologies and the Internet an integral part of the educational process.

References:

- 1.Kopaeva E.V. The use of modern educational technologies in teaching computer science // Philological sciences. Questions of theory and practice. Tambov: Diploma, 2016. No. 6 (60): in 3 parts. Part 3.C. 195-198.
- 2.Lizunova N. M., Chernyshkova N. V. Information and educational resources in training professional foreign language // Philological sciences. Questions of theory and practice. Tambov: Diploma, 2016.No.9 (63): in 3 parts.Part 2.C.201-204.
- 3.Makhmudov, K., & Djumanova, B. (2020). Practical techniques for cultural -based language teaching in the classroom. *Young Scientist*, 26(316), 301-303
- 4.Barno Djumanova.(2021) ENHANCING CRITICAL THINKING OF STUDENTS IN CURRICULUM. *Academic Research in educational sciences. VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385*
- 5.Djumanova, B. (2020). Interactive Methods to Teach Cultural Differences. *Science and Education*, 1(4).
- 6.Makhmudov, K. (2020). Innovative Cluster of Pedagogical Education: Common Goals and Specific Interests. *Academic Research in Educational Sciences*, (2).
- 7.Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, 1(4), 84-89.



PEYZAJ VA UNING XURSHID DAVRON IJODIDA QO'LLANILISHI

ISAYEVA HOSIYATXON SOBIRJONOVNA

Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy adabiyotda tasviriy ifodalardan foydalanish hamda Xurshid Davron she'rlarida tasviriy vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlari: badiiy adabiyot, tasviriylik, peyzaj, obraz, lirik qahramon.

Odatda ifodaviylik va tasviriylik san'at turlarini farqlovchi xususiyatlar sifatida tilga olinadi. Ya'ni tasviriy san'at turlarida badiiy obraz yaratishda tasvir yetakchilik qilsa, ifodaviy san'at turlarida voqelikni tasvirlashdan ko'ra insonning ana shu voqelikdan olgan taassurotlari ifodasi birinchi planga chiqadi. Bu jihatdan badiiy adabiyot tasvirlash va ifodalash imkoniyatiga birdek ega ekani bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi.[3.169]

Maxsus adabiyotlarda noplastik obraz yaratish lirikaning spetsifik xususiyati ekani aytiladi. Ya'ni lirikada epik turga mansub asarlardagi kabi tasviriylik emas, ifodaviylik kuchliroq. Bu xususiyati bilan u musiqaga yaqin turadi. Ammo ayni xususiyat undagi tasviriylik imkoniyatlarini chegaralamaydi. Tasviriylik asosida obraz yaratishga intilish, albatta, lirikaning inson his-kechinmalarini ifodalash maqsadiga xizmat qiladi. Hozirgi zamon she'riyati lirikaga ko'rish orqali idrok etiladigan, tasviriy san'atga xos usullarni ham olib kirdi.[2. 59] Bu jihatdan shoir Xurshid Davron she'rlari e'tiborimizni tortadi.

Xurshid Davron tabiatni rassomlarday o'ziga xos tarzda ko'ra oladi. U xuddi rassom kabi ko'rganini o'zi his qilganiday tasvirlashga qodir ijodkor. Fikrimizning dalili sifatida shoir qalamiga mansub bir she'rni keltiramiz:

Bulutlar yuzadi

Oy boqar hayron

Bulutlar olovda yongan dalaning

O'rtasida turgan qadim qal'aning

Devorlari kabi kuyuk va vayron. [4. 15] Odatda tabiat, voqelik tasviri lirik asarda metaforik, ramziy xarakterga ega bo'ladi. Masalan, A.Oripovning "Bahor kunlaridakuzning havosi", Shavkat Rahmonning "Tungi manzara" she'rlarida tabiat tasviri lirik qahramon his-kechinmalarini ifodalovchi tasvir sifatida namoyon bo'ladi, tasviriylik ifodaning uzviy bir qismi bo'lib keladi. Bunda tasvirlanayotgan narsa muallifning izohlarisiz ham ramz vazifasini o'taydi. X.Davronning yuqoridagi she'rida esa boshqacharoq holatga duch kelamiz. She'rni o'qigach, ko'z oldingizda oydin kecha, bulutlar namoyon bo'ladi. Avvaliga tasvir real hayotdagi kabi jonlanadi (Bulutlar yuzadi, Oy boqar hayron, olovda yongan dala o'rtasida turgan qadim qal'a). Asta-sekin tasvir lirik qahramon kechinmalariga uyg'unlasha boradi. O'quvchi manzarani shoir tasviridagi obrazlar (qal'a, devor, dala, ro'mol, olov, yov, yalov) ko'rinishi bilan uyg'un holda ko'rarkan, endi u bulutlarni shoir tasavvur etganiday his eta boshlaydi. Ya'ni o'quvchi, avvalo, real manzaradagi bulutni ko'z oldiga keltiradi. So'ng esa devorlari kuyuk va vayron qal'a tasvirini ongida real bulutlar tasviri bilan qorishtiradi. O'quvchi ko'z oldida real manzaradan biroz farqlanuvchi, ko'proq zavqlantiruvchi, hayratga soluvchi tasvir paydo bo'ladi. A.Oripov va Sh.Rahmonning yuqorida tilga olingan she'rlarida tasvir bir paytning o'zida lirik qahramon his-kechinmalarining ifodasi, ramziy ko'rinishidir. X.Davron she'rlarida esa tasvirdagi obraz va ifodadagi obrazlar avvaliga alohida, keyin esa uyg'un holda beriladi. Boshqacha aytganda, A.Oripov va Sh.Rahmon she'rida tasvir lirik qahramon ko'zi bilan ko'rilgan tabiat tasviri bo'lsa, X.Davron she'rida ko'rib-kuzatilgan voqelik tasvirini boricha berish bilan birga, undan olingan taassurotlar, his-kechinmalar ifodalanadi.



Shoir Xurshid Davron yoshligida tasviriy san'at bilan jiddiy shug'ullangan. Bu borada anchagina qobiliyatli bo'lgan ijodkor keyinchalik ham ushbu san'at bilan yaqinlikni yo'qotmadi. Shu sababdan uning she'rlaridagi musavvirona nigohni payqash qiyin emas. X.Davron she'rlari xuddi suratday, shoirning o'zi esa musavvirday go'yo:

Erib ketar xira tumanlar,
kapalakdek uyg'onar yalpiz.
Osmon daryo bo'lib tuyular,
o'tlar uzra chopqillaydi ko'z. [5. 36]

U yaratgan obrazlarning aksariyati vizuallik xususiyatiga ega bo'lib, she'rlarida tasviriylik ustuvorlik qiladi. Ijodkor tabiatning ma'lum bir manzarasini tasvirlar ekan, bu real manzaraning aynan nusxasi bo'lmaydi. Manzara shoir yoki rassom qalb qo'rida qayta ko'riladi, ishlov beriladi. Tasvir ta'sirdor obrazlar bilan boyitilar ekan, uni ko'rayotgan o'quvchi xuddi rassom chizgan sur'at qarshisidagi zavqni tuya boshlaydi:

Hovuzda chaygancha kumush sochlarin,
Qush inida erimay yotgan qordek
Oqarib porlaydi daraxt uzra oy.

X.Davron ijodida faqat rangtasvirga xos xususiyatlarning aks etishini ko'rib qolmay, balki bu san'at tarixi, uning namoyondalari, tasviriy san'at mohiyatiga bag'ishlab yozilgan she'rlarni ham juda ko'p uchratishimiz mumkin. Bunday she'rlar sirasiga "Behzod", "Musavvir bo'lmoq ersang", "Musavvir usataxonasi", "Musavvir", "Abulhay so'zi" kabi asarlarni keltirish mumkin. Aynan shu she'rlar shoirning bu san'at borasida haqiqiy bilimdon ekanligini ko'rsatadi. Tasviriy san'atning vujudga kelishi va rivojlanishi insoniyatning ko'rish asosida oladigan estetik zavqi qiymatini oshirib kelgan. Hozirgi rivojlangan davrda odamlarning informatsiya oluvchi asosiy vositasi televidenie bo'lib turibdi. Televidenie va kino san'atining yutuqlari esa insondagi ko'rishning ahamiyati yanada ortishiga sabab bo'lgan. Keyingi davr o'quvchisi ko'proq ko'rish asosida estetik zavq olishga moyil bo'lib qolgan ekan, bu, albatta, boshqa san'at turlariga, shu jumladan, badiiy adabiyotga ham ta'sir etmay qolmadi. X.Davron ana shu ehtiyojni teran his qilgan ijodkordir. Alohida ajralib turuvchi qobiliyati esa uning she'riyatidagi tasviriylik jozibasini ta'minlaydi. Bu esa, eng avvalo, san'at turlarining hozirgi taraqqiyoti qo'yayotgan talabdan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, san'atkor olamida shoir va musavvir qalbining mushtaraklikda yashashi sabablidir.

Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, manzarani rassomlarday chizib ko'rsatish, o'quvchiga xuddi real hayotda ko'rgandagiday tuyg'ularni beradi. Ushbu she'rlarning yutug'i ham, bor go'zalligi ham Xurshid Davron o'zi jodiga musavvirona yondoshganligida edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.U. Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati. - T.: 2012.
- 2.Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. - T.: 2007
- 3.Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T.: 2018
- 4.Xurshid Davron. Tungi bog'lar. - T.: 1981



KIMLARGA ERGASHDIK?

Jonikulov Jo`rabek

Kamoliddin Behzod nimidagi Milliy rassomchilik
va dizayn instituti

Kino va telefilmning tasviriy yechimi yo`nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: O`zbekiston zamonaviy tasviriy san'atining kechirilmas katta xatolari va ularning kelib chiqish sabablari, maqsadning yo`qolganligi hamda yo`lni to`g`ri tanlashlik, kelajak poydevori

Kalit so`zlar: Tasviriy san'atning buzulishi, Tarix xikoyasi, Zamonaviy san'at, Maqsadning aniqligi, Yechim.

Muslim bo`ldik arabdan ortiq,
O`ris bo`ldik rusdan ziyoda.
Birni topsak yorug` dunyoda,
O`n karrani qilganmiz tortiq

(Erkin Vohidov)

O`zbekiston aholisi statistik malumotlarga qaraganda to`qson besh foizdan ortiqroq musulmon, demak o`lchovlarham tabiiyki shunga yarasha bo`lishi kerak. Lekin bizda buning to`qson besh foizligi bilinmaydi. G`arbga ko`r ko`rona ergashish, goyalarini yoqlash, borgan sari avj olib ketmoqda. Qo`pol qilib aytganda sababsiz tomndan tashlash qahramonlikni bildiradi deyilsa, shungaham ergashiladi. Bu nimani bildiradi? Bu maqsadning o`ta bemaniligini anglatadi. 1965-yil 7-iyulda tug`ulgan Damen Xerstga taqlid qiladigan, o`zini kumeriga aylantirgan yoshlarimiz talaygina. Chunki uning qo`shtirnoq ichidgi asarlari auksionlarda qimmatbaho pullarga sotilyapti. Uning g`oyalaridam jarangdor balkim shu sababdir uni sanatkori deya tariflashadi. Misol uchun tirik kapalaklarni holstga yopishtirib, san'at asarlari ko`z o`ngimizda o`lyapti kabi goyalarni ilgari suradi. Goyasi juda yoqimli, lekin masalaning ikkinchi trafiam bor. Bu beshavqatlikning urug`i ekildi deb tushunilsaham bo`ladi. Bularning hammasi ularga yarashadi, meni ularga davoyim yoq musulnom odam buni yoqlasa ichim eziladi. Uzoq va Yaqin tarixga nazar soladigan bo`lsak 13-asrda Mog`ullarning hujmi bilan parokanda bo`lgan xalq, yaqin tarixdham Ruslarning daslab 1852-yillarda qo`qon xonligiga hujumi bilan boshlangan istilosi ostida zo`raki madaniyat singdirildi. Tabiiyki san'atham o`zgardi. Bazida shunday gaplar bo`ladi agar ruslar kelmaganda haliyam minyatura chizib yurardik kabi insonni qalbini tilkalaydigan so`zlarni tarqatishadi. Bu naqadar johillik va ilinsizlik. Aslida muammo shu tarixga borib taqaladi. Bizni o`lchovimizdan adashtirib tashlashgan.

Hozirda bularning tasiri ostida yashayapmiz. Zamonaviy san'at niqobi ostida turli aqlga sigmaydigan ishlar paydo bo`lyapti. Mano mantig`i sayoz havoyi nafsi ustun qilib bu go`zallik bu nafosat deya bong urushyapti bu kelajak avlodga chinakam hiyonat. Chunki bu ishlarni ko`rib voyaga yetgan farzandlar asl haqiqat shu ekan deya ergashishadi, qarab turibsizki mo`min odamning fazilati-yu ahloqida asarham qolmaydi. Biz fundamentni zalolatga to`la qilib qo`yib ketsak butun olamlarning Robbisi bo`lgan Allohga qiyomat kuni qanday javob beramiz. Bu juda kop o`ylantiradigan va qo`rqitadigan muammo deb o`yayman. Mahadma Gandi inglizlar kelmsdan avval Hindiston buyuk o`tmishga madaniyatga ega edi deya jon kuydiradi, bizdaham shunday emasmi. Yuviqsizlar kelib Hudo yoq deya jar solganda iymondan qaytgan insonlar san`atda, madaniyatda qanday tonoshlar qilgan o`ylaysiz, bu qo`rqinchli. Mo`min bandaning maqsadlari ozaro yaqin boladi Ba`zi hikmat ahllari deydiki:



- Vujudning sog'ligi va omonligi oz yeyishda, ruhning sog'ligi va omonligi gunohsiz bo'lishda. Dinning omonligi esa, Alloh yaratgan zotlarning eng ziyolisi Hazrat Muhammad sallallohu alayhi va sallamning go'zal ahloqiga ega bo'lishdadir. Butun vujudi, barcha a'zolari bilan Allohdan qo'rqan kishilar mo'minlardir. Men orzu qilamanki ko'rgazmalarda maqsaddan chalg'itadiga ishlar bilan qatnashilmasa, jamiyatga bu go'zallik deya fisqu-fujr, faxsh narsalar tarqatilmasa. Mo'min musulmonchiligimiz yo'qolmasa, kelgusi jamiyatga sof va baquvat fundament qurib ketsak, odamlarni lol qoldiraman deya bo'lmag'ur eksprinentlarni o'tkazmasak va bularning katta jinoyatligini aqlimiz bilan qalbimiz bilan tushunsak. Ularning bilminigina olsak qolgani biz uchun chiqit ekanligini tushunsak men kelajak avlod juda hursand bo'lardi. Ahir qaysi kelajak istaydi ota bobolari adashishlik bo'lishini. Nima uchun Salohiddin Ayubiy buyuk bo'lgan chunki albatta Allohning nusrati va bandalari Nuriddin Zakiy kabi Sultonlar unga mustahkam poydevor qoldirib ketishgan. Bizchi nima qoldiryapmiz.? Kimlarni kumer qilib olyapmiz? Agar bizlar o'zimizni to'g'irlamasak San'atham zalolat botqog'iga botib boradi. Nega bizni qadrimiz pastlashib ketyapti? Nega insonlar bir biriga ishonchini yoqotib bormoqda? Bularning zamirida san'atning o'rni beqiyosdir zero tasviriy san'atham bundan mustasno emas. Bu shunday qurolki insonni qalbini o'ldiradi. Qalbi o'lik kimsadan hamma narsani kutish mumkin. Demak hulosa aniq qalb o'lishligini hech kim hohlamaydi. Shunchaki ergashishlik to'g'ri yo'lda bo'lsa ikki dunyo saodatiga erishamiz inshaAlloh. Kelajak avlodni o'ylaylik ular bunga haqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.1.Imom Abu Xomid G'azzoliy"Mukoshafatul Qulub"Ozbekiston Matbuot va ahbarot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.Toshkent 2004.

2.Uz. Viki pediya.org

3.www.gazeta.uz



AXBOROT XAVFSIZLIGI VA AXBOROTNI HIMOYALASHDA PEDAGOGIKANI O'RNI

Kurbanova Feruza Choriyevna

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi axborot xavfsizligi va axborotni himoyalashdagi dolzarb muammolar hamda ushbu sohada pedagogika va pedagoglarning tutgan o'рни to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axborot xavfsizligi, ta'lim muhiti, o'qituvchilar, talabalar, dolzarb masalalar.

Annotation: This article discusses current issues in information security and information protection, as well as the role of pedagogy and educators in this area.

Keywords: information security, educational environment, teachers, students, current issues.

"Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarinin ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi".

Islom Karimov

Dastavval, axborot xavfsizligi tushunchasi bilan atroflicha ta'rif keltirsak. Axborot xavfsizligi - axborotning nomaqbul (axborot munosabatlarining tegishli sub'yektlari uchun) oshkor qilinishidan (konfidensialligining buzilishidan), buzilishidan (yaxlitligining buzilishidan), sirqib chiqishidan, yo'qotilishidan, modifikatsiyalanishidan yoki foydalanuvchanlik darajasining pasayishidan hamda noqonuniy tirajlanishidan himoyalanganligi. Ushbu hodisalarning sababchisi tasodifiy ta'sirlar yoki buzg'unchining (niyati buzuqning) atayin ruxsatsiz foydalanishi natijasidagi ta'sirlar bo'lishi mumkin.

Axborot xavfsizligini ta'minlash muntazam va kompleks xarakterga ega ko'p qirrali faoliyatni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Uni amalga oshirishda axborot xavfsizligidan manfaatdor taraflar oldiga qo'yiladigan vazifalarga alohida e'tibor berish zarur. Ushbu turli-tuman vazifalarni bir necha quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

1) axborotdan foydalanishni ta'minlash, ya'ni maqbul vaqt mobaynida axborot xizmatini olish hamda axborotni olishda ruxsatsiz taqiqlashni bartaraf etish;

2) axborot yaxlitligini ta'minlash, ya'ni axborotning ruxsatsiz modifikatsiyalanishini yoki buzilishini bartaraf etish;

3) axborot konfidensialligini ta'minlash, ya'ni axborotdan ruxsatsiz tanishishni bartaraf etish.

Shubhasiz, axborot xavfsizligi va axborotni himoyalashda pedagogika va pedagoglarning tutgan muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim olayotgan yosh avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi, ayniqsa, yoshlarning shaxsiy elektron moslamalari va internetga ochiq kirish imkoniyatiga ega ekanligi bugungi ta'limni axborotlashtirish sharoitida dolzarb masala hisoblanmoqda.

Axborot xavfsizligini o'rgatadigan o'qituvchi bolalarning ongini salbiy axborot ta'siriga qarshi turishga tayyorlashga, axborot savodxonligini shakllantirishga (tanqidiy fikrlash qobiliyatlari), axborotni blokirovka qilish qobiliyatini rivojlantirishga, yuqori sifatli ma'lumotlarni sifatli ma'lumotlardan ajratishga o'rgatishi talab qilinadi. Bu o'sib unayotgan yosh avlodning bunday salbiy ta'sirlardan himoyalashida ahamiyatga ega bo'lgan muhim jihat sanaladi.



Talabalar uchun o'qituvchining obro'si hali ham yuqori, ilmu tolib ustoz bilan muloqotga ochiq va undan kelib chiqadigan ma'lumotlarga ishonadi. Talabaning asosiy faoliyati ta'lim faoliyati bo'lib, axborot xavfsizligini rivojlantirish jarayonini o'quv jarayoni sifatida tashkil etish muhimdir. Uning mazmuniga o'quvchining axborot xavfsizligi to'g'risidagi bilimlarini shakllantirishning pedagogik yo'naltirilgan jarayonini kiritish zarur.

Ko'plab rivojlangan davlatlarning o'rta maktablari uchun informatika bo'yicha o'quv dasturlarida, darsliklarda, o'quv qo'llanmalarida xavfsizlik muammosining quyidagi jihatlari u yoki bu darajada aks ettirilgan:

- kompyuterdan foydalanishda xavfsizlik choralari;
- dasturlar va ma'lumotlarning huquqiy himoyasi;
- axborotni himoya qilish;
- yolg'on ma'lumot muammosi;
- Internetni himoya qilish;
- Internetdagi so'z va senzuraning erkinligi;
- inson huquqlariga rioya qilish;
- sun'iy intellekt va jamoat xavfsizligi;
- inson va jamiyatning kompyuterga bog'liqligi;
- dasturiy ta'minot sifati;
- kompyuterning ishonchliligi va jamiyat xavfsizligi;
- shaxsiy muloqot.

Ushbu mavzular asosan kompyuter texnikasi, axborot resurslari xavfsizligi, jamoat manfaatlarini himoya qilish masalalarini qamrab oladi, ammo axborot jamiyatida shaxsiy xavfsizlikni qanday ta'minlash kerakligi haqidagi savolga javob bermaydi. Biroq, axborot madaniyati faqat axborot texnologiyalari bilan cheklanib qolmaydi, u dunyoqarash, axloqiy, psixologik va boshqa insonparvarlik qismlarini o'z ichiga oladi. Axborot xavfsizligi bo'yicha o'quvchilarni o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakli sifatida, darsdan tashqari ishlar ekskursiyalar, suhbatlar, ko'rgazmali namoyishlar, nazariyaning asosiy qoidalaridan foydalangan holda ko'rgazmali va illyustratsion materiallar to'plash tavsiya etiladi.

Talabalarning axborot xavfsizligini ta'minlash uchun o'qituvchilar birinchi navbatda ushbu zonani yaxshi bilishlari kerak. O'qituvchilar o'z darslari doirasida iloji boricha zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashlari va o'zlarining o'quvchilarini ularning salbiy ta'siridan darhol ogohlantirishlari kerak. Ta'lim ishlarida o'quvchilarning axborot madaniyatini tarbiyalashga, axborot makonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha eng zarur bilimlarni beradigan media-ta'lim bo'yicha darslarni o'tkazishga e'tibor qaratilishi bugungi rivojlanayotgan jamiyatimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.S.K. Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev. Axborot xavfsizligi -T.: "Fan va texnologiya", 2016, 372 bet.

2.<http://contentfiltering.ru/Eduandinet/risks/>

3.<http://www.bibliofond.ru/view.aspxid=563232>



ICHKI MUHITNI BEZASH

Toshpo'latova Sitora Bahodir qizi

Komoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn instituti 1 kurs magistranti

Annotatsiya: Interer dizayneri bizga nega kerak uyimizni mebellarga to'ldirib yoqtrgan rangimizga bo'yab chiqsak bo'ldi degan fikr ko'pchilik insonlarda uchraydi. Bizning o'ylashimiz bo'yicha dizayn har soxada har bir ishda muhim ro'l o'ynaydi. Misol qilib aytadigan bo'lsak kundalik turmush tarzingizda har kuni minadigan mashinangiz, ustingizga kiyadigan turli xil libosingiz, ishlatadigan oddiy daftar ruchkangizgacha dizayn asosida qilinadi. Hozirgi kunda ayniqsa qurilish sohasida odamlarga qulayliklar yaratish maqsadida interer dizayni rivojlanishi ancha jadal tus olgan.

Kalit so'zlar: Design, Interiur, Interior, Ex-terieur, Exterior, Tarixiy, Xi-tech, Modernizim, Dekonstruktiv

Dizayn (design- loyiha, chizma, rasim) - narsalar muhitini estetik va funksional sifatini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodolovchi termin. Zamonaviy dizayinni rivojlanish tarixiga nazar solsak 20-asr boshlarida yuzaga kelib, 30-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G'arbiy Yevropa va AQSHda shakillandi. 80- yilning 2-yarmida Dizaynning faoliyat doirasi kengaydi. Dizaynerlar rassom sezgisi bilan birga ilmiy fanlar (materialshunoslik, rangshunoslik) va boshqalarga tayanadi. Dizayn sohasidagi mutaxassislar maxsus oily o'quv yurtlarida tayyorlanadi. Jumladan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn insitutida ham interer va sanoat dizayni grafikasi, libos dizayni bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Interyer (fransuzcha interieur - ichki) - 1) me'morlikda - bino va in-shoot (turar joy, jamoat va sanoat)larning badiiy bezatilgan va jihozlangan ichkari qismi. Vazifasiga ko'ra, Intererning me'moriy yechimi (ko'rinishi, hajmi, shakli, bezaklari va) boshqaga, jihozlar xususiyati (mebel jihozlari va)boshqaga, binoning qanday maqsadga mo'ljallanganligiga, o'zaro mos mujassamlikda yaratilishiga bog'liq. 2) rangtasvir janri, 17-asrda golland va flamand rangtasvirida, 19-asrda Rossiyada taraqqiy etgan. O'zbek rangtasvirida Interer maishiy-tarixiy janrdagi asarlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Interyer (fransuzcha in-térieur lotincha. in-terior — ichki-ko'rinish, antonim fransuzcha ex-térieur, lotincha exterior - tashqi-ko'rinish)

- Tasviriy san'atda interyer mustaqil janr sifatida mavjuddir. Tarixiy, maishiy va zamonaviy mavzudagi badiiy asarlarda interyer fon tariqasida ham ishlatilishi mumkin. Interyer holati orqali xonadon sohibining didi haqida, yoki zavod sexini jixozlaganiga qarab ilmiy taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarning bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Teatrda interyer har tomonlama ichki jihozlari bilan estetik jihatdan zavod sexidan farq qiladi. Zavodning metall qo'yish sexini ko'z oldimizga keltiraylik. Katta sex poliga yotqizilgan katta hajmdagi plitalar, relsda harakat qilayotgan og'ir kranlar, kumushsimon tutun orasidan sexga tushayotgan sun'iy yorug' yonidagi metall pishiriq, qozondan ko'rinayotgan qizil lava va ko'k tutun kabi holati o'zini hayotiy go'zalligi bilan rassomni beixtiyor o'ziga tortadi. Interer janrida hayotning turli bosqichlarida ko'plab rassomlar ijod qilishgan ularning asalari orqali o'sha davrdagi qishloq uylari, cherkov, xonani, saroylarni ichki interyerlari orqali qanday holatda bo'lganini bilamiz. Ko'plab shunday realistik san'at asarlarida yozuvchi olimlarning, jamoat arboblarning xonalari tasvirlangan. Rassomlardan A. Venetsianovning, "A.Nekrasov portreti"dagi interer, I. Kramskoyning "Arka tagidagi xona", I.Repining "L. Tolstoy ish



ustida" tasvirlangan ishlarini aytib o'tishimiz mumkin. I. Repining "Kutmagan edilar" kartinasidagi intererda XIX asrning 80-yillari ilg'or ziyolilarning tipik turmush tarzi ko'rsatilgan. Natyurmortga nisbatan interyerda chiziq va havo perspektivasining hamma qonunlariga rioya qilinadi. Bu tasvirchini tartibga soladi. Xonani ichki ko'rinishi natyurmortga nisbatan, har xil balandlikda va masofada joylashgan ko'p predmetlar gorizontol pol va vertikal devor teksligida joylashgani bilan farq qiladi (mebel, deraza, kartina). Interer kompozitsiyasiga xonaning, predmetning konstruksiyasi perspektiva qisqarishi ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda soya - yorug' sharoitlariga qarab tus va "kontrast" rang yechimi ustida mashg'ulot bajariladi. Intererda odam figurasi ishtirokisiz ham mavzuni chuqur ifoda etish mumkin. Misol uchun "Maktab kutubxonasi", "Sport zali" kabi kompozitsiya mavzulari bo'lishi mumkin. Undan tashqari "Rassom ustaxonasi", "Buvim xujrasi", "Mashina sozlovchi ustaxona" kabi mavzular yakunlovchi vazifa sifatida berilishi mumkin. Har ikkalasida ham dastlab intererdagi mavjud predmetlarni sinchiklab o'rganib, xomaki chizg'i lavhalar bajarib, interyer kompozitsiyasini tuzish maqsadga muvofiqdir. Interyer dizayneri deb insonlar yashash tarzini yengillashtiruvchi, qulaylik yaratish bo'yicha yangidan yangi loyihalarni ishlab chiquvchi mutaxassislariga aytiladi. Interer dizaynida buyurtmachining qiziqishlari, kayfiyati, orzulari, takrorlanmas go'zallik, uslubda yaratilgan bo'lishi kerak. Interyer dizayni ham yildan yilga rivojlanib, bugungi kunga kelib o'zining turli uslublariga ega. Masalan, tarixiy, hi-tech, modernizm, dekonstruktiv va boshqalar... Bu yo'nalishdagi mutaxassis tanlangan binoni har bir xonasini aloxida bir did, takrorlanmas uslub bilan bezatilgan va shu qatorda insonlar uchun qulay shart sharoitlar yaratilganini bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, interer dizayneri ham rassom, ham loyihachi, ham konstruktor, ham ish boshi vazifalarini ham to'la bajara olishi lozim. Mustaqil ravishda interer uchun yaratilgan loyihaning eskiz va chizmalarini chiza olishi kerak. Kasb tarixi Ushbu kasb paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lmagan. XX asrning 80 yillarida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berib, axolida ortiqcha daromad paydo bo'ladi va yashash sharoitlarini o'zgacha uslubda o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Shu bilan bir qatorda interer dizaynerlariga ham ehtiyoj oshadi. Bu davrda insonlar talablari ham bir biridan farq qilib, yashash sharoitlarini qulayligini saqlab qolgan holda, takrorlanmas uslubda qurilgan, bezatilgan xonadonlarda yashashni talab qila boshlashdi. Bu bilan buyurtmachilar qurilish mollari, mebel va aksessuarlarga ortiqcha vaqt ketkazmay, o'z ishi ustalari interyer dizaynerlari didiga ishonib, kerakli mablag'ni to'lashni afzal ko'rishgan. Faoliyat turlari Arxitektor, bezatuvchi Ish joylari Dizayn studiyalari Mebel fabrikalari, firma va magazinlari Arxitektura bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar Mustaqil ijodkor (dizayner interer) Mutaxassislikka qaratilgan malakalar Mutaxassilikka tegishli malakalar: Asosiy kompozitsiyalar Agronomika va antropometriya Koloristika asosi va ranglar psixologiyasi Qurilish normalari va qoidalari Interer uslublari va dizayni tarixi Ranglarni loyihalashtirish asosi Interer dizayneri bilishi kerak, amaliy bilim ko'nikmalar kompyuter dasturlari materiallarni farqlay olish loyiha ishlab chiqish Marketing asoslari Psixologiya asoslari Dizayn intererdagi fen-shuy Interyer predmetlarini bezata olishi kerak. Interer dizayneri o'z maqsadiga muvofiq estetik jihatdan yoqimli ichki makonni ta'minlash uchun ichki qismni tartibga solish bilan shug'ullanadi. Estetik funktsiyani bajarishdan tashqari, interer dizaynerining ishi ichki makon ishini optimallashtirish va uning hududida navigatsiyani yaxshilashga qaratilgan. Shu bilan birga, mebelni tartibga solish faqatgina oxirgi bosqich bo'lib, u xonaning joylashishi, yoritish, akustika va shamollatish tizimlarining qurilishi, shuningdek devorlarni bezatishdan oldin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Arxitektura va dizayn grafikasi" M.I. Roziqberdiyev.
2. O'zbekiston milliy insiklopediyasi



3."История интерьера" Матюнина. Д. С

4.www.twirpx.com>design>interior.



TABIY FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

IMPROVEMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES TO EVALUATE THE QUALITY OF EDUCATION IN TEACHING NATURAL SCIENCES

Hamroqul Qormishovich Bo'riyev

SamDChTI "Redagogika va psixologiya" kafedrasida dots.

Normurodova Muzaffara Adxamovna

asistent o'qituvchisi muzaffaram@bk.ru

Annotasiya: Tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lim sifatini baholashning raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bu ushbu fanlar tizimida bir qancha yutuqlarga erishish afzalliklarini beradi. Shu borada zamonaviy "ta'lim" kontseptsiyasidan foydalanishni qulayliklarini bilish, ta'lim nazariyalari va ularning turlariga e'tibor berish, talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashga e'tibor berishimiz ta'lim sifatini baholashning raqamli texnologiyalar asosida baholashda o'z o'rniga ega.

Ma'lumki, har jabhada rivojlanib kelayotgan go'zal va betakror O'zbekistonimizda ham aniq va tabiiy fanlarning o'qitilishida oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarini moddiy texnika bazasini yangilash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va "Elektron ta'lim" tadbiri 2020-2025 yillarda innovatsion rivojlanishning kelajak traektoriyasi va raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmogda. Bu esa xalqimizning xususan ilmga chanqoq bo'lgan talaba yoshlarning turmush darajasini yaxshilash va yetuk mutaxasis bolib yetishishi uchun ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Avvalom bor biz ta'lim berish borasida zamonaviy "ta'lim" kontseptsiyasidan foydalanishni qulayliklarini bilgan holda bu tushunchaga aniqlik kiritib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki baholashning raqamli texnologiyalarini ham bu konsepsiyada o'z o'rnini mavjud. Zamonaviy "ta'lim" kontseptsiyasida nafaqat mashg'ulotlar natijasida olingan bilim, ko'nikma va malakalar, balki tanqidiy fikrlash, ijod qilish, axloqiy nuqtai nazardan baholashning raqamli texnologiyalarini qobiliyati ham faoliyatida cheksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida o'tadigan barcha narsalarni va insonning o'ziga xos turi bilan aloqasi, bunga insonni eng muhim faoliyatga qo'shish orqali erishiladi. Shunday qilib, inson tarbiyasi (protsexual nuqtai nazardan) - ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribani oldingi avlodlar tomonidan keyingi avlodlarga doimiy ravishda o'tkazib turadigan ijtimoiy tartibga solingan va normallashtirilgan jarayon (va uning natijasi), bu ontogenetik nuqtai nazardan, shaxsni mos ravishda shakllantirishdir. shaxsning genetik dasturi va ijtimoiylashuvi bilan.

Biz bilamizki oliy ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish va raqamli darsliklarni ishlab chiqish ularni amalda qo'llash samarasi ta'limda o'qitishning innovatsion usuli bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, korrupsiyani yo'q qilishga va uni oldini olishga qaratilgan. Tabiiy fanlarda ta'lim sifatini baholashning raqamli texnologiyalarini hamda raqamli darsliklarni qay ko'rinishda bo'lishini loyihalashdan avval ko'p jihatlarni o'rganiladi, ya'ni uni o'qitish bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Natijada yaratilayotgan baholashning raqamli texnologiyalari baholash jarayonini bilim olish jarayonida juda



oson aniq, tushunarli hamda qiziqarli, yengil, esdaqolarli va zararsiz bo'lishiga yo'naltiriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki bir vaqtning o'zida hamma guruh talabalarini baholab ularga etkazish moodul tizimi orqali yoki offlaym ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Bunday baholashning raqamli texnologiyalarini asosan fizika va anatomiya va boshqa tabiiy fanlar ustida olib borilgan dars jarayonida ishtirokchilarning ya'ni talabalarning 80 foizi axborotni eslab qolaoladi. Ta'lim oluvchining o'quv jarayoniga qamrab olishuni rejadagi darslarga bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda bu baholashning raqamli texnologiyalaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

Xususan oliy ta'limda tabiiy fanlar yo'nalishidagi quyidagi fanlar: molekulyar biologiya, bolalar anatomiyasi, genetika, biokimyosidan ayrim laboratoriyalari ishini baholashni o'tkazish bir qator qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bu borada ham biz zamonaviy baholashning raqamli texnologiyalardan foydalanilsa bu ham o'z samarasini beribgina qolmay fan rivojiga samarali ta'sir qiladi. Bundan tashqari bunday fanlarni o'zlashtirishda ham 3D gologramma orqali ushbu laboratoriyalarni virtual amalga oshirish mumkin. 3D gologrammali virtual laboratoriyaning afzalligi shundaki buni ixtiyoriy kimyo, biologiya, geografiya fani o'qituvchisi va o'quvchisi tayyorlashi va amalda qo'llashi mumkin. Buning uchun avvalo bizga 3D gologramma hosil qiluvchi qurilma, video tasvir hosil qiluvchi ekran (televizor, planshet, noutbukdan xam foydalanish mumkin) o'lchamiga qarab esa qurilma o'lchamlari olinadi. Bu ham baholashning samarali bo'lishiga olib keladi

Avvalom bor talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Bundan tashqari baholashning raqamli texnologiyalarini oydinlashishida barkamol mezon ta'lim mazmunida demokratik jamiyatda ijodkor, mustaqil, fikrlaydigan shaxsni shakllantirish vazifalarini aks ettirib, maktabda o'rganiladigan bilim sohalarining tipik jihatlari va umumiylikdan muhim bo'lgan fan metodlarini aniqlashni ta'minlaydi. Bu ham baholashning raqamli texnologiyalarda o'z o'rniga ega. Yuqori mezonni bilish ham har bir alohida o'quv predmeti va o'quv fanlari tizimiga kiritilgan o'quv materiallari mazmunining ilmiy va amaliy ahamiyati.

O'quv predmetlari umumiy ta'lim munosabatlarida muhim bo'lgan bilimlar - ta'rif, ilmiy haqiqat, nazariya, tushuncha, jarayon va boshqalarni o'z ichiga olishi kerak.

Muvofiqlik mezonlari o'quv materiallari mazmunining ushbu yoshdagi o'quvchilarning haqiqiy ta'lim imkoniyatlariga murakkabligi. Ayniqsa yosh organizmda bo'ladigan jarayonlarni e'tiborga olgan holda foydalanilsa baholashning raqamli texnologiyalari orqali aniq natijaga erishiladi.

Ovozni moslashtirish mezonlari mavzuni o'rganish uchun mavjud vaqt mazmunidan foydalangan holda yuzaga keladi. Bu mezonning ham raqamli baholashning zamonaviy ko'rinishlaridan biridir.

Tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lim sifatining baholashning raqamli texnologiyalardan foydalanishda ta'lim nazariyalari va ularning turlariga e'tibor berish mumkinligining ham o'z o'rnini bor. Shu borada aqqliy hatti-harakatlar va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi mavjuddir. Bundan tashqari muammoli ta'lim nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi, matnga asoslangan ta'lim nazariyasi, bilishning bixevioristik nazariyasi, o'zlashtirishning geshtalt nazariyasi, dasturlashtirilgan ta'lim nazariyalari mavjud bo'lib bu nazariyalari yuqori aytilganimizdek baholashning raqamli texnologiyalardan foydalanish o'z o'rniga ega.

Xulosa qilib aytganda tabiiy fanlarni o'qitishda baholashning raqamli texnologiyalardan foydalanishda biz yuqorida ko'rib chiqqan: zamonaviy "ta'lim" kontseptsiyasidan foydalanishni qulayliklarini bilish, ta'lim nazariyalari va ularning turlariga e'tibor berish,



talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashga e'tibor berishimiz barchasi bizni raqamli baholashda aniq natijaga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etisht'g'risida" gi 2005 yil 28-sentyabrdagi PQ-191-sonli Qarori

2.Haydarova O. Bo`lajak o`qituvchilarni ta`lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. -T.:2004.

3.XoliqovA. Pedagogikmahorat. T.: "TAFAKKUR-BO`STONI", 2011. 273-274-b.



QO'QON XONLIGIDA ADABIYOTNING RIVOJI VA BU DAVRDAGI BIZGA QOLDIRILGAN ADABIY MEROSLAR

Mirzayeva Dilorom Mashrabjon qizi
Talaba, Farg'ona davlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya: Bu maqolada Qo'qon xonligida adabiy muhitning yaratilishi, Amir Umarxon davrida adabiyotga, ilm-fanga bo'lgan e'tibor va bu davrda ijod qilgan shoir va yozuvchilar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amir Umarxon, Nodira, madrasalar, maktablar, adabiyot, adabiy muhit.

XVI -XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarining xalq talimi, fan va madaniyati haqida gap borganda shuni alohida takidlash kerakki, ijtimoiy siyosiy hayotning hamma sohalarida birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallardi. O'z boshlang'ich nuqtasini X-XII asrlardan e'tiboran olgan sofiylik tariqati naqshbandlik g'oyasi bilan uyg'unlik negizida XV asrga kelib eng yuksak cho'qqiga ko'tariladi, to XX asrdagi siyosiy to'lqin va lahzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy ro'l o'ynaydi. XVI -XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o'xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o'xshashdirlar.

Birinchi, O'rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o'rinlarda turgan bo'lsa, XVI-XVII asrlardan boshlab bu hududda tushkunlik boshlanadi. Ikkinchi, har uchala davlat birliklari o'zlari alohida mustaqil faoliyat ko'rsatsalarda davlat idora ishlari o'zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo'qonda fors-o'zbek, Xivada o'zbek tili rasman davlat tili hisoblanardi. Uchinchi, an'anaga ko'ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro'si saqlanib qolgandi. Buxoro amirligi Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qo'riqxonalar mavjud edi.

Madrasalar musulmonlar uchun oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o'rtasida esa Xonzoda va zodagonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktab bor edi. Odatda maktablarda asosan o'qish va yozish arifmetika va adabiyot o'qitilardi. Qo'riqxonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, hunar, doston va she'rlar g'azallar yodlash edilar.

Qo'qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan ko'proq maktablar bo'lgan. Shuning uchun savodlilar ko'p bo'lib, o'qish va yozishga usta bo'lganlar. 1841-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000ta mulla o'qigan. Bu madrasani ikkita bosh muzarrix boshqargan: Eshon Mavloniy va Maxzumi Buxoriy. bu hurmatli insonlar bo'lib katta ilmga ega edilar.

O'zbekiston hududidagi xonliklar va amirliklar davrida fan, adabiyot, san'at birmuncha rivojlangan. Ko'proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan. Tarixshunoslik ham ancha rivojlangan. Garchi bu davrdagi tarixchi olimlar yozgan tarix kitoblari ko'pincha o'sha xonlik va amirliklardagi siyosiy voqealar salnomasiga aylanib qolgan bo'lsa ham biz uchun bugungi kunda o'sha davrni yoritishda muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyot sohasida juda ko'plab shoir va shoirlar ijod etadilar. Qo'qon xoni Umarxonning o'zi Amiriy taxallusi bilan o'zbek tilida go'zal g'azallar yozgan. Ko'rilayotgan davrda fan va madaniyat har xolda bit yerda to'xtab qolmagan. Yuqorida bizlar takidlagan qurilishlar ayniqsa, madrasalar bunyodi shunga ishoradir. Sovet davri tarixshunosligi iloji boricha XVIII-XIX asrlarda o'zbek xalqining bu sohalaridagi tarixini bo'yab ko'rsatishga



intilib, o'lkani madaniy qoloqlikda ayblab, bu bilan Rossiya bosqinining O'zbekiston uchun progressiv ahamiyatini isbotlashga atayin harakat qilgan. O'tgan sulolalar kabi mang'itlar, qo'ng'irotlar minglardan chiqqan namoyondalar ham o'z davri va doiralarning o'qimishli shaxslari bo'lganlar.

Masalan, Qo'qon xoni Umarxonning Amiriy, Malika Mohlaroyning Nodira, Komila, Maknuna, Xiva xoni Muxammad Raximxon II Feruz, uning akasi Otajon To'ra Murod Murodiy taxallusida she'r bitganlarini, Abdulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai Turk", "Shajarai Tarokima" kabi o'zbek tilida yozgan asarlarini shu o'rinda eslash joiz. Fazliy, Mushrif, G'oziy, Afsus, Sodiq, Hijolat, Hoziq, Xotif, Maxmur, Gulxaniy kabi yetuk qalam sohiblari Farg'ona vodiysida yashab ijod qilganlar. Shuningdek, "Afzal at-Tavorix", "Tarixi Umarxon", "Risoi Askariya", "Muntaxab at-tavorix", "Tarixi Shohruhiy", "Tarixi Jahonamoy", "Xulosat al axbor", "Tasnifi g'arib", "Tarixi jadidai Tashkand" kabi boshqa ko'plab tarixiy asarlar ham huddi shu davrda Qo'qon xonligi doirasida yozilgan.

O'zbek milliy madaniyati markazlaridan biri shubhasiz bu Qo'qon shahri edi. Bu yerda XVIII-XIX asrning birinchi yarmida ilm marifat olamida nomi dunyoga mashhur bo'lgan ulug' va mutafakir shoirlar yetishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo'qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo'ldoshi shoira Nodiraning say harakati tufayli Qo'qon shahri ilm marifat adabiy muhiti paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.R.Shamsiddinov , Sh Karimov , O' . Ubaydullayev . Vatan tarixi . T.: Sharq. 2003.
- 2.Azamat Ziyoy . O'zbek davlatchiligi tarixi . T.: Sharq. 2000.
- 3.Mirzo Olim Maxdum Hoji . Tarixi Turkiston. "Yangi asr avlodi" , 2008.
- 4.Bobobekov . Qoqon xonligining qisqacha tarixi. "Turon tarixi" jurnali. To'plam . N - 2 T .. "Fan", 2008.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV OMILLARI

Saidaxmadova Nilufar G'ulomjon qizi

Buxoro viloyati Qorako'l tumani

18 - umumiy o'rta ta'lim maktabining Matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarda matematika fanini o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv omillari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Matematik kompetensiya, Axborot bilan ishlash kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, umummadaniy kompetensiya.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning yildan yilga o'sib borishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globalashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda.

Barchamizga ma'lumki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzidagi tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkurini kengaytiradi. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Bu davlatlardagi umumiy ta'limni yangicha mazmunining asosini o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbqiqiy yo'nalishlarni kuchaytirish tashkil etadi. Bundan tashqari, tuzilayotgan ta'lim standartlari o'quvchilarning kelajakda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari, turli kasb egalari bo'lishlari va har tomonlama faol fuqaro bo'lishlari uchun zarur bo'ladigan sifatlarni aks ettirishi kerak. Respublika ta'lim markazi tavsiyasiga ko'ra, matematika fani bo'yicha quyidagi tayanch kompetensiyalarga erishishga qaratilgan ta'lim standartining yangi avlodini yaratish: ko'zda tutilgan.

- Kommunikativ kompetensiya;
- Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
- Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi;
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
- Umummadaniy kompetensiyalar;
- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish, hamda foydalanish kompetensiyasi;

- Matematik (fanga oid) kompetensiya.

Matematik kompetensiya - kundalik holatlarda vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun matematik mushohada yurita olish va uni qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lish. Hisob - kitoblarni amalga oshirishning rivojlangan ko'nikmalariga tayangan holda asosiy urg'u tafakkur yuritish, bilim va malakalarga beriladi. Matematik kompetensiya turli darajada matematik mushohada yurita olish (mantiqiy va fazoviy tafakkur) hamda ma'lumotlarni taqdim etish usullarini puxta egallash va qo'llashni o'z ichiga oladi. Jumladan,

- matematika fanidan zaruriy bilimlar sonlar, kattaliklar va strukturalar, asosiy



amallar va ma'lumotlarni taqdim etish usullari, matematik tushuncha va terminlar haqida qat'iy bilimlarni hamda matematikada javob bera oladigan savollarni anglashni o'z ichiga oladi;

- inson matematikaga xos mulohaza yuritish, matematikada isbotni va matematikaning tilini tushunish hamda buning uchun mos vositalardan foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak;

- inson uyda va ishdagi kundalik vaziyatlarda asosiy matematik qonunlar va asosiy matematik usullarni tadbiq etish hamda asoslangan mushohada yuritish ketma-ketligini qurish va uni baholash malakalariga ega bo'lishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim berish sharoitida o'qituvchilarning o'z faoliyatiga yondashuvi ham o'zgarishi kerak. Zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillilik hissini hosil qilish, ularning har biri uchun o'zining iqtidori va qiziqishini amalga oshira oladigan rivojlantiruvchi muhitni yaratishdan iborat. Shuningdek, o'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va amalda qo'llash bo'yicha dars mashg'ulotlarini kirish, ma'lumotli, anjuman hamda muammoli dars shaklida olib borish, har bir amaliy mashg'ulotlarni grafik organayzerlar ("Klaster", "Insert", "T-sxemasi", "B/B/B", "Nima uchun?", "Venn diagrammasi", va hokazo) dan foydalangan holda tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

Adabiyotlar:

1.w.w.w.ziyo.net.uz



ZAMONAVIY MAKTAB KUTUBXONALARI KO'RSATKICH TAMOYILLARI

Shamuratova Nozima Ismoil qizi

TATU Elektron kutubhona va arxivlar fakultet

601-19 guruh 2-kurs magistratura talabasi.

Nozimashamuratova9@gmail.com

Muxamedaminov Aziz Odiljon o'g'li

TATU Telekommunikatsiyada boshqaruv

tizimlarining apparat va dasturiy ta'minoti kafedrasida assistenti

azizusmonov1992@gmail.com

Annotatsiya: Ma'lumki, hozirgi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimiga ham jadalik bilan kirib bormoqda. Ta'limiy axborotlarni bir vaqtning o'zida multimediyaviy vositalari: grafik, ovoqli, foto va video axborotlar bilan boyitish bilan olib borilishi o'quv fanlari va tarbiyaviy jarayonlar ta'sirini oshirishda ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. An'anaviy o'qitish jarayonida ta'lim axborotlarini og'zaki bayon etishda o'quvchi ongi o'zida qayta ishlash uchun axborotning ma'lum hajmini qabul qilsa, bu jarayonga qo'shimcha multimedia materiallaridan foydalanib, ko'rish va tinglash organlarining ishi "faollashtirilsa" mazkur hajmdagi axborot bir necha barobar ko'proq samarali o'zlashtirilishi o'z isbotini topgan.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim muassasasi, ta'lim sifati, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, elektron kutubxona, zamonaviy kutubxona, zamonaviy kitobxon.

XXI asrga kelib kutubxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish, innovatsiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot resurs xizmatlari ko'rsatishni sifat jihatidan rivojlantirishni davom ettirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2011- yil 23 fevraldagi PQ-1487- sonli qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qarori tarkibida elektron kutubxona to'g'risida namunaviy nizom ishlab chiqilgan bo'lib, elektron kutubxonaning vazifalari va funksiyalari, axborot-kutubxona fondini shakllantirish, elektron kutubxonal faoliyatini tashkil etish va shu kabi umumiy qoidalar belgilab o'tilgan. Ushbu namunaviy nizomga ko'ra, elektron kutubxonaning asosiy vazifalari quyidagicha:

- kitobxonlarga taqdim etish qiyin bo'lgan yoki cheklangan axborot kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlash;
- faqat elektron shaklda mavjud bo'lgan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlash;
- katta hajmli axborot bilan ishlashda foydalanuvchilarga shart-sharoitlar yaratish;
- xizmat ko'rsatishning sifati va tezkorligini oshirish, foydalanuvchilarga elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini taqdim etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari xizmatlari ro'yhatini kengaytirish;
- kutubxona texnologiyalarini modernizatsiya qilish;
- elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini jahon makoniga integratsiyalash;
- MARC (Machine Readable Cataloging) kabi kataloglashtirishning avtomatlashtirilgan standartlari kutubxona elementlarini tezroq kataloglashtirishga imkon beradi. Bu nafaqat kutubxonachiga mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga bag'ishlashga ko'proq vaqt ajratibgina qolmay, balki materiallarni joylashuv joyidan joyga almashishni ancha osonlashtiradi va ancha arzon qiladi.

Kutubxona materiallarini avtomatlashtirish nafaqat kitoblarni qidirishni osonlashtiradi,



balki ularni sotib olish, shuningdek, uy kompyuteridan yoki boshqa joydan jurnallarga va ba'zi kitoblarga internet orqali kirishni osonlashtiradi. Kutubxona fondlarini avtomatlashtirish, shuningdek, talabning ko'payishi haqida gap ketganda kutubxonani yanada moslashuvchan bo'lishiga imkon beradi. Kutubxonani avtomatlashtirish kutubxona fondida mavjud bo'lgan materiallar xilma-xilligi, miqdori va sifatini yaxshilashga imkon beradi. Avtomatlashtirish, shuningdek, kutubxonalarni doimiy ravishda kamayib boradigan mablag'lari bilan bir qatorda, axborotni tarqatish nuqtai nazaridan tobora o'sib boradigan texnologiyaga asoslangan jamiyatga o'tish bilan to'plamni barqaror bo'lishga tayyorlash usulidir. Avtomatlashtirilgan tizimga o'tish kutubxonalarga kelgusida mavjud bo'lganda, ularning to'plamlarini va kataloglash usullarini to'liq yangilash o'rniga, funktsiyalarni qo'shishga imkon beradi.

Maktab kutubxonasi jurnali yaqinda Janubiy Karolina maktab kutubxonachilari assotsiatsiyasi (SCASL) tomonidan buyurtma qilingan maktab kutubxonalarining o'quvchilar muvaffaqiyatiga ta'siri haqidagi shtat bo'ylab o'tkazilgan so'nggi tadqiqotga ko'ra, eng yaxshi maktab kutubxonasining xususiyatlari deb quyidagilarni ko'rsatganlar: 1) kutubxona hodimlari, 2) kutubxonaning umumiy moddiy ahvoli, 3) kutubxonaning ishlash soati, 4) kutubxona fondi, 5) kutubxona kolleksiyalari sifati, 6) Boshqa turdagi kutubxonalar bilan hamkorlikda ishlashi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib ayta olamizki, o'quvchilarning ta'lim olishlarida va kelajaklarida kitoblar va kutubxonalarning ahamiyati juda ham katta bo'lib, ularning avtomatlashtirish orqali esa o'quvchilarning va kutubxonalarining vaqti tejalishiga, ularning bilim darajasining oshishiga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin vafaravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". - T., "O'zbekiston". 2016y
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017y.
3. O'zbekiston Respublikasi Aholisiga Axborot-Kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi farmoni. PQ-4354 sonli. 07.06.2019y
4. "Elektron kutubxona menejmenti" Moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. 2016y.
5. Nabiraeva G. "Kutubxona ishini zamon talabi asosida tashkil etish ishiga rahbarlik ma'ruzalar matni". 2011y
6. Качева Е. В. Мультимедийные средства - инновационное направление в работе школьной библиотеки



NOSOG'LOM AXBOROT OQIMLARIDAN YOSHLARNI HIMOYALASH

Tajieva Saltanat

Muxammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar Universiteti
Nukus filiali akademik litseyi o'qituvchisi
saltanattazieva42@gmail.com

Annotatsiya; Mazkur maqolada hozirgi globallashuv davrida internet axborotlaridan tog'ri maqsadlarda foydalanish, turli xil ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati yoritilgan.

Kalit so'zlar; millatchilik, virtual, "Yoshlarni himoyalash to'g'risida" "Kiber jinoyatlar to'g'risida"

Hozirgi tezkorlik bilan rivojlanayotgan bir davrda siz dunyoning nargi bir chetidagi inson bilan bemalol gaplashish, axborot almashish imkoniyatiga egasiz. Axborot shu darajada tez yetib boradiki siz ma'lum bir sekundlar ichida millionlab ma'lumot almashinishingiz mumkin. Albatta bularning hammasi internet nomli bir tarmoqda amalga oshiriladi.

Internet-insoniyat taffakuri mahsuli hisoblanadi. Internetdan axborot olish, almashish va uzatish mumkin. Uning multimedia (tasvir, ovoz, matn) xizmati va boshqa qator qulayliklari insonni o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Biz bu xizmatlardan samarali foydalanar ekanmiz bu masalaning salbiy tomonlari ham bor. Bu virtual olamga hozirgi davrda ko'plab yoshlarimiz kirib bormoqda. Natijada bu shaxs o'zligini unitib o'zgalar joniga qasd qilib qo'yish, turli xil diniy va boshqa tashkilotlarga o'zi bilib bilmay a'zo bo'lib qo'yishlari mumkin.

So'nggi yillarda terrorchi tashkilotlar g'oyalarini targ'ib qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni 7000 dan oshdi. Ular millatchilik ruhidagi va ma'lum bir davlatning amaldagi tuzumiga qarshi qaratilgan noxolis axborotlarni tarqatish bilan mashg'ul bo'lib kelmoqda. Fikrimizcha, internet tarmog'ida foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlashning eng maqbul yo'li undan foydalanish madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Vaholanki, bugun internet olamida keng uchrayotgan kiberjinoyatlar, g'oyaviy va texnik (xakerlik) buzg'unchiliklar foydalanuvchilarning aynan internet madaniyati me'yorlariga rioya qilmasligi oqibatida yuzaga kelmoqda. Axborotlar tezkor internet orqali qabul qilinarkan, uning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi. Axborot sohasi liberallashayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda) o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini ko'rsatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, ularning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlarini kuchaytirayotgani sir emas. Nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan.

Jumladan, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to'g'risida" Konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida" Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" BMT Konvensiyasini, "Yoshlarni himoyalash to'g'risida" Germaniya, "Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida" Litva va "Bolalarni sog'ligi va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida" Rossiya qonunlarini tilga olishimiz mumkin.

Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat



siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan.

Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma'naviy-ruhiy ko'magiga muhtoj. Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir.

Hulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki ertamiz egalari bo'lgan yosh avlodni yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatishdek ulkan vazifa biz o'qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan. Shunday ekan biz yoshlarga nosog'lom axborotlar haqida tushuncha berish, internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatishimiz kerak.

Foydalanilgan internet adabiyotlar;

1. <http://uza.uz>
2. <http://daryo.uz>
3. <http://www.biznes-daily.uz>
4. "Ziyonet" portali.
5. <http://zarnews.uz>



ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARGA BARVAQT YORDAM TIZIMINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI

Xayitgul Muzaffarova
Jizzax Davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada alohida yordamga muhtoj bolalarga barvaqt yordam tizimini tashkillashtirish haqida fikr-mulohazalar va bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun ularning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etish haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: geteroxroniya, rehabilitatsiya, imkoniyati cheklangan, asinxroniya, ontogenez, erta tashxis

Alohida yordamga muxtoj bolalarning ta'limi, tarbiyasi jarayonlarini isloh qilib borish rivojlanish darajasidan qat'iy nazar har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Jumladan, Respublikamizda nogironlarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish, tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23 modda) hamda davlatimiz tomonidan 1992 yil ratifikatsiya qilingan BMT ning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiyasi (23-modda)da nogiron bolalarning alohida parvarish, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish xuquqlariga egaligi e'tirof etilgan. Ma'lumki, hozirgi kunda bolalalikdan yoki hayoti davomida u yoki bu ta'sirlar sababli nogiron hisoblangan shaxslar ta'limda alohida e'tiborga muhtoj yoki imkoniyati cheklanganlar deb yurtilmoqda. Bu toifa bolalar, o'smir va kattalarning ta'limi, tarbiyasi umumiy pedagogikaning barcha qonuniyatlariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida tadqiq qilinadi, rivojlanadi.

Ilk bolalik tibbiy va psixologik-pedagogik nuqtai nazardan bolaning rivojlanishidagi muhim bosqichlardandir. Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlar aro murakkab tizimning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda bolaning kompensator imkoniyatlari, to'g'ri tanlangan, olib borilgan psixologik-pedagogik korreksiyalash, davolash ishlari o'zaro uyg'unlashsa boladagi birlamchi psixik-jismoniy nuqsonlar ancha yumshatiladi, ba'zan esa butunlay bartaraf etilishi mumkin. Bularning barchasi bolalar nogironligini, ularning rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarni yuzaga kelishini oldini olishga imkon yaratadi. Barvaqt yordam tashkil etishning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi: ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarni va ularning oilasini maxsus yordam bilan qamrab olish, bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni tashxis qilish va korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni meyorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiyalash.

Bularning barchasi bo'lajak defektologlarga ilk yoshdagi rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish va ular bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borish metodlarini bilishlarini taqozo etadi. Nogiron bolalar va yoshlarning ijtimoiy huquqlarini tiklash va ijtimoiy muhitga moslashtirish - hozirgi kunning eng dollzarb masalalaridan biridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra nogiron bolalar soni yil sayin ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bolalarda nogironlik yuzaga kelishining asosiy sabablari ekologik vaziyatning yomonlashuvi, bolalar jarohatlanishining o'sishi hamda ayollar mehnat sharoitining nomaqbulligi hisoblanadi. Hozirda voyaga yetmagan nogironlar rehabilitatsiyasi va ularni hayotga moslashtirish bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, bu alohida yordamga muhtoj



nogiron bolalar va yoshlar rehabilitatsiyasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning yagona muassasalararo tarmog'ini shakllantirishning ilmiy asoslangan dasturi ishlab chiqishni taqozo etadi.

Psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari L.S. Vigotskiy tomonidan ta'riflab, berilgan. Uning ta'kidlashicha, normal va anomal bola bir xil qonuniyatlar bo'yicha rivojlanadi.

Integratsiya - inson hayoti davomida boshida tarqoq bo'lgan psixik jarayonlar turg'un va shu bilan birga moslashuvchan funktsional tizimlarga birlashib boradi [1].

Psixik jarayonlarning bir tekisda rivojlanmasligi - ya'ni har bitta psixik funktsiya uchun u eng jadal rivojlanadigan maqbul (optimal) muddatlar mavjud. Psixik funktsiyaning normada rivojlanishi geteroxroniya qonuniga bo'ysunadi (psixik funktsiyalarning ontogenezdagi shakllanishida muayyan muddatlar, ketma-ketlik). Rivojlanish buzilganida asinxroniya kuzatiladi, ya'ni psixik funktsiyalar shakllanishining muddatlari va normal ketma-ketligi buziladi. Bolaning nerv tizimi va psixikasining moslashuvchanligi. Bolalikda psixika ancha yumshoq va moslashuvchan bo'ladi va buning hisobiga buzilishlar kompensatsiya qilinishi mumkin, ya'ni birining hisobiga ikkinchisi ishlashi mumkin. Har qanday ziyon yoki har qanday zararli ta'sir organizmning himoyalash reaksiyasini ishga soladi, o'sha kamchilikni to'ldirishga da'vat etadi, buning natijasida organizm uchun xavf yuzaga keladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalarning tarbiyasi va ta'limi korreksion pedagogika va maxsus psixologiyaning muhim vazifasidir. Mamlakatimizda amal qilayotgan maxsus ta'lim tizimi rivojlanishi me'yordan chetga chiqqan bola nuqsonini korreksiyalash, uni ijtimoiy moslashtirishda eng maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat vazifalarni hal qiladi. Korreksion pedagogika va maxsus psixologiyaga oid bilimlar maxsus korreksion ta'lim muassasalarida ham, ommaviy ta'lim sharoitida ham rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. О.Н. Усанова Дети с проблемами психического развития / О.Н. Усанова. - Москва : НПЦ Коррекция, 1995. - 208 с

2. Akramova, X. (2020). СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ РАБОТА С ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674

ozgina vaqt ajratib, ularning ko'ngliga yo'l topa olsak, ertaga jamiyatimizga foydasi tegadigan insonlarni tarbiyalab, kamolga etkazamiz. Xulosa qilib aytganimizda o'smir yoshlar bilan ishlashda ularning psixologik va fizologik xolatlarini hisobga olgan holda yondoshilsa ularda yaxshi xislatlarni shakllantirishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1G`oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.

2Mayers D. Sotsialnaya psixologiya.- Spb, 1997

3Morgunov E. V. Lichnost i organizatsiya. Konspektu po psixologii.- M., 1996

4Nemov R. S. Psixologiya. Kn. 1. - M., 1994



ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНИШИДА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ

Ш.Мўминова (ЎзХИА магистранти)
Игмий раҳбар: и.ф.д. З.Содиқов

Аннотация: мақолада туризми ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштиришда, ахборот коммуникация тизмини қўллаш масалалари ёритилган. Унда Мамлакатимизнинг муқаддас қадамжоларини ўрганиш, унинг назарий масалаларини тадқиқ қилиш ва амалиётга жорий қилиш борасидаги муаммолар ўрганилган.

Калит сўзлар: ахборот коммуникацион технология, илғор технология, мотель, кемпинг, туризм индустрияси, инновация, интеллектуал, комбинация, сегмент, веб портал, илмий тадқиқот, ишланмалар.

Дунё бозорида мамлакатимиз сайёҳлик салоҳиятини намойиш этиш истиқболларини янада такомиллаштириш мақсадида ҳудудларнинг сайёҳлик имкониятларини янада кенгроқ жалб қилиш мақсадида туризми ахборотлаштириш ва компьютеризациялаш даврида сайёҳлик соҳасида ахборотни сотиш ва уни узатиш бўйича янгича ёндошувлар мақсадга мувофиқ. Аксарият маҳаллий сайёҳлик ташкилотлари бугунга келиб ўз интернет сайтларига эга, зеро айнан интернет сайтлари туризм маҳсулотни сотиш учун асосий манба ҳисобланади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, замонавий сайёҳлар дам олиш кунларини замонавий технологияларсиз тасаввур қилиш қийин. АКТ орқали сайтлар тайёрланади ва туристлар учун ушбу ҳудудлар тўғрисидаги барча маълумотлар, йўл кўрсаткичлар, мобиль иловалари, тарихий обидаларнинг тўлиқ таснифлари турли тилларда берилади.

Шу туфайли мазкур мақолада минтақавий туризми ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизминини такомиллаштириш бўйича олиб борилган илмий тадқиқотлар бугунги куннинг долзарб масалалари қаторига киради.

Купгина илмий адабиётларда Ўзбекистон Республикаси вилоятларини ижтимоий-иқтисодий жихатдан туристик минтақаларга бирлаштириш усули, марказий минтақа туристик хизматларининг ялпи ҳудудий маҳсулотдаги улушини аниқлаш усули, минтақавий туризм кластерини яратишнинг ташкилий-иқтисодий механизми, ягона геотуристтик портал яратиш бўйича таклифлар, туризми ривожлантиришни мувофиқлаштирувчи минтақавий кенгашлар фаолиятини ташкил қилиш бўйича таклифлар, Ўзбекистон Республикаси марказий туристик минтақасида туризми ривожлантириш-нинг 2019-2022 йиллар давомидаги параметрлари илмий-назарий жихатдан тадқиқ қилинган ва амалий аҳамияти кўрсатиб берилган.

Таъкидлаш жоизки Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрда имзоланган "Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4861-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августда имзоланган "2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3217-сонли Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралда имзоланган "Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5326-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги



"Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 февралдаги "Кириш туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги "Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори, 2019 - 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси ва бошқа соҳага оид ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни бажариш мақсадида ишлаб чиқилган.

Тадқиқотнинг мақсади бевосита туризм соҳасини, жумладан, минтақавий туризмни ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга жорий қилиб, тажриба натижалари асосида олинган маълумотларнинг қийматли таҳлилини амалга оширишдан ва энг самарали усуллари аниқ маълумотлар билан исботлашдан ҳамда уни амалиётга кенг миқёсда жорий қилишдан иборат.

Жаҳонда минтақавий туризмни инновацион ривожлантиришнинг илмий-назарий асосларини такомиллаштириш бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Хусусан, туризм хизматлар бозорида минтақавий туризмни ривожланиш йўналишларини белгилаш, миллий иқтисодиётда унинг ривожланиш моделини ишлаб чиқиш, минтақаларнинг туристик жозибадорлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада, минтақавий туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш муҳим масалалар қаторига киритилган.

Мустақиллик йилларида туристик хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш ва туристик хизматларни диверсификация қилишда туризм соҳасининг мақсадли вазифалари қаторига "...туризмга иқтисодиётнинг стратегик сектори мақомини бериш, ушбу соҳани барча ҳудудларни ва ўзаро боғлиқ тармоқларни комплекс равишда жадал ривожлантиришнинг етакчи кучига айланиши лозим бўлган иқтисодиётни диверсификациялаш, таркибий ўзгартириш ва барқарор ривожланишнинг қудратли воситасига айлантириш..." киритилди. Ушбу вазифаларнинг бажарилиши макро даражада туризм соҳасини ривожлантириш, ЯИМдаги улушини ошириш, аҳолини янги ишчи ўринлари билан таъминлаш мақсадида минтақавий туризм бозорини таҳлил қилиш ва минтақавий дастурлар ишлаб чиқишга асос яратадиган мукамал илмий тадқиқотларга эҳтиёж мавжудлигини кўрсатмоқда.

Туристтик соҳанинг инновация фаоллигини ошириш учун уни бошқариш тизимида ҳам янгиликларни киритиш зарурияти туғилади. Бу инновацияларнинг қўлланилиши туризм соҳасида янги иқтисодий категориянинг пайдо бўлишига, соҳа бошқарувига муносабатни тубдан ўзгартиришга сабаб бўлди. Бундай янги бошқарув ёндашувларидан бири хорижий адабиётларда "Destination Management" концепцияси билан машҳур бўлмоқдаки, унинг объекти сифатида "destination" атамаси хизмат қилади.

"Destination" инглизча сўз бўлиб, туризмга оид русча адабиётларда "место назначения туриста" деб таржима қилинади ва ўзбек тилида, бизнинг фикримизча, уни "туристик манзил" ибораси билан ифодалаш мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки "destination" атамаси маъно жиҳатдан "саёҳатчи ўз саёҳати давомида туристик фаолият олиб борадиган манзил-макон"ни ифодалайди.

Туризмга оид адабиётларда "Destination" ёки "туристик манзил" атамасига хилма-хил таърифлар берилган ва кўп ҳолларда улар бир-биридан фарқланади, ҳамда уларни қандай бошқариш керак, деган саволга аниқ жавоб олиш имкониятини бермайди. Жумладан П. Келлер "туристик манзил маълум туристлар сегменти



эҳтиёжини қондирадиган ва бирлашган хизматлар мажмуидир" деб таъриф беради.

Айтиш жоизки, "туристик манзил"га бериладиган таърифларнинг умумийлиги "туристик манзил"нинг туристик маҳсулот деб тан олиншидадир. Лекин "туристик манзил"га таъриф беришда талаб ёки таклиф томонидан ёндашувлар масалани чигаллаштиради ва фикрларнинг бир-биридан фарқланишига олиб келади. Д. Пиарс, Н. Лейпер, У. Зилтенер, У. Мартини, Г. Печланер каби туризм соҳасидаги олимлар талаб нуқтаи назаридан ёндашиб "туристик манзил"га "сайёҳни маълум жойга жалб қилишга қодир бўлган маҳсулотлар, хизматлар, табиий ва сунъий жозибатор омиллар мажмуи" деб таъриф берадилар. Г. Печланернинг фикрича, "туристик манзиллар - бу маҳсулот ёки бирлашган маҳсулотлар мажмуи сифатида тушуниладиган, сайёҳнинг назарида саёҳати давомида белгиловчи аҳамият касб этиладиган, жуғрофий нуқтаи назардан аниқ чегарага эга бўлган рақобатбардош бирликдир" .

"Туристтик манзил" ибораси адабиётлар ва тажрибада, кўп маъноли сўз сифатида намоён бўлади. Шунинг учун уни ягона маънода тушуниб бўлмайди. Туризм соҳаси эса, "туристик манзил" атамасини аңлатиш учун жой, ҳудуд, зона, район, минтақа каби синонимларни "туристик" аниқловчиси билан бирга келтиради.

У. Мартинининг фикрича, вақт ўтиши билан бу иқтисодий категория чуқур эволюцияга учради, яъни "таътилни ўтказадиган жой" аънавий маъносидан, "кўрсатилган туристик фаолиятларни кўзда тутган ҳолда миждо аъни шу жойда ўз дам олиш вақтини ўтказишга аҳд қилган зона" маъносига ўтиб, аъни вақтда "маълум жойда туристик талаб ва унинг натижаларини бошқариш" ни билдирмоқда . У Мартини хулоса қилиб, "туристик манзил" "маълум истеъмолчилар сегменти учун хилма-хил хизматлар мажмуи сифатида намоён бўлади. Уларнинг ичида алоҳида маҳсулотлар ёки жозибатор омиллар эмас, балки сайёҳ томонидан шакллантирилган комбинация муҳимдир" деб таъкидлайди. Унинг фикрича, туристик манзил қуйидаги унсурларга асосланади:

- аниқ чегарага асосланган жуғрофий жой;
- келгинди туризми (incoming), яъни маълум жойларга сайёҳлар оқимини йўналтириш;
- жойлардаги мавжуд жозибатор омилларга ҳамда туристик фаолият олиб борадиган ишлаб чиқарувчиларнинг таклифига системали ёндашиш;
- туристик фавқулудда ҳодисаларга оид қарорлар қабул қилиш асосида туристик ҳудудни иждимоий-иқтисодий ривожлантириш;
- туристик жойлардаги ташрифлар ва муҳит муҳофазаси орасидаги мутаносиблик масаласи, маҳаллий аҳолига туризмнинг хилма-хил таъсирлари кабиларни бир-биридан ажратиб қўйиш.

Э. Лоувснинг фикрича, туристик манзил атамаси ҳозирги вақтда маъно жиҳатдан қуйидаги унсурларни ўзида мужассамлаштиради :

- туристик жойларга етиб келиш;
- таклифнинг сифати;
- муҳит барқарорлиги;
- ҳудуд ривожланишини стратегик режалаштириш;
- туристик сиёсат олиб бориш;
- ўзаро мутеъликни бошқариш;
- маҳаллий қатнашувчилар орасида мувофиқлаштириш жараёнларини бошқариш.

Агар юқорида номи тилга олинган олимларнинг таърифларидаги ўхшашликни ажратмоқчи бўлсак, улар "туристик манзил"ни сайёҳ ўз саёҳатини амалга оширишда ўз эҳтиёжларини қондирадиган унсурларни танлаб, уларни бирлаштирадиган



фаолиятидир" деб таърифлаш мумкин. Демак, "туристик манзил"га талаб томонидан қарашда "диққатга сазовор жуғрофий жой" ва "туристик манзил" бир-бири билан мувофиқ келмайди, аксинча у "туристик манзил"нинг бир унсури ҳисобланади.

М.Тамма, Ф. Брунетти каби олимлар эса, туристик манзилга талаб томонидан эмас, балки таклиф томонидан ёндашиб, маълум ҳудудга тааллуқли тизим, деб тушунишади-да, уни "туристик маҳсулот" ва "туристик марказ" (курортлар)дан фарқлашади. Жумладан М. Тамма "туристик манзил" тушунчасига аниқлик киритиб, уни: "маҳсулот ва таклиф тизими категорияларига асосланган..., жуғрофий жойга нисбатан ўзгарувчан бўлиб, стратегик менежментни қўллаш эвазига ўз қийматини оширади", деб таъкидлайди. Бу маънода "туристик манзил" маҳсулот ва ишлаб чиқарувчилар мажмуини ташкил қиладиган "туристик ҳудуд" тушунчасига яқинлашади. Яъни бу ўринда "туристик манзил" ва "туристик ҳудуд" турдош атама сифатида талқин қилинади.

"Туристик манзил"га таклиф нуқтаи назаридан ёндашадиган яна бир олим Ф. Брунеттидир, у М. Тамманинг фикрига қўшимча қилиб, шундай ақидани олға суради: "Аниқ таклифни бошқаришга йўналтирилган туризм бошқарувини муҳокама қиладиган бўлсак, унга тааллуқли бўлган 3 та мантиқий атамани ажратиш мумкин: маҳсулот, ишлаб чиқарувчи ва таклиф тизими". Ф. Брунеттининг мазкур қараши М.Тамманинг "туристик манзил" "туристик ҳудуд" тушунчаси билан мувофиқ деган фикрни илгари суради. Чунки у ажратган атамаларнинг барчаси биринчи галда "туристик ҳудуд"га тааллуқли бўлган таклиф унсурлари кўламига киради.

Ўзбекистонда туризм соҳасини мамлакатнинг инвестицион жозибадорлигини оширувчи ҳамда иқтисодийнинг стратегик сектори сифатида ривожлантиришга катта эътибор берилмоқда. Дунё мамлакатларини маълум бир макро минтақаларга бирлаштириш шунингдек, уларни микро минтақаларга ажратиб ривожлантириш, унинг туристик салоҳиятини тадқиқ қилиш, туризм соҳасининг ривожланиш тенденциялари ва имкониятларини белгилаш, туризм соҳасини ривожлантиришга тўсиқ бўлаётган муаммо ва камчиликларни аниқлаш ҳамда уларни яхшилаш йўллариини ишлаб чиқиш бугунги кунда муҳим аҳамият касб этади.

Бунда:

-маҳаллий маҳсулотлар экспорт ҳажмини оширишга, инвестициялар ҳамда туристларни мамлакатимизга жалб этишга кўмаклашишни элчилар фаолиятининг устувор вазифаларидан бири сифатида белгилаш;

Ўзбекистоннинг чет элдаги элчихоналарининг ҳар бирида савдо ва иқтисодий масалалар бўйича бўлинмаларини (маслаҳатчи штатини) жорий қилиш масаласини кўриб чиқиш;

-элчихона дипломатик ходимларини лавозимига қўйишда уларнинг иқтисодий билимларини синовдан ўтказиш назарда тутилади.

Бугун ҳеч бир соҳани компьютер технологияларисиз тасаввур қила олмаймиз. Ушбу соҳада фаолият кўрсатаётган ҳар бир муассаса учун замонавий АКТ дастурларини жорий этиш ва уларни нафақат ички балки ташқи бозорда сотиш учун муҳим манбалардан бири десак адашмаймиз.

Туризм соҳасини, жумладан, минтақавий туризмни ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга жорий қилиб, тажриба натижалари асосида олинган маълумотларнинг қиёсий таҳлилини амалга оширишдан ва энг самарали усулларини аниқ маълумотлар билан исботлашдан ҳамда уни амалиётга кенг миқёсда жорий қилишда АКТ дан фойдаланишнинг аҳамияти қуйидагилардан иборат:

-минтақавий туризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришда АКТ орқали минтақа



аҳолисининг яшаш даражаси, сифати ҳамда иш билан таъминланиш имкониятининг яратилиши;

-туризм соҳасининг жаҳон миқёсида жадал суръатлар билан ривожланиб бораётганлиги ва даромадлиги жихатидан дунёда энг етакчи тармоқлардан бирига айланаётганлиги;

-минтақавий туризмни инновацион ривожлантиришнинг илмий-назарий асосларини такомиллаштириш бўйича етарли даражада илмий изланишлар олиб бориш зарурлиги;

-Ўзбекистондаги минтақавий туристик маҳсулотларни ишлаб чиқиш ҳолатини таҳлил қилиш ва ривожланиш даражасини баҳолаш, минтақалараро ва минтақалар бўйича янги йўналишлардаги туристик маршрутлар ишлаб чиқиш, минтақаларнинг туристик салоҳияти бўйича электрон маълумотлар базасини шакллантириш ва рақамлаштириш заруратининг мавжудлиги;

-республикамиз туризмнинг митақа даражасидаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш хусусиятлари ва тенденциясини илмий-амалий жиҳатдан асослаш, минтақаларнинг туристик салоҳиятидан самарали фойдаланишни таъминлайдиган ташкилий-иқтисодий тизимини такомиллаштириш бўйича илмий-тадқиқот ишларининг етарли даражада олиб борилмаганлиги;

-туризм хизматлар бозорида минтақавий туризмнинг ривожланиш йўналишларини белгилаш, миллий иқтисодиётда унинг ривожланиш моделини ишлаб чиқиш, минтақаларнинг туристик жозибadorлигини оширишга алоҳида эътибор қаратиш лозимлигидан иборат.

Шунингдек, ҳар бир вилоятда миллий компаниянинг минтақавий бўлимлари ва уларда мавжуд жойлаштириш тизими ўз-ўзидан миллий компания таркибига киритилди. Айниқса хорижлик туристлар, жумладан, муқаддас қадамжоларни зиёрат қилиш мақсадида келаётган туристлар учун шароит яратишга эътибор қаратилди.

Туризмнинг замонавий ривожланиш босқичи асосан ота-боболаримиздан қолган оилавий, хунармандчилик ва ишлаб чиқариш кўринишидаги каби кичик корхоналарнинг мавжудлиги билан характерланади.

Туризм орқали бошқа кўплаб иқтисодиёт соҳаларининг самарали фаолиятини таъминлаш. Масалан, туристларнинг мамлакатимизга келиши, мамлакатимиздаги муқаддас қадамжоларни зиёрат қилиши, мамлакатимиз бозорларида сотилаётган маҳаллий ишлаб чиқариш маҳсулотларининг харид қилиниши, уларнинг ўз юртлари билан боғланиб туришлари учун сифатли ахборот коммуникация технологияларини янада кенг тармоғининг ташкил этилиши, мамлакат ҳудудидаги транспорт йўлларини замонавийлаштириш, туристларнинг маданий хордиқ чиқаришларини таъминлашда муҳим омиллардан ҳисобланган спорт иншоотларининг замонавий тарзда бунёд этилиши ва шу кабилар туризмни ривожланишига олиб келади.

Қашқадарё вилоятида сайёҳлик соҳасини ривожлантириш, юртимизга келаётган хорижлик сайёҳлар оқимини янада кўпайтириш юзасидан улкан ишлар амалга оширилди. Туризм инфратузилмасини ривожлантириш, хизмат кўрсатиш сифатини янада юксалтириш, малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарларининг жозибador объектлари тасвирга туширилган туристик карта-схемаси ишлаб чиқилди. Миришкор туманида йилда "Ачинкўл" сув ҳавзаси атрофида дам олиш маскани ва унинг инфраструктурасини барпо этиш (балиқ овлаш, скутерда сузишни ташкил этиш, ўтовли уйлар қуриш) мақсадида ҳозиргача 12 кишига мўлжалланган меҳмонхона ва туристлар дам олиш маскани, автомобиллар тўхташ жойи, мобиль алоқа



маркази, балиқ овлаш спорти бўйича сув ҳавзаси қуриб битказилди. Айни пайтда бу ерда ҳам ишлар босқичма-босқич давом эттирилмоқда.

Яккабоғ туманининг Хўжаилғор қишлоғида Амир Темурнинг болалик даврлари ўтган уй музейи ташкил этиш ва унинг атрофини ободонлаштириш ҳамда умумий овқатланиш пунктларини ташкил этиш бўйича ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлиги томонидан хорижий ҳамкорлик паспорти шакллантирилди. Китоб туманининг Мингчинор оромгоҳида хорижий инвестициялар ҳисобидан туристлар учун тоғ чанғи спорти базаси, осма йўл, меҳмонхоналар, умумовқатланиш пунктлари, ресторанлар ташкил этиш ҳамда ҳосил бўладиган мажмуа атрофини ободонлаштириш бўйича тўлиқ паспорт тайёрланиб, Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлигига тақдим этилди. Вилоятнинг туристик маҳсулотларини кўпайтириш йўналишида ҳам бир қатор ишлар амалга оширилди. Жумладан, сайёҳлар Чироқчи туманида жундан гилам тўқувчи тадбиркорлар хонадонидан иш жараёнини кузатиши учун кўрғазма ташкил этилди. Қарши шаҳрида болалар дам олиш оромгоҳи ёнида оилавий дам олиш маскани ташкил этиш, унинг ҳудудида ресторан, кафе ва кўнгилочар объектлар қуриш бўйича ҳозирги кунда лойиҳа-смета ҳужжатлари тайёрланиб, ишлар давом эттирилмоқда. Ўзбек миллий ўйинларини хорижий ва маҳаллий сайёҳларга намойиш этиш мақсадида Шаҳрисабз туманида 2018 йилнинг 21-22 апрел кунлари Амир Темур хотирасига бағишланган ананвий VII ҳалқаро турнири ташкил этилди. Унда 33 мамлакатдан келган 100 дан ортиқ полвонлар мамлакатимизнинг етакчи курашчилари бош соврин учун гиламга тушди. Дастур доирасида ушбу намойишлар доимий ўтказилиши белгиланган.

Бугунги кунда ҳеч бир соҳани ахборот коммуникация технологияларисиз тасаввур қила олмаймиз. Ахборотлаштириш ва компютеризациялаш даврида сайёҳлик соҳасида ахборотни сотиш ва уни узатиш бўйича янгича ёндошувларга олиб келди. Ушбу соҳада фаолият кўрсатаётган ҳар бир муассаса учун замонавий АКТ дастурларини жорий этиш ва уларни нафақат ички балки ташқи бозорда сотиш учун муҳим манбалардан бири десак адашмаймиз. Аксарият маҳаллий сайёҳлик ташкилотлари бугунга келиб ўз интернет сайтларига эга, зеро айнан интернет сайтлари туризм маҳсулотни сотиш учун асосий манба ҳисобланади. Қашқадарё вилояти қадамжолари бўйича ишлаб чиқиладиган веб-портали Қашқадарёнинг муқаддас қадамжолари, тарихий ёдгорликлари, сайёҳлик маршрутлари, гид-таржимонлари, маҳаллий қонунчилик, маданият, анъаналар, табиат, ҳайвонот олами, музейлар, ресторанлар тўғрисида тўлиқ маълумотлар берилди. Веб портал ўзбек, рус, инглиз, тилларида ишга туширилмоқда. Порталнинг facebook ва бошқа ижтимоий тармоқлардаги саҳифалари соҳадаги янгиликлар ва зарурий маълумотларни тарқатишда муҳим воситаларидан бири бўлиб хизмат қилади. Айнан ижтимоий тармоқлардаги саҳифалар сайёҳлик хизматларини дунё бозорига тарғиб қилиш, туристлар оқимини янада кенгайтириш учун муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Қашқадарё вилоятининг қадамжоларининг расмий сайтида мунтазам берилиб бориладиган маълумотлар аҳолини бугун мамлакатимизда амалга ошириладиган ўзгаришлар, ҳаётга татбиқ этиладиган янги лойиҳалар билан танишиш имконини беради. Унда ташкиллаштириладиган янги бўлимлар, техник жиҳатдан такомиллаштирилганлиги сайт ўқувчиларига кўплаб қўлайликлар яратди. Энди сайтда эълон қилинган барча маълумотларни смартфон ва планшетлар орқали ўқишлари мумкин. Бу каби чоратadbирларнинг амалга оширилиши сайтга кирувчилар сонини сезиларли ошишига сабаб бўлди.

Дунё бозорида мамлакатимиз сайёҳлик салоҳиятини намойиш этиш



истиқболларини янада такомиллаштириш мақсадида ҳудудларнинг сайёҳлик имкониятларини янада кенгроқ жалб қилиш мақсадида Қашқадарё вилояти қадамжолари веб портали ташкил қилинмоқда. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, замонавий сайёҳлар дам олиш кунларини замонавий технологияларсиз тасаввур қилиш қийин. Ушбу сайтларда туристлар учун ушбу ҳудудлар тўғрисидаги барча маълумотлар, йўл кўрсаткичлар, мобил иловалари, тарихий обидаларнинг тўлиқ таснифлари турли тилларда берилади. Айнан шунинг учун, тарихий шаҳар музейида ишга туширилган симсиз интернет- Wi-Fi тармоғи тарихий объектларида ишга туширилиши режалаштирилмоқда. Wi-Fi тармоғи фойдаланувчилари Интернет хизматида барча объектларда фақат битта карта орқали фойдаланишлари мумкин. Мобил қурилмалари учун дастурий таъминот, 3-D макетлар қурилмалари, шунингдек инфокиоскалар учун дастурий таъминотлар каби комплексли лойиҳалар киради. IOS ва Android платформаларнинг мобил қурилмалари учун ахборот таъминотларнинг ташкил этилиши, мобил иловалардаги, тарихий обидаларнинг тарихи, уларнинг архитектурасидаги ўзига хосликлар, музейлар, миллий таомлар тайёрланиш услублари, турлар ва сайёҳлик компанияларининг ягона фото-галериялари тўғрисидаги маълумотлар App Store ва Google Play Маркетларга жойлаштирилади.

Бугунги кунга келиб, Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш бўйича Вазирликлар билан ҳамкорликда давлат интерфаол онлайн хизматларини ривожлантириш бўйича бир қанча чора тадбирлар амалга оширилмоқда. Ҳукумат порталидаги сайёҳлик бўйича маълумотларни доимий равишда янгилаб бориш бўйича ҳам зарурий чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

АКТни такомиллаштириш ва ривожлантириш бўйича олиб борилаётган ишлар мамлакатимизда ушбу соҳада кўрсатилаётган хизматларни сифатини ошириш бўйича хизмат қилиб, мамлакат сайёҳлик салоҳияти тўғрисида жаҳон аҳлининг хабардорлигини оширишга хизмат қилади.

Замоанавий компьютер технологиялари туризм соҳасига фаол жорий этилмоқда ҳамда улардан фойдаланиш ҳар бир туристик фирма ва тошкilotлар, меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари, шунингдек, минтақанинг туристик жозибadorлиги ҳамда рақобатбардошли-гини оширишнинг асосий шартига айланиб бормоқда.

Бугунги кунда туризм соҳасида жуда кўп замонавий компьютер технологиялари ва тизимларидан самарали фойдаланиб келмоқда. Хусусан, глобал компьютер тизимлари, замонавий компьютер дастурлари, интеграция-ланган алоқа тармоқлари, мултимедиа тизимлари, Smart карталар ва шу кабилар туризм соҳасида кенг қўлланилмоқда.

Тадқиқотлар натижасида туризм соҳасида ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланишнинг муҳим йўналишлари ва ўзига хос хусусиятлари аниқланди. Жумладан: ахборот коммуникацион технология-ларидан фойдаланиш орқали халқаро туризм бозори учун рақобатбардош туристик маҳсулотни шакллантириш ҳамда унинг реализациясини таъмин-лайдиган юқори рентабелли тизимни яратиш ва бу орқали туризмни миллий иқтисодийнинг энг кучли даромадли соҳасига айланттириш; мамлакатнинг ҳамда минтақаларнинг туристик салоҳиятини ошириш; маданий-тарихий ва табиий туристик ресурсларнинг маълумотлар базасини шакллантириш, улардан фойдаланиш самарadorлигини ошириш, туристик хизматларга бўлган эҳтиёжни тўлақонли қондириш; туризм соҳасидаги давлат ва хусусий тузилмалар ўртасидаги ўзaro ҳамкорликни таъминлаш ва самарadorлигини ошириш ва б.



Хулоса қиладиган бўлсак мамлакатимизда мавжуд бўлган туризм бизнесини бошқариш тизими жаҳон амалиётидан тубдан фарқ қилади. Шу муносабат билан уни такомиллаштириш, туризм бизнеси билан манфаатдор бўлган томонлар фаолиятини мувофиқлаштириш, туризм соҳасини ривожлантиришни мувофиқлаштирувчи минтақавий Кенгашлар фаолиятини ташкил этиш ёки туризм соҳасининг манфаатларини маҳаллий органлар даражасига олиб чиқиш (солиққа тортиш, инвестициялаш, ахборот таъминоти ва шу кабилар) лозим бўлади. Шу муносабат билан туризм бизнесини ривожлантиришга манфаатдор томонлар иштирокида минтақавий туристик Кенгаш яъни туризмни ривожлантиришни мувофиқлаштирувчи кенгашлар фаолиятини ташкил қилиш мақсадга мувофиқ.

Шу туфайли, туризм соҳасини бошқариш тизми такомиллаштирилиши, уларнинг минтақавий туризмни ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш, республика шаҳар ва туманлари маъмурияти билан мустаҳкам алоқалар ўрнатиш тизими лозим бўлмоқда. Бундай тузилма яратилиши минтақада туризмни ривожлантириш дастурий бошқарилишининг самарали ричагига айланиши лозим. Масалан, туристик дастурларни шакллантиришда мавжуд туристик дастурларни реконструкция этиш ва янгиларини яратиш борасида ишлар амалга оширилишида, бундай ўзгаришлар минтақа иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳаётида қандай оқибатларга олиб келиши мумкин. Бундан ташқари маҳаллий аҳоли турмуш даражаси ва туристик салоҳияти ҳам инобатга олиниши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ritchie.J&Crouch.G., The competitive destination: A sustainable tourism perspective.,Oxon. CABI., 2003., Morgan N., Pritchard A.,&Pride R., Destination branding., Oxsford, Butterworth-Heinemann, 2002., Davidson R.&Maitland R., Tourist destinations., London. Hodder and Stoughton, 1997.

2. Котлер Ф, Боуэн Д., Мейненз Д. Маркетинг гостеприимство, туризм. Пер. с англ./Под ред. проф. Р.Б.Наздревой.-М.: Юнити, 1998, с. 257.

3. Манзил - место назначения, конечная цель. Узбекча-Русча луқат., Ақобиров С.Ф., Михайлов Г.Н тахрири остида., Т., 1988, 252-б.

4. Keller P., Destination marketing: Strategic areas of inquiry, in M. Manente e M. Cerato (eds.), From destination to destination management e marketing, Ciset, Venezia, Edizione Libreria Editrice Cafoscarina S.c.r.l., 2000, p.30



TA'LIM BERISH JARAYONIDA TALABANING PEDAGOGIK IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH.

N. Jumanova
JDPI o'qituvchisi

Аннотация: Мақоллада та'лим jarayonida talabanning pedagogik ijodkorligini shakllantirish borasida o'qituvchining mahorati to'g'risida, pedagogik ijodkorlikni shakllantirish texnologiyasini tashkil etish ta'lim jarayonining asosiy prinsipiga aylanishi lozimligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: pedagogik ijodkorlik, pedagogik mahorat, ta'lim jarayoni, tarbiya.

Формирование педагогического творчества студентов в учебном процессе

Аннотация: В статье рассматривается умение учителя формировать педагогическое творчество учащихся в учебном процессе, и отмечается, что технология формирования педагогического творчества должна стать ключевым принципом учебного процесса.

Ключевые слова: педагогическое творчество, педагогическое мастерство, учебный процесс, воспитание.

Formation of student's pedagogical creativity in the educational process

Annotation: The article discusses the teacher's skill in shaping the pedagogical creativity of students in the educational process, and it states that technology for the formation of pedagogical creativity should become a key principle of the educational process.

Key words: pedagogical creativity, pedagogical skills, educational process, upbringing.

Yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda, birinchi galda, mashaqqatli, lekin sharaflı kasb egalari ya'ni o'qituvchiga suyanamiz va tayanamiz ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati cheksizdir. Ta'lim jarayonida, mashg'ulotlarni olib borishda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ijodkorligini shakllantirish dars berayotgan har bir murabbiyning asosiy vazifasidir. Ularda pedagogik mahoratni, pedagogik ijodkorlikni shakllantirish texnologiyasini tashkil etish ta'lim jarayonining asosiy prinsipi ga aylanishi lozim.

Yoshlarning hozirgi davrda fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'layotganligi, jamiyatda tinchlik va totuvlikning barqarorligi ularni o'z bilimlarini yanada boyitish, butun kuch-qudratini ezgu ishlarga safarbar etishga yo'llamoqda. Zero, har bir davlatning taqdiri, albatta, yoshlarning qanday kamol topganiga bog'liq. Yoshlarning el-yurt taqdiri uchun kurashi, ilmiy salohiyati, mehnat faoliyati, keng dunyoqarashining shakllanishida ta'lim - tarbiyaning o'rni katta. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarining barcha tizimlarida yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, madaniy saviyasini zamon talabi darajasiga ko'tarish, yoshlar iste'dodini yuzaga chiqarish nazarda tutiladi.

Buning uchun, dastlab, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini kiritish, kompyuter texnikasini chuqur egallash, yangi ilg'or texnologiyalarni qo'llashning samarali metod va shakllarini ishlab chiqishni taqozo etadi. SHuningdek, fan asoslarini yoshlarga yetkazishda nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqada yangi pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasini shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim muassasalarida turli tanlovlar o'tkazish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan ommaviy axborot vositalari bilan doimiy tanishtirib borish, milliy o'zligimiz, ilm-ma'rifat uchun kurashgan davlat arboblari, mutafakkirlarning faoliyatini o'rganish;



- yoshlarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha mutaxassislar-huquqshunoslar, shifokorlar, fan-madaniyat arboblari bilan doimiy ravishda suhbatlar, uchrashuvlar, ma'ruzalar, munozaralar o'tkazish;

- diqqatga sazovor joylarga, madaniyat maskanlariga sayohatlar uyushtirish;

- turli sohalar bo'yicha iqtidorli, ijodkor yoshlarning bellashuv, tanlov, festivallar, ilmiy anjumanlarda ishtirok etishiga erishish;

- yoshlarning axborot tizimlaridan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, OITSning oldini olish maqsadida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan mutaxassislar bilan jonli muloqotlar o'tkazish;

- "XXI asr yoshlari - ular qanday bo'lishi kerak?", "Sog'lom turmush tarzi - sog'lom avlod kafolati", "Giyohvandsiz hayot barpo etish sizning qo'lingizda!", "Terrorizm - undan ogoh bo'ling!" va boshqa mavzularda ko'rgazmalar tashkil etish, shiorlar tarqatish;

- "Universiada", "Barkamol avlod", "Umid nihollari", "Suv parisi" va boshqa tadbirlar yoshlarning faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda quyidagi masalalarni hal etishni zarur deb hisoblaymiz:

1. Yoshlarni faol ijtimoiy hayotda ishtirok ettirish va ularning turmush sharoitini yaxshilash borasida mehnat, Ijtimoiy ta'minot, Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, "Kamolot" - yoshlar ijtimoiy harakati, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish.

Yoshlarning manfaatlarini yanada to'liq ta'minlash, huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Yoshlarning siyosiy, axloqiy, huquqiy va estetik, ekologik madaniyatini shakllantirish uchun chuqur va mustahkam bilim berish, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida ta'limning yangi texnologiyalarini qo'llash, uni axborotlashtirishni o'rganish orqali inson qadr-qimmatini yuqori qo'yuvchi, o'zaro munosabatlar madaniyatini qaror toptirish. Har qanday muammoni hal etishdan oldin u kelib chiqqan vaziyatni o'rganish, odamlar bilan hamfikrlilik madaniyatiga ega bo'lish, har bir yoshning o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otish.

1. Yoshlar tarbiyasiga doir ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish, buning uchun yoshlarda mustahkam mafkuraviy e'tiqod

2. Ongni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan diniy aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm kabi illatlarga qarshi targ'ibot ishlarini kuchaytirish orqali ularning yoshlar o'rtasida tarqalmasligiga erishish.

3. Hayotimizda saqlanib qolayotgan yomon illatlar: maishiy buzuvchilik, loqaydlik, boqimandalik, poraxo'rlik, zo'ravonlik, mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik kabi axloqqa zid holatlarga murosasizlikni shakllantirish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda jamiyat, ta'lim muassasalari, ota-onaning burchi faqat farzandlarni sog'lom o'stirish, voyaga yetkazish, ularga bilim berish bilangina cheklanmaydi. Balki ularni kasb-hunarga o'rgatish, eng muhimi, hayot sinovlariga bardosh berib, uning murakkabliklarini yengib o'tib, kelajakda o'zlariga munosib o'rin topishlari uchun imkoniyat yaratish kabi o'ta muhim va dolzarb masala o'z yechimini topishi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.

2. Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI, 14(1). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1338



3. Qarshiboyeva, G. Oilada bolalarni xalq og 'zaki ijodi na'munalari asosida tarbiyalash. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.

4. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar - T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2010.



ДАВЛАТ ҲУДУДИЙ КАНАЛЛАРИ СТРУКТУРАСИ ВА ФАОЛИЯТИ

Марғуба Олтмишбаевна ДАДАХАНОВА

Таянч докторант (PhD)

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Маказий телерадиокомпанияси асосида ҳудудий телеканалларнинг пайдо бўлиши ўрганилади. Ҳудудий давлат телеканаллари фаолиятидаги ахборотлилик, тезкорлик, аудитория қизиқиши ва эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда фаолият юритиш зарурати, асосида ёритиб берилади. Ҳудудий телеканалларнинг ўзига хосликлар ажратиб кўрсатилади ва улар тараққиёти учун муҳим бўлган жиҳатлар борасида умумлашма хулосалар чиқарилади.

Калит сўз ва сўз бирикмалари: ҳудудий телеканаллар, тезкорлик, ҳудудийлашув, минтақавийлашув, самарадорлик.

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида телевидение соҳасида муҳим ўзгаришлар содир бўлди. Ихтисослашган, хусусий ва рақамли телеканаллар илк бора ўз фаолиятини бошлади. Соҳага доир инфратузилма яратилди. Бундай ўзгаришлар телевидениенинг ривожланиш жараёни ва аҳоли ижтимоий-маданий ҳаётидаги ўрнини алоҳида мавзу доирасида тадқиқ этишни тақозо этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан телевидениеда танқидий-таҳлилни кучайтириш, мавжуд муаммоларни муҳокама қилиш зарурлиги белгилаб берилди [1]. 2016 йилдан бошлаб телевидениеда танқидий ёндашувга эътибор кучайди. Телевидениенинг таъсир кучи берилган материалларнинг тезкорлигига, таҳлилий даражасига боғлиқлигидан келиб чиқиб дастурлар тайёрлана бошланди [2]. Тарихий тажриба шуни кўрсатадики, маҳаллий журналистлар маданият ва санъат соҳасида ҳаёт қадриятларини тарғиб қилиш, аҳолини маълумот билан таъминлашда катта роль ўйнамоқда. Шундай қилиб, улар ҳозирги замон тарихини ёритишда фаол қатнашдилар ва маданияти ривожига катта ҳисса қўшдилар.

Н. Б. Кирилловой таъкидлаганидек "Оммавий ахборот воситалари маданияти фаолият юритадиган шарт-шароитлар тўплами, яъни оммавий ахборот воситаси орқали инсонни атроф-муҳит билан боғлайдиган соҳа, маълум бир қадриятлар, одамларнинг баҳолаш, қарашлари ва хатти-ҳаракатларига мафкуравий, иқтисодий ёки ташкилий таъсир кўрсатади. Бир сўз билан айтганда, шахснинг жамиятга таъсир қилиши "[3].

Ҳудудийлаштириш замонавий миллий оммавий ахборот воситасининг ривожланиш тенденцияларидан биридир. "Ҳудудий ТВ" атамасининг таърифи А. А. Данилов томонидан Марказий, республика ва маҳаллий телевидениенинг ўзига хос хусусиятларини ажратиб туради: "маҳаллий (ҳудудий) телевидение ташкилот билан шуғулланади.[4]

Шу билан бирга, М. Ю.Лесиннинг таъкидлашича, "ҳудудий телевидение жуда муҳим фарқларга эга. Томошабинларни жалб қилиш учун умумий каналлари билан фаол рақобатлашадиган ҳудудий телекомпаниялар мавжуд. Кўпинча улар бу мусобақада ғолиб чиқадилар"[5].

М. Асламазян "Чоршанба" журнали учун[6] мақоласида ҳудудий телеканалларда фарқларни батафсил баён этди: "Ҳудудий телевидение-бу уч киши томонидан амалга ошириладиган ҳарбий шаҳарда кичик бир компания ва уч миллион рубл миқдорида ойлик бюджет билан катта холдинг. Станциялар шакли ва ўз бизнесларини амалга ошириш ёки бошқа одамларнинг пулларига ёки ҳокимиятга



"суянишни" афзал кўриш орқали қандай қилиб омон қолиш учун ишлатилади. Бозорлар ҳам жуда фарқ қилади - гарчи ҳозир ҳам кичик шаҳарларда иккита ёки учта телекомпанияда ишлаётган бўлса-да, катта 12-14 телекомпаниялари учун бу норма.

Звук ўз ишида қайд этган замонавий оммавий ахборот воситасидаги тенденциялар рўйхати қуйидагича:[7]

* ҳудудийлаштириш;

* марказлаштириш ва марказсизлаштириш (ахборот оқимларини ишлаб чиқариш ва тарқатишни оптималлаштириш);

о оммавий ахборот воситалари (кўпинча машҳур рейтингларнинг асоссиз таъқибига айланади)

* мулк шакллариининг телеканалларнинг ахборот сиёсати таъсири ва бошқалар.

Андижон ва Наманган ҳудудининг ахборот майдони кенг ва хилма-хилдир. Баъзи ҳудудларда бу жуда рақобатбардош (айниқса, йирик аҳоли пунктларида), лекин баъзи ҳудудларда у фақат битта телекомпания томонидан тақдим этилади. Телевизор мамлакат ва умуман аҳолиси олдида турган вазифаларни бажариб келмоқда, яъни давлатнинг мафкуравий, маънавий иш тизимининг бир қисми сифатида фаолият олиб бормоқда. Шунингдек, телевидение томонидан амалга ошириладиган таълим, маърифий, тарғибот ва маданий функцияларни таъкидлаш лозим. Шундай қилиб, тарғибот ва ахборот вазифаларини ҳал қилишдан ташқари, телевидение томошабин аудиториясининг ижтимоий хулқ-атворининг устувор моделларини шакллантирди. Шу билан бирга, маҳаллий телевидение ва радио қўмиталари ишида маҳаллий хусусиятлар ҳисобга олинган. Ҳудудий телестудиялар дастурларининг мазмуни ва мавзуларига, авваламбор, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳаётдаги ўзгаришлар таъсир кўрсатди. Вилоятдаги давлат телеканаллари асосан маълум ҳудудларга қўйилган сиёсий ва иқтисодий вазифаларни тушунтириш билан шуғулланади. Шунингдек, телевидение томонидан амалга оширилган таълим, тарбия ва маданий функцияларни таъкидлаш керак.

Андижон ва Наманганда телевизорларнинг шаклланиши ва ривожланиш тарихини ҳар томонлама ўрганиш бир қатор илмий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқишга имкон берди:

- янги воқеликларни ҳисобга олган ҳолда, университетларда кафедралар, журналистика факультетлари талабаларини янги ахборот технологияларига тайёрлаш ва тележурналистларнинг малакасини ошириш орқали сезиларли таъсир кўрсатилади;

- кўриб чиқиладиган вилоятларда миллатлараро муносабатлар масаласи муҳим бўлиб қолмоқда. Шу муносабат билан, миллий мавзудаги кўрсатувлар учун давлат томонидан ажратиладиган маблағларни кўпайтиришга ҳам, ҳудудий телеэшиттиришлар бозорини ривожлантиришга ҳам эҳтиёж бор;

- томошабинларни ахлоқий, ватанпарварлик ва халқаро тарбиялашга йўналтирилган миллий-ҳудудий (тарихий, этнографик, маиший, эстетик, лингвистик) компонентлар билан телевизион дастурларни янада мулоҳазали ва замонавий тарзда тўлдириш;

- Ўзбекистон ҳудудий давлат телевизорларни янада ривожлантириш иқтисодиёт, миллий маданият ва ҳаётнинг бошқа соҳаларини ривожлантиришнинг маҳаллий хусусиятларини ҳисобга олишга қодир бўлган тўлиқ миллий телеканалларни очиш билан боғлиқ бўлиши керак. Шу билан бирга, замонавий шароитда ҳудудий телеканалларнинг кўрсатувларини Интернет-эшиттириш режимида трансляция қилиш ўта муҳимдир.



Адабиётлар

1. Президент телевидение ҳақида // <https://kun.uz/news/2017/03/31/ura-uracilik-zamoni-utdi-prezident-televidenie-akida>
2. Куранбоев Қ., Қўчқоров В. Миллий гоё ва маънавий ҳаёт. - Т.: Маънавият, 2014. - Б. 118- 119.
3. Кириллов Н. Б. Россия модернизациясининг оммавий ахборот воситалари: дис. . маданият фанлари доктори: Москва, 2005. - 354с.
4. Данилов А. А. XX асрнинг иккинчи ярмида Россия ҳудудларида телевизорнинг шаклланиши ва ривожланиши. XXI аср.- Шаҳар, нашриёт, 2009.
5. Whither Russia's Media Industry? // The Moscow Times/ 2002 June 20.
6. Асламазян Ма идеал станция. Катта ва кичик шаҳарда улар бошқача // "Чоршанба", 2001. - Ноябрь. - №11 (35). - П. 26.
7. Звис В.Ј. Телевизион журналистика. Ўтиш: сайтда ҳаракатланиш, қидирув - 496 п.



ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ФАОЛИЯТИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ДИАГНОСТИК МОДЕЛЛАРНИНГ ЎРНИ

Бойдадаев Даврон Махмудович

davronboydedaev@gmail.com

Наманган муҳандислик-технология институти

Аннотация: Мақолада олий таълим муассасасини тадқиқ этишда иқтисодий диагностиканинг аҳамияти очиб берилган. Иқтисодий диагностиканинг олий таълим муассасаси фаолиятининг самарадорлигини таъминлашдаги ўрни ва диагностика моделларнинг аҳамияти ёритилган. Олий таълим муассасасининг иқтисодий-молиявий аҳволини ёки ундаги ўзгаришлар тенденцияларини диагноз қилиш бўйича илмий таклиф ва амалий тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: олий таълим муассасаси, диагностика моделлар, иқтисодий диагностика, интеграл кўрсаткичлар, математик моделлаштириш.

Диагностика орқали олий таълим муассасаси (ОТМ) фаолиятини ўрганишнинг бошланғич бўғини мавжуд муаммоларни аниқлашдир. Бунинг учун эса таълим жараёнини ва ОТМ фаолиятидаги бошқа жараёнларни тўғри тасаввур қилиш лозим бўлади. Маълумки, муаммо фаолиятнинг эришилиши зарур бўлган натижаси билан ҳақиқатда эришалаётган натижалар ўртасидаги тафовут сифатида намоён бўлади. Бунинг сабабларини аниқлаш учун эса диагноз амалга оширилиши талаб этилади. Диагноз учун зарур ахборот сифатида мантиқий тушунчалар билан бир қаторда миқдоран ифодаланадиган кўрсаткичлар ҳам хизмат қилади.

ОТМнинг ахборот тизими мунтазам равишда миқдорий кўрсаткичларни қайд этиб боришдан ташқари уларнинг қабул қилинган мезонларга (мақсадлар, нормалар, прогноз ва бошқалар) мувофиқлигини ҳам кўрсатиб бериши зарур.

Маълумки, ОТМ мамлакат олий таълим тизимининг алоҳида элементиدير. Мазкур тизимнинг вазифаси олий таълимни амалга ошириш ва олий малакали кадрлар тайёрлаб беришдир. Олий таълим тизимининг таълим салоҳияти бу тизимнинг вазифасини бажаришга қанчалик даражада қодир эканлигини ифодалаб туради. Олий таълим тизимининг таълим салоҳиятини баҳолашда қуйидаги йўналишлардаги кўрсаткичлардан фойдаланилади:

- олий таълимни ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий имкониятлари (ОТМлар сони, ОТМларга талабалар қабул қилиш сони, талабалар контингенти, ОТМларда тайёрлаб чиқарилаётган мутахассислар сони);

- олий таълимни ривожлантиришнинг демографик шароитлари (умумтаълим мактаблари битирувчилари сони, академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежлари битирувчилар сони, ОТМларга ўқишга киришни ҳоҳловчилар сони);

- олий таълим тизимининг меҳнат салоҳияти (профессор-ўқитувчилар сони, шу жумладан илмий даражага ва илмий унвонга эга бўлганлар, ўқув-ёрдамчи ходимлар сони, маъмурий ходимлар сони);

- ОТМларнинг моддий-техника базаси (ўқув-лаборатория бинолари майдони, талабалар турар жойлари бинолари майдони, ўқув-тажриба материаллари билан таъминланганлик, ўқув-илмий адабиётлар билан таъминланганлик, ўқув жиҳозлари);

- ОТМларнинг молиявий салоҳияти (бюджетдан молиялаштириш ҳажмлари, бюджетдан ташқари маблағлар, шу жумладан хусусий ва хорижий инвестициялар ва бошқалар);

- олий таълим тизимининг самарадорлигини умумлаштирувчи кўрсаткичлар



(олий таълимга ўқишга кириш учун ариза бераётганлар сони, 1 та ўринга талабгорлар сони, 10000 киши аҳолига ҳисоблаганда талаблар сони, 10000 киши аҳолига ҳисоблаганда битираётган олий маълумотни мутахассислар сони, 1 та ўқитувчига тўғри келаётган талабалар сони, 1 талабага тўғри келадиган ўқув-лаборатория бинолари майдони, 1 талабага тўғри келадиган умумий турар-жойларнинг майдони, талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичлари, талабалар сафидан четлаштиришнинг сабаблари бўйича кўрсаткичлари, битирувчиларнинг ишга жойлашиши кўрсаткичлари);

- аҳолини маълумотлиги даражаси кўрсаткичлари (олий маълумотлилар умумий сони, банд аҳоли таркибида уларнинг салмоғи).

Мазкур кўрсаткичларга таянган мамлакатда олий таълим ривожланишининг эришилган даражасини ва шу жумладан олий таълим сифатини диагностикалаш мумкин бўлади. Мазкур кўрсаткичлар статистикаси олиб борилиши эса диагностика хулосаларининг ишончлилигини оширишига хизмат қилади. Юқорида келтирилган кўрсаткичлар алоҳида олинган ОТМ фаолиятини таҳлил этиш учун аҳамиятли эканлигини таъкидлаш лозим.

Диагностикада тадқиқодлар олиб боришда миқдорий кўрсаткичлар изчил равишда қўлланилади. Тадқиқодларнинг миқдорий томони 3 босқични назарда тутуди: 1) ўлчаш; 2) математик моделлаштириш; 3) хулосалар ишлаб чиқиш. Ўлчаш босқичида ўзгарувчи кўрсаткичлар ва миқдорий ўлчашдаги қонуниятлар тақдим этилади. Математик моделлаштириш ўлчаш натижаларини математик боғлиқликлар кўринишига келтиришдан иборат. Хулосалар ишлаб чиқишда муаммоларнинг сабабларини бартараф этувчи, объект фаолиятини оптималлаштиришга шароит яратувчи миқдорий ўлчамлар асослаб берилди.

Барча босқичлар бир-бири билан боғланган ва бир-бирини тўлдириб туради. Таълим сифати диагностикасида иқтисодий ўлчамлар тизими алоҳида ўрин тутуди. Чунки ижтимоий-иқтисодий тараққиёт нуқтаи назаридан натижаларни иқтисодий кўрсаткичлар сифатида ифодалаш зарур бўлади. Бозор муносабатлари шароитида алоҳида ОТМни олиб қаралганда бевосита таълим жараёни кўрсаткичлари билан биргаликда иккиламчи иқтисодий кўрсаткичлар - ОТМнинг кўрсатаётган таълим хизмати (ОТМнинг маҳсулоти) баҳоларининг иқтисодий асосланганлиги, интеллектуал, педагогик, ижтимоий салоҳиятдан ёки ОТМда жамланган инсон капиталидан самарали фойдаланишга баҳо бериш диагностикани моделлаштиришнинг натижалари бўлиши лозим.

Юқорида қайд этилган 3 та босқич - ўлчаш, математик моделлаштириш ва хулосалар ишлаб чиқиш ўз хусусиятларига эга. Айни пайтда уларнинг ўзаро фарқланиши шартли характерда. Чунки, ўлчамнинг ўзини математик моделлаштириш деб тасаввур қилиш мумкин, ҳар қандай кўрсаткични ёки уни ўлчаш шкаласини математик модел деб қараш мумкин (иқтисодий кўрсаткичга нисбатан - иқтисодий-математик модел) ва бу модел объектга хос бўлган муҳим боғлиқларни акс эттиради. Умуман олганда, ўлчашни моделдан фойдаланиб тадқиқ этиш усули сифатида ҳам талқин этиш мумкин. Ўлчамда ҳам моделлаштиришдаги каби иқтисодий муаммони математика тилига ўтказилади. Ҳар иккала ҳолда ҳам асосий муаммо объектнинг ва унинг муҳим тавсифларини миқдоран ифодалашдан иборатдир. Ўлчаш ва моделлаштиришдаги вазифаларнинг бир-биридан ажралмаслиги ОТМ фаолиятини тадқиқ этишда ҳам яққол намоён бўлади. Чунки, ОТМда ҳам хўжалик юритувчи тизимлардаги каби иқтисодий жараёнлар унинг фаолиятини турли йўналишларида турлича бўлса ҳам юз беради.

Албатта, иқтисодий ўлчовлар кўпроқ билвосита ўлчовлардан иборат бўлади. Бу ерда ўлчаш лозим бўлган тавсифлар билан ўлчаш имкониятлари ўртасидаги



боғлиқликларни эътиборга олиб иш кўришга тўғри келади. Иқтисодий-математик модел бундай боғлиқликларни ифодалаш шакли бўлиб хизмат қилади. Моделлаштириш жараёнига эса ўзгарувчи омилларнинг оптимал миқдорларини ахтариш сифатида қаралиши мумкин.

Кўриниб турибдики, ОТМнинг фаолиятида таълим сифатини иқтисодий диагностикалаш иқтисодий-математик моделлаштириш орқали тадқиқ этиладиган муаммолар қаторига киради. Таъкидланганидек, модел реал тизимлардаги муҳим хусусиятлар, жараёнлар ва ўзаро боғлиқликларни бирон-бир тарзда акс эттиради. Моделлар турли асосларга қурилиши мумкин: реал мавжуд объектнинг хусусиятлари ёки ҳаракатланишини ифодаловчи моделлар; бирон-бир ёки фикран ифодаланган концепцияни ўзида мужассамлантирувчи моделлар; ҳаракатни ифодаловчи ва тафаккурда (концепцияда) умумлаштирувчи ўзида бирлаштирилган моделлар.

Иқтисодий-математик моделлаштиришда ижтимоий-иқтисодий муаммолар математика тилида ифода этилади. Тенгламалар тизимини, математик формулаларни ёки бошқа математик ифодаларни тадқиқ этиш реал ҳодисаларда миқдоран ифодага эга бўлаётган муносабатларни етарли даражада чуқур ўрганишга имкон беради. Шундай қилиб, модел объектни тадқиқ этиш қуроли бўлиб хизмат қилади. Моделдан ўрганилаётган ҳодиса ёки тизимнинг фаолиятини назорат қилиш, баҳолаш ва таҳлил қилиш учун фойдаланиш мумкин. Моделдан таълим мақсадларида ҳам фойдаланилади. Моделлаштириш таркиби 3 та босқични ўз ичига олади: 1) моделни ишлаб чиқиш; 2) моделни тадқиқ қилиш; 3) моделга таяниб реал объектни ўрганиш.

Фойданалинаётган ўлчов воситаларига боғлиқ ҳолда метрик ва метрик бўлмаган моделлар фарқланади. Метрик модел математик алгоритм тарзида ишлаб чиқилади. Бу алгоритмда қарам ўзгарувчининг уни белгилаётган бошқа мустақил ўзгарувчиларга (индикаторларга) боғлиқлигини математик ифодалайди. Метрик бўлмаган моделлар ҳодисанинг таркибий тавсифларини ва элементлар ўртасида муносабатларни кўрсатиб беради.

Тадқиқот олдига қўйилаётган вазифаларга боғлиқ равишда дескриптив (тавсифловчи) ва норматив моделларни фарқлаш мумкин. Дескриптив моделлар ҳодиса қандай содир бўлмоқда? ёки қандай ривожланиши мумкин? деган саволларга жавоб ахтаради. Баъзида диагностиканинг вазифаларини айнан шу саволлардан иборат деб талқин этилади. Бу ҳолда диагностика фақат кузатилаётган фактларни тушунтириб, прогноз бериш билан чекланади, яъни пассив рол ўйнайди. Чунончи, корреляцион таҳлил кўринишидаги дескриптив моделларда аппроксимациялаш, яъни ҳодиса билан уни белгилаётган ўзгарувчилар боғлиқлигини ифодаловчи моделдаги ўлчамлар билан реал вазиятнинг статистик ўзаро мувофиқлигига баҳо бериш орқали объект тадқиқ этилади.

R. Oxford, T.A. van Dijk, G.I. Bogin, A.A. Zaslavskaya, Yu.N. Guardians call strategies of semantic perception of the text certain actions or techniques used by trainees (consciously or subconsciously) to increase the efficiency of semantic perception of the text. In our opinion, within the framework of this study, the strategies of understanding T.A. van Dijk, representing "the basis of the hypothetical integration process." Strategies for perceiving a text consist of steps or moves that neutralize previous negative inferences, i.e. are relational in nature: they are aimed at the previous and subsequent state in order to establish strategic coherence. Modern text attribution theory makes a number of proposals for the strategic use of models. According to T.A. van Dijk, the reader understands the text when it comes to "some fragment of the world", which can be called a situation or model. The model of the situation as a type of knowledge representation, according to the researcher, contains not abstract information, but "personal knowledge", which is the result of previous experience accumulated in a collision with a situation of this kind. This understanding of the representation of knowledge in human memory contributes to the specificity of a foreign language authentic text and the peculiarities of its semantic perception. In order to improve reading competence there are many text tasks offered by the instructors and all of these assignments assist the readers in many ways. For example, students are offered communicative attitudes, which contain instructions on the type of reading, speed and the need to solve certain cognitive and communicative tasks in the reading process. The preceding questions must meet a number of requirements:

- they are built on the basis of actively learned vocabulary and grammatical structures not used in the text in this form;

- the answer to the preceding question should reflect the main content of the relevant part of the text and should not be reduced to any one sentence from the text; - the questions put together should represent an adapted interpretation of the text. Post-text tasks are designed to check reading comprehension, to control the degree of formation of reading skills and the possible use of the information received in future professional activities.

In sum, the tasks for the texts to oneself also reflect their linguistic complexity. When teaching reading, students are presented with texts with both removed and unresolved difficulties, while the main thing is the solution of semantic problems. Tasks that fix attention on linguistic material and remove linguistic difficulties play the role of a means and are subordinate in nature. Nowadays, more often when teaching to read, tests are used to demonstrate understanding. The most commonly used tests in connection with reading are multiple choice tests and matching tests.

References

1. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учебное пособие для студентов учреждений высшего образования. - М.: Академия, 2015. - 363 с.

2. Гузова А.В., Савицкая Н.В. Технология формирования лексической компетенции на основе аутентичных текстов по специальности // Педагогика и просвещение, 2020. - №1. С. 15-24.

3. Obdalova, O. A. Osobennosti novej pedagogicheskoy sredy pri obuchenii inostrannym jazykam [Tekst] / O. A. Obdalova // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. - 2009. - № 322. - S. 207. 3.

4. Serova, T. S. Psihologicheskie i lingvodidakticheskie aspekty obuchenija professional'no-orientirovannomu inojazychnomu chteniju v vuze [Tekst] / T. S. Serova. - Sverdlovsk :



Ural'skij universitet, 1998. - 229 s. 2. 2.



"ERROR CORRECTION TECHNIQUES: WRITTEN AND SPOKEN ERROR CORRECTIONS"

Axmadjanova Gulnihol

Namangan viloyati Uychi tumani

3 - sonli umum ta'lim maktabi ingliz tili uqituvchisi

email:gulniholahmadjanova@gmail.com

Annotatsiya

"Error correction techniques: written and spoken error corrections" ushbu mavzuning asosiy qismida mavzuga oid ma'lumotlar yoritilgan. Unda xorijiy tilni o'rgatishda kommunikativ yondashuvning xususiyatlari, o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirish yo'llari, maktab o'quvchilari uchun kommunikativ o'yin va mashg'ulotlardan namunalari va ingliz tili darolarida foydalanish mumkin bo'lgan kommunikativ topshiriqlarda uchraydigan xatolarni to'g'rilash haqida fikrlar bayon etilgan

Key words

Correcting errors, Correcting mistakes, Correcting slips, Correction in exam preparation classes.

Error correction techniques in writing and speaking. Classic error correction techniques Post-it correction Stem correction.

There are many different types of error correction. Some of these we are taught how to do, while some of them come naturally. Some of them we would use in normal everyday situations. I can say that there are a lot of ways of correcting mistakes in EFL classes. A correction session follows in which your English learners play the role of the teacher. Always stress that feedback should be positive, and that everyone benefits by pointing out and correcting mistakes together! Group correction has the potential to foster teamwork, as well as a sense of support in the classroom. Both are important in creating a positive learning environment where students can feel comfortable experiment with the language. It also provides the opportunity for learners to notice language problems without help or interruption by the teacher - Model the correct sentence. If a student makes a mistake, repeat the sentence for them correctly. Ask the student to repeat the correct version after you for practice. - Student-to-student correction: This isn't so dissimilar from group correction. It has many of the same advantages and disadvantages. The primary difference, though, comes with students working in pairs rather than groups. You can use this type of correction in any conversational activity. As with all conversations, the primary objective is to exchange ideas and/or information. Assign a secondary objective of listening for, identifying, and correcting any mistakes. Students could also work in pairs with a worksheet, discussing and correcting sentences with mistakes that you have purposely made. Both encourage high student talk time, and fosters comprehension and teamwork. On the negative side, students could miss problems with the language, or even correct something that doesn't need correction. In group correction, these problems are less likely, because everyone benefits from more than one person's knowledge of English. Student-to-student correction also has a tendency to eat up a lot of time. positives: encourages high student talk time, comprehension, and teamwork. negatives: students might not identify the mistakes, or might try to correct language that isn't wrong; can be time-consuming. - Correct non-verbally. You don't always have to tell students when they make mistake. You may use the gesture, nod your head, or move your head to let them know they made mistake. After gesture, they might notice themselves. - Ignore the mistakes. Sometimes students speak incorrectly



because they haven't learned the right grammar to use. Explaining this kind of mistakes might take up too much time. If your student says something very complicated and you don't want to explain the mistake, you don't have to do it. You can ignore it. Also students sometimes make more than one mistake. You might want to focus on one mistake. Instead of correcting all of them. For example, "I father clever". You could just correct one of his mistakes "My father". - Encouraging. And of course, praise them for their ability to admit their mistakes. Show them what they will do during the activity. Give them example sentences. Write down sample sentences on the board to help them. Make sure they know what to do, how to do it, and how much time they have. Conduct the activity. While they are doing the activity move around the room and check them. Do they understand? Are they doing the activity correctly? After they finish, ask some students to show the class their work. Go over the answers to the task. If they are ready, do a fluency activity. Review the material in the next lesson, the next week, and in future lessons. Go from easy activity to difficult activities, from controlled to guide to free activities, and from focused speaking activities to fluency activities. Take baby steps. Don't expect students to speak fluently without a lot of practice. In addition to considering the seriousness of an error, the instructor should consider the frequency of the error. If the student has a concern with almost always omitting articles ("a," "an," and "the"), this is a problem that should be addressed because omitted articles are distracting from the overall message and can affect overall comprehensibility of the writing. Correcting student error is a sensitive issue that most instructors would probably rather not do. However, through considering such issues as overall comprehensibility and goals of correction, the instructor can turn the potentially negative exercise of giving corrective feedback into a positive learning experience. Learning a language is a long process during which a learner will inevitably make many, many mistakes. In other words we take a myriad of tiny steps going from not speaking a language to being fluent in the language. In the opinion of many teachers, students who are continually corrected become inhibited and cease to participate. This results in the exact opposite of what the teacher is trying to produce - the use of English to communicate. In conclusion I can say that, whichever way you go about correcting your students, try to keep the experience positive for the learner. Being corrected constantly can be a really de-motivating, as every language learner knows. As you are listening out for your students' errors, make sure you also listen out for really good uses of language and highlight these to the group too. In the case of language learning I really do believe the classic saying, 'you learn from your mistakes'. To my mind, one of the best ways to deal with mistakes is to prevent them. Leading students to speak step by step will minimize mistakes and make students more comfortable speaking. The first stage of your lesson is presentation. Explain the new grammar structure and vocabulary. Next begin to practice with simple oral drills. Make sure students can repeat the vocabulary or manipulate the grammar. Next do a focused activity. Before you do the activity,

References

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi lozim. T.: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I. A. Uzbekistan Along the Road of Deepening Economic Reform-T. 1996 P.23
3. Allen, Virginia French. Techniques in Teaching Vocabulary. Oxford University Press, 1983.
4. Doff, Adrian. Teach English: Trainers' Handbook. Cambridge University Press, 1988.



5.Фазилдинова, С. Н. Technique of correcting mistakes of spoken language in the classroom / С. Н. Фазилдинова. Молодой ученый. - 2016. - № 7.2 (111.2). - С. 111-113.



НУТҚ МАДАНИЯТИНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЎРГАНИШ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

Байжанова Оқила Искандаровна

Таянч докторант (PhD)

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Тошкент, Ўзбекистон

E-mail: oqilabayjanova89@gmail.com

Аннотация. Даврлар ўтсаҳамки инсонларнинг жамият билан муносабати ҳар қандай фаолиятда ҳам авваламбор унинг ташиқи жихатларига эътибордан бошланади, яъни ҳар бир мутахассиснинг малакали кадр бўлиб етишишида риторика фанининг ўрни муҳим аҳамиятга эгадир. Шу боис ҳам риторикани ўрганиш инсониятда нотиклик санъатини мукамал ўрганишга туртки бўлади. Зеро, инсонларнинг ўзаро муносабати ижобий бўлсагина, жамият ва инсон равақи учун муваффақиятли кечади.

Калит сўзлар: нутқ, санъат, тил, тил бирликлари, тоза нутқ, нутқнинг таъсирчанлиги.

Инсоният пайдо бўлибдики унинг ҳаётида энг муҳим эҳтиёжлардан бири тил ва чиройли нутқдир. Шундай экан, тил кишилиқ жамиятининг энг муҳим алоқа воситаси сифатида асрлар давомида ҳизмат қилиб келмоқда. Тилнинг ижтимоий вазифаси фақатгина инсониятга хизмат қилишдан иборат бўлмай, балки тарихий тараққиёт жараёнида яратилган маданий-маърифий, миллий ва илмий бойликларни ҳам авлоддан-авлодга мерос бўлиб қолишида ёрдам беради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов таъкидлаб ўтганларидек, жамият тараққиётининг устувор йўналишларидан бири фан ва ишлаб чиқаришнинг барча соҳаларидан юқори малакали кадрлар тайёрлаш ҳисобланади (Каримов И.А. 1997). Шу муносабат билан 1997-йил қабул қилинган "Қадрлар тайёрлаш миллий дастури" олий таълимни такомиллаштириш, таълим тизими мазмунини тубдан ўзгартиришни, келажакда мутахассислар, жумладан дипломатлар тайёрлашнинг сифатини оширишни ҳам назарда тутди (1997.). Бу бевосита олий ўқув юртларида "Нутқ маданияти" фанининг киритилиши замон талабларига мос кадрлар тайёрлаш мақсадини кўзлайди.

Барча кадрлар сингари дипломатлар ҳам сўзга чечан, нутқи равон, бадиий дидли, ўз фикрини оғзаки ва ёзма равишда юқори даражада ифодалай оладиган бўлиши лозим. Бўлғуси дипломатлар асосан расмий доирада фаолият кўрсатадилар ва давлат номидан иш олиб борадилар. Шу боис уларнинг келгуси фаолиятини расмий ҳужжатларсиз, муомала маданиятисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шу боис "Нутқ маданияти" фанининг дарслик сифатида киритилиши мақсадга мувофиқдир.

Шу ўринда Президентимиз И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси IX сессиясида сўзлаган нутқида: "Ўз фикрини мутлақо мустақил, она тилида равон, гўзал ва лўнда ифода эта олмайдиган мутахассисни, авваламбор, раҳбар курсида ўтирганларни бугун тушиниш ҳам оқлаш ҳам қийин" деган фикрни нечоғлик ҳаётининг эканлигини эслаш лозимдир (1999:15).

Шундай экан, тил фақатгина алоқа воситаси бўлиб қолмасдан, балки дунёни кўриш, эштиш ва билиш, идрок этиш воситаси ҳамдир. Тил руҳий ва эстетик ҳодиса эканлигини ҳам ёддан чиқармаслигимиз зарур. Тил бамисоли -уммон унда барча фикрлар учун "либос"лар топилади. Лекин тилнинг жозибаси, камалак мисол товланиши бевосита нутқ орқали, нутқ жараёнида юз беради. Баъзан нутқ жараёнида тилнинг жозибаси, жилоланиши, мўжизакорлиги юзага чиқмай қолиши



мумкин. Шу боис нутқ соҳиб сўзларнинг ўз ва кўчма маъноларини тўла англаниши, ҳар бир сўзнинг услубий мезонларини, маъно қирраларини онгли идрок этишини талаб этади.

Буюк бобомиз сўз мулкининг султони ҳазрат Алишер Навоий ўзининг "Маҳбуб ул қулуб" асарида такидлаганидек,

"Тил мунча шараф била нутқнинг олати (қуроли)дур ва ҳам нутқдурки. Агар нописанд зоҳир бўлса, тилнинг офатидур" (Алишер Навоий 1966:60-бет).

Тилни халқ яратади, нутқ эса шахсий бойлик саналади. Ҳар ким ўз қобилияти сўз бойлиги, шахсий фикирлаш лаёқатиги қараб гап тузади ва сўзлайди. Шунинг учун ҳам нутқ олдига улуғ бир талаб қўйилади: ўйнаб гапирсанг ҳам, ўйлаб гапир. Зеро, нутқ (сўз) ақлнинг тарозиси, ақлнинг ўлчови. Дарҳақиқат, нутқимизнинг салоҳияти тил қоидаларини яхши ва зарур даражада билишимизга боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, нутқ маданияти - бу нутқнинг грамматик тўғрилиги, софлиги ва ишончилигидир. Чиройли нутқда ноаниқликка, кўп маъноликка, қисқалик, аниқлик ва соддалик, ишончилик унинг ўлчови бўлиши жоиздир. Кенг маънода қарайдиган бўлсак, инсоннинг одоби, энг аввало унинг нутқида кўринади. Шу билан бирга чиройли нутқнинг ҳам ўз одоб қоидалари мавжуд бўлиб, айтилиши ёки етказилиши жоиз бўлган ҳабарларни, тингловчини ва нутқ сўзловчини ҳурмат қилган ҳолда, унинг кўнглига мос, адабий нормадаги ифодалар билан етказиш тушинилади. Ҳар қандай салбий ҳабарни ҳам тингловчига чиройли нутқ орқали етқазимиз мумкин. Буни Алишер Навоий ва Ҳусайн Байқаро ўртасидаги баъзи суҳбат жараёнлари мисолида кўришимиз мумкин: ("Икки Султон Саодати") асаридан.

Алишер Навоий:

- Сарвиғулнинг соясида сўнди гул нетмоқ керак? Деб йўллаган мактубида, унга жавобан

Султон Ҳусайн Байқаро:

- Сарвидин тобут ясаб, гулдан кафан бичмоқ керак, дея шоирона ва моҳирона жавоб бериб, сиёсий муҳитни юмшатишга мувофиқ бўлди дея эътироф этишимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Каримов И.А. Замонавий кадрлар тараққиётимизнинг муҳим омилдир. "Маърифат" газетаси.-1997 й- 7 июнь

2. (Ўзбекистон Республикаси "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида"ги қонуни.- Т.,1997.)

3. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.// Баркамол авлод орзуси.-Т.: Шарқ, 1999 15-бет

4. Алишер Навоий. Асарлар, XIII том. Маҳбубул-қулуб.-Т.: 1966,60-бет.



ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA UCHROVCHI TURKIY QATLAMGA MANSUB AYOLLAR ISMINING LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Tursunova Yulduz Yusuf qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola Abdulla Qahhor hikoyalarida uchrovchi turkiy qatlamga mansub ayollar ismining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari haqidagi tahlil natijalarini o'z ichiga oladi. Unda adib hikoyalaridagi o'zbekcha ayollar ismining, asosan, semantik, etimologik, derivatsion tadqiqotiga katta e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ayollar ismi, turkiycha antroponimlar, leksik-semantik ma'no, etimologik, derivatsion tahlil, ichki indikatorlar, tashqi indikatorlar, variantlilik apellyativ shakl va h.

Kishi ismlari, ya'ni antroponimlar o'zbek onomastikasining salmoqli qismini tashkil qiladi. Ularda xalqimizning uzoq o'tmishi, madaniy, ma'naviy, siyosiy, falsafiy qarashlari va farzandiga bo'lgan mehr-u oqibatlarini mujassamdir. O'zbek nomshunosligi oldida turgan muhim muammolardan biri ana shunday kishi nomlarining unutilgan shakllarini to'plash, ular bilan bog'liq rasm-rusumlarni o'rganish va ilmiy jihatdan tahlil qilishdir. Shu nuqtayi nazardan Abdulla Qahhor hikoyalarida uchrovchi turkiy qatlamga mansub ayollar ismining semantik, etimologik va grammatik jihatdan tadqiq etilishi dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Abdulla Qahhor hikoyalarida quyidagi ayollar antroponimlari uchraydi: To'tixon ("Mirzo"), Mastura Aliyeva ("Ming bir jon"), Zuhraxon, Fotima, Venera ("Nurli cho'qqilar"), Rohat buvi ("Mahalla"), Niso buvi, Mehri ("Boshsiz odam"), Maston, Turg'unoy ("Maston"), Nazirbuv, To'xtabuv Sarimsoqova, Shahodatbuv, Roziyabuv ("Kampirlar sim qoqdi"), Malohat ("Jonfig'on"), Xadicha xola ("To'y"), Tojixon ("Yillar"), Shahriniso ("Sep"), Mukarram, Hamida, Rahima ("Adabiyot muallimi"), To'raxon oyi, Nodirmohbegim, Unsinoi ("Dahshat"), Sobiraxon ("Kim aybdor"), To'paniso, Hatamova, Hafiza ("Kartina"), Ma'rifatxon, Komila, Bahrixon, Ibrohimova, Umriniso, Qumriniso, Risolat, Layli, Shirin ("Xotinlar"). Ushbu antroponimlardan etimologiyasi jihatidan turkiy tiliga mansub bo'lgan nomlar tahlilini keltiramiz:

1.To'tixon - o'zbekcha, shirinsuxan, notiqa bo'lib o'smoq ma'nolarini anglatadi. Muallifning "Mirzo" hikoyasidagi To'tixon xuddi shunday fazilatlarga ega ayol edi: Mehmonlardan biri yosh bolalarni to'plab she'r o'qib berayotgan bir juvonga ta'na qildi: - Musobaqada ko'z bo'yash bilan yutgan ekansiz-da, To'tixon!.. Ism tashqi indikatorlardan hisoblanuvchi ayollar ismiga qo'shiladigan -xon affiks bilan shakllangan.

2.Turg'unoy - o'zbekcha, sobit turuvchi, o'lmaydigan, uzoq umr egasi ma'nosini bildiradi. Turg'un ismi apellyativ shaklidan farq qiluvchi ismlar sirasiga kiradi (turg'in-Turg'un). Ism tarkibidagi -oy indikator Turg'un nomining variantlarini yaratishga xizmat qilgan. Turg'unoy non bo'lgani uchungina qo'l uzatdi, boshqa hech narsa uni hozir qo'l ko'tarishga majbur qilolmas edi.

3.To'xta (To'xtabuv)- o'zbekcha, to'xtamoq demakdir. Bu ism nobud bo'lavergan bolalardan keyin tug'ilgan, yashashi umid qilingan va o'lmasligi tilangan chaqaloqlarga qo'yiladi. -buv ayollar ismiga qo'shiluvchi indikator. "Kampirlar sim qoqdi" hikoyasida To'xta xolaning yoshi ulug'ligini aks ettirish maqsadida yozuvchi unga -buv affiksini qo'shadi. To'xtabuvining uyida Roziyabuv, Ortiqjonlar o'tirar, rais bularga urushning borishi to'g'risida so'zlar edi; hikoyaning bir o'rnida To'xtabuvining familiyasi keltiriladi: Munozara va muzokaralardan keyin zvenoga boshliq qilib yetmish bir yashar To'xtabuv



Sarimsoqova saylandi. Bu yerda ijodkor rasmiy shakldagi majlis jarayonini inobatga olib rasmiy nutqni shakllantiradi.

4.To'raxon - o'zbekcha, aslzoda, xonzoda, ulug' martabalar sohibi ma'nosiga ega. Ismni -xon indikator shakllantirgan. Shu indikator ismning ayollarga xos ekanligini ko'rsatib turadi. "Dahshat" hikoyasida bu antroponim To'raxon oyi shaklida uchraydi. U hikoyaning epigrafi muallifidir: Xotin-qizlarning burun zamonda ko'rgan kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan ishonmaysizlar!.. (To'raxon oyi).

5.Unsin - o'zbekcha, unmoq, ko'paymoq, yashamoq ma'nolarini bildiradi. Ism ko'proq orzu qilingan, qumsalgan bolalarga qo'yiladi. Nodirmohbegim sandal ichidan oyog'ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi, ko'zi bilan "xayriyat, tushunmadi, bas, gapirma", deb ishora qildi. Ba'zi hollarda Unsin antroponimi Turg'un ismida bo'lgani kabi apellyativ shakldan farq qilgan holatda ham uchraydi: Unsin-Unsun.

Adabiyotlar:

1.Begmatov E. O'zbek ismlari izohi. - Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2016.

2.Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. - Toshkent, "Fan"nashriyoti, 2013.

3.A. Qahhor. Anor: Qissa va hikoyalar. - Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

4.A. Qahhor. Dahshat (hikoyalar to'plami). www.ziyouz.com kutubxonasi.



ФАКТЧЕКИНГ - АХБОРОТНИ ВЕРИФИКАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛИ СИФАТИДА

Холматова Ситора Баходир қизи
ЎзДЖТУ "Халқаро журналистика
назарияси ва амалиёти" кафедраси ўқитувчиси

Аудиториянинг янги ахборотга бўлган эҳтиёжини қондириш верификация - тарқатилган ахборотнинг ишончилигини тасдиқлаш ёки унга раддия бериш орқали уни текшириш жараёнининг ривожланишига сабаб бўлмоқда. Бу соҳага ихтисослашган журналист ва экспертлар халқаро миқёсида фактчекерлар деб аталмоқда. Қоидага кўра, фактчекерлар турли ташкилот ва жамоатчиликнинг кўп сонли тасдиғи орқали текшириш ўтказида. Соҳа мутахассислари ўртасида тажриба алмашиш мақсадида 2015 йилда Халқаро фактчекинг тармоғи (International factchecking network - IFCN) ташкил этилган. Ҳозирги кунда бу тармоқ 49 мамлакатдаги фактчекинг бўйича фаолият юритадиган 126 ташкилотни ўзида жамлаган. Унинг мақсади фактчекинг бўйича энг сўнгги трендларни мониторинг қилиш ва ОАВдаги энг яхши амалиёт ҳамда IFCNнинг принциплар кодексидаги лойиҳаларни қўллаб-қувватлашдан иборат.

Бизнинг фикримизча, фактларни холисона ва мустақил равишда текшириш журналистиканинг энг кучли инструментларидан ҳисобланади. Фактларни текширишда холис бўлмаган ва аниқ манбага асосланмаганларини бериш ОАВ ва экспертларга бўлган ишончсизликни орттиради.

Фактчекинг билан фаолият юритувчи кўплаб ташкилотларнинг аксарияти машҳур веб-сайтлар, интернет нашрлар фаолиятида намоён бўлади. "Snopes" веб-сайти турли уйдирма ва миш-мишларни текшириш ва уларни фош қилиш мақсадида 1994 йилда ташкил қилинган. Ўз даврида бу сайт экспертлик мавқеида бўлган. Ҳозирги кунда эса бу вазифани сифатли ОАВ бажармоқда. "Snopes"нинг ахборотни текшириш усули IFCN кодексига тўла мос келади. Шаффофлик принципини таъминлаш учун сайт манбани текшириш ва ахборотни саралаш, верификация жараёни, рейтинг тизими ва сиёсий тузатишлар ҳақида маълумот бериши керак. "Snopes" рейтингида "ёлғон (эмас)", "қисман ҳақиқат/ёлғон", "mixture (ҳақиқат ва ёлғон қоришмаси)" каби қайдлар, шунингдек, "ишончли/ишончсиз иқтибос", "текширилмаган" каби белгиланишлар мавжуд.

FactCheck.org сайти (2003 йилда ташкил этилган) - сайловчилар ўртасида "адвокатлик" вазифасини бажарувчи нотижорий лойиҳа бўлиб, у Америка сиёсатидаги ёлғон ва чалкашликлар даражасини камайтиришга қаратилган. Сайт журналистлари асосан сиёсий кайфиятга аҳамият қаратадилар. Сайт рукнларидан бири "Вирусли спираль" деб номланиб, унда ижтимоий тармоқлар бўйлаб оммавий тарқалган фейк хабарлар баҳоланади: "Ҳақиқатан ҳам Трамп ўз твитида америкалик қадимий туб аҳолини Ҳиндистонга ҳайдадимиз? - Йўқ. Бу хабар сатирик сайтларнинг бирида берилган эди".

Фактчекингда биринчи ахборот манбаси ва экспертларни ўз ичига олган фактларни текширишнинг стандарт кўринишида тайёр материални тасдиқлаш ёки унга раддия беришдаги таҳрир қилишнинг 3 муҳим босқичи ажратиб кўрсатилади:

- контекстга мосликни текшириш;
 - услуб ва грамматикани текшириш;
 - ишончилилик даражасини текшириш ва келтирилган фактларни далиллаш.
- Сиёсий фактчекинг йўналишида юқори ўринда турувчи сайт бу - Politi Fact



нашридир (2007 йилда ташкил этилган). Сайтда таҳририят верификация жараёнлари ва "ҳақиқат барометри" (Tmth-0-Meter)нинг қандай қўлланилиши юзасидан ахборот бериб боради. Бу барометрда сиёсий партиялар номзодлари, расмий шахслар кабиларнинг тасдиғи мутлақ ҳақиқатдан то аниқ ёлғонга қадар 6 белги орқали ўлчанади. Сўнгги ўн йилликда "Politi Fact"да тўпланган мулоҳазалар асосида Калифорния университети тадқиқотчилари Уилям Ванг бошчилигида ЛИАР номли маълумотлар базасини яратади. Бу базада 12 800дан ортиқ турли мулоҳазалар ўрин олган бўлиб, булар фейк янгиликни автоматик равишда аниқлаш ва уларни белгилаш учун зарурдир. Мазкур нашр ўқувчилар билан қайта алоқани доимо сақлайди. Бу алоқа почта орқали хат олиш ёки Facebook орқали амалга оширилиб, бундан мақсад кўп сонли аудитория томонидан таҳририят берган материал юзасидан верификацияга эришиш ҳамда жамоатчиликнинг ишончини қозонишдир.

Фейкларни автоматик аниқлаш Британиянинг Full Fact (2009 йилда ташкил этилган) сайтида ҳам қўлланилиб, бу сайт - мустақил хайрия ташкилоти ҳисобланади. Ахборот оқими орасидан автоматик ажратиб олинган фейк журналистлар томонидан "қўлда" таҳлил қилинади ва сараланади. Оммавий равишда тарқалган фейкларнинг асл моҳиятини очииш орқали уларни тасдиқлаш мақсадида улар нашр этилади - у фото ёки видео, рунларга ажратилган соҳалар - иқтисодиёт, соғлиқни сақлаш, жиноятчилик, иммиграция ва таълим каби.

Халқаро эксперт-журналистлар суриштируви гуруҳи "Belling cat" бошқа фактчекерлардан фарқли ўлароқ, соҳа мутахассисларини эмас, балки фуқаролик журналистикаси вакиллари ҳамкорликка чорлайди. Мазкур фактчекнинг платформаси краудсорсинг технологияси асосида фаолият олиб бориши билан бошқа фактчекнинг платформаларидан фарқ қилади. Гуруҳ асосчиси британиялик Элиот Хиггинснинг фикрича, ҳар ким журналист бўлиши мумкин. "Belling cat" экспертлари фото, видеоматериалларни верификациялаш ва идентификациялаш ҳамда жиноят содир этилган ердаги зиддиятларни ўрганишда геолокацияни аниқлаш учун YouTube, GoogleMaps, Reddit каби очиқ манбалар ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланади. Сайт ўз суриштирув методларига эга: ижтимоий тармоқлардаги ҳар бир фойдаланувчига видеоматериалларни верификация қилиш ва ботлар (фейк аккаунтлар)ни аниқлаш юзасидан кенгайтирилган қўлланма тақдим этилади.

Хорижий аналоглар асосида ишлаб чиқилган Россиянинг "Фактограф" лойиҳаси мамлакатдаги энг машҳур фактчекнинг платформаси (2017 йилнинг 18-сентябридан фаолиятини бошлаган) ҳисобланади. Мазкур платформада расмий доира вакиллари фикр-мулоҳазаларининг ишончлилиқ даражасини белгилаш учун ранглар шкаласидан фойдаланилади: яшил - ҳақиқат, кўк - нотўғри, сариқ - факт эмас, оловранг - шубҳали, қизил - ҳойнаҳой ёлғон. Бу амалиёт нафақат ОАВ вакиллари, балки аудиторияда ҳам фактларни текшириш жараёнида иштирок этишига ёрдам беради.

Ўзбекистонда айнан фактчекнинг билан шуғулладиган алоҳида интернет нашр мавжуд бўлмасада, бу фаолият билан қисман шуғулланувчи нашрларни келтириб ўтишимиз ўринлидир. Жумладан, Facebook ижтимоий тармоғидаги "To'xta fake" номли лойиҳани Ўзбекистондаги илк фактчекнинг борасидаги саъй-ҳаракатлардан бири сифатида баҳолашимиз мумкин. Мазкур лойиҳанинг асосий мақсади ҳақиқатни сохта, фейк хабардан ажратишни, шунингдек, аудитория учун қандай фактчекнинг инструментлардан фойдаланиш мумкинлигини ўргатишдан иборат этиб белгиланган эди. Мазкур лойиҳа материаллари uzjournal.uz сайтида эълон қилиниб, фейкни аниқлаш йўллари, усуллари юзасидан мунтазам сўровнома ва



кичик тестлар бериб борилган. Бундан ташқари, ижтимоий тармоқларда аудитория томонидан энг кўп муҳокамага сабаб бўлган хабарлар ҳақиқат ёки фейк экани аниқлаштирилиб, алоҳида материал сифатида нашр этилган. Аммо ҳозирги кунга келиб баъзи сабабларга кўра бу лойиҳа ўз фаолиятини тўхтатган.

Ўзбекистондаги фактчекинг платформалари вазифасини ҳозирги кунда етакчи миллий интернет нашрларимиз бажармоқда, десак янглишмаймиз. Жумладан, kun.uz, daryo.uz, xabar.uz, repost.uz каби етакчи интернет нашрлар ижтимоий тармоқларда эълон қилинган ҳамда мавзу доирасида энг кўп муҳокамага сабаб бўлаётган мавзуларни тезликда қайта ишлаб, биринчи ахборот манбаси билан боғланиб, вазиятни ойдинлаштирган ҳолда аудиторияга қайта узатмоқда. Мазкур интернет нашрларда фактчекинг элементлари мавжуд бўлиб, бу - нашрлар фаолиятининг бир қисмини ташкил этмоқда.

Бундан ташқари, бутун дунёга хавф солаётган пандемия шароитида фейк хабарлар салмоғи ортиб, аудиторияда янглиш фикр пайдо бўлишига замин яратилди. Бу муаммонинг олдини олиш мақсадида Ўзбекистонда пандемия билан боғлиқ энг сўнгги расимий хабарларни тезкорликда аудиторияга улашиш мақсадида телеграм мессенжерида "Coronavirus info" канали ишга туширилди. Шунингдек, фейк хабарларга қарши курашиш мақсадида, телеграм мессенжерида 2020 йилнинг март ойида "Antifake.uz" канали ҳам ўз фаолиятини бошлади. Мазкур каналда асосан, ижтимоий тармоқларда энг кўп муҳокама қилинаётган фейк хабарлар фош қилиниб, аудиторияга холис ахборот етказиш билан шуғулланмоқда.

Фактчекерлар муаммоси ҳақида гапирганда, шунини таъкидлаш керакки, улар аллақачон "зарарланган" ахборот оқими излари бўйлаб ишлайди, фейкларнинг ошкор қилиниши дезинформация асосида пайдо бўлган тушунчаларни ўзгартиришга қодир эмас. Бу хулоса "Psychological Science" нашри томонидан "Дезинформацияни рад қилувчи психологик мета-анализ" номи остида чоп қилинган илмий тадқиқот натижасига асосланган. Қийинчилик туғдирадиган жиҳати шундаки, онлайн равишда тарқалган фейкларни тўғрилаш етарли эмасдек кўринади, сабаби аудитория айнан тўғриланган, ҳақиқий ахборотга ишониши қийинлашади. "The Guardian" нашрининг социал ва янги медиалар муҳаррири Мартин Беламнинг қайд этишича, "бунга чек қўйиш учун фактчекинг ўз-ўзи учун етарли эмас, биз ҳақиқатни тарқатишда қайси йўл самарали эканини ҳал қилиб олишимиз даркор" .

Ҳозирда фейк янгиликларнинг аксарияти ижтимоий тармоқлар ва интернетнинг қидирув хизматлари орқали тарқалаётганини ҳисобга олган ҳолда, бир қанча компаниялар ўзларига бўлган ишончни йўқотмаслик мақсадида филтёр ўрнатиш масаласини кўриб чиққанлар. Масалан, Twitter ботларни блокировка қилиш чоратadbирларини кўрди, Facebook бўлса, ўз фойдаланувчиларини фейклардан хабардор қилиш мақсадида дунёнинг турли мамлакатларидаги ташкилотлар билан фактчекинг бўйича ҳамкорлик алоқаларини ўрнатди. Фейк янгиликлар "ишониб бўлмайдиган учинчи томон" белгиси остида берилади. Халқаро қидирув тизими Google эса дунёнинг бир қанча нуфузли таҳририятлари ҳамкорлигида энг муҳим хабарлар юзасидан верификация ўтказди. Масалан, қидирув тизимига "Хиллари Клинтон Россияга уран сотди" сўрови киритилса, "PolitiFact, Snopes va The Washington Post" каби энг камида учта таҳририят орқали текширилиб, "бу ёлғон ёки бу каби келишув бўлмаган" белгиси билан белгиланган хабарларни чиқаради.

Умуман олганда, бугунги кунда фактларни профессионал текшириш фактчекингга ихтисослашган ташкилот экспертлари ва турли сифатли медиа журналистлари томонидан амалга оширилади. Бундан ташқари, Facebook ва Twitter ижтимоий тармоқлари, Google қидирув тизими фейк хабарлар ва уларни



белгилашда алоҳида ўз филтър тизимига эга. Бизнинг фикримизча, халқаро миқёсдаги медиасаводхонлик бўйича лойиҳалар ҳам масс-медиаинг "онгли истеъмолчилари"ни шакллантиришга, фейк янгиликларни мустақил равишда ажратиб олиш кўникмасини шакллантиришга ёрдам беради



МАТН ТАРЖИМА ОЛДИ ТАҲЛИЛИНИНГ АҲАМИЯТИ

Холмурадова Л.Э.

Самарканд Давлат Чет Тиллар Институтининг

Фалсафа доктори (PhD)

Махмудова Махбуба

Самарканд Давлат Чет Тиллар Институтининг магистранти

Профессионал таржима фаолиятининг асосий хусусиятларидан бири бу унинг аналитик, яъни тахлилий жихатга эгаллигидир. Матн тахлили - аниқ ёки интуитив шаклда - ҳам манба матнининг тушуниш, англаш босқичларида, ҳам таржима матнининг натижаларининг текшириш таҳрирлаш ва сифатини баҳолаш босқичида ҳам мавжуд бўлади.

Мақоламизда кўтарилган масала бугунги кунда замонавий таржима назарияси ва дидактикасининг энг долзарб муаммоларидан бири десак муболаға бўлмайди. Ҳозирги кунда тегишли терминологияда ўз аксини топган турли нуқтаи назарлар мавжуд: таржимадан олдинги таҳлил, таржима таҳлили, матн, предпереводческий анализ, предпереводной анализ, переводческий анализ, text analysis for translation ва б.

Шуни таъкидлаш керакки, тадқиқотчилар М. П. Брандес ва В. И. Провоторов тадқиқот ёндашувлари, таржима олди таҳлилининг лингво-стилистик жиҳатдан талқин қилиш билан ажралиб туради ҳамда манба материалининг жанр ва стилистик хусусиятларига асослангандир (2, 114).

Таржима жараёни уч асосий босқичдан иборат. Улар қуйидагилардир:

1. Матннинг таржима олди таҳлили
2. Таржима жараёни
3. Таҳрирлаш жараёни.

Охирги икки босқичнинг аҳамияти жуда муҳимдир, биринчисига келсак, аксарият олимлар бу босқични назарда тутишса ҳам, назарий жиҳатдан чуқур изланишга берилмайдилар, бу билан таржимон матнни таржима қилишдан олдин ноаниқ-хиссий рольнигина ўйнади холос деган фикрни илгари суришади, "...таржима жараёнининг назарий таҳлиliga бағишланган илмий изланишларда матннинг таржима олди таҳлили ўз ўзидан амалга ошадиган жараён, таржимон фаолиятининг тўхталиб ўтилиши шарт бўлмаган бир босқичи сифатида қаралади, шу боис бу жараён алоҳида илмий таҳлил ва изланишларга муҳтож эмас" (1, 54).

Бироқ, биз томонимиздан, М.П.Брандес, И.В.Алексеева каби тадқиқотчилар фикрларини маъқуллаган холда, матннинг таржима олди таҳлили босқичи нафақат сифатли таржиманинг гарови сифатида тушунилиб, балки таржима қилинаётган матннинг мазмунини тушунилишининг аниқ техникаси сифатида талқин қилинади.

Таржима олди таҳлилинининг моҳияти шунда ҳам кўринадики, таржима қилинаётган матнни яхлит қабул қилиб, унинг типологик белгиларини аниқлаш, унда мавжуд мураккабликларни белгилаб олиш, таржима учун муҳим ва релевант бўлган қирраларини ойдинлаштириш, шу асосида нималарни тушуриб қолдириш ва таржиманинг қайси стратегиясини танлаш кабиларни ўз ичига олади.

Матннинг таржима олди таҳлилинининг аҳамияти жуда катта, ушбу таҳлил матнни мазмунини тушунишнинг ягона йўли бўлиб, айнан шу босқичда таржима матнида оригинал матннинг қайси жиҳатлари сақланиб қолишини аниқланади. Бинобарин, матн интерпретациясининг юқорида келтирилган қоралама изоҳига таяниб, матннинг таржима олди таҳлилинининг таржима инвариантида оригинал матннинг



сақлаб қолиниши муҳим бўлган маънонинг ажратиб олиниши каби кўп қиррали аналитик фаолият сифатида таърифлаш мумкин.

Матннинг таржима олди схемасини биз қуйидагича изохлашимиз мумкин. Ушбу схема Кристиана Норд томонидан таклиф қилинган бўлиб, бу схемада матннинг таржима олди тахлилининг компонентлари икки категорияга бўлинади - экстралингвистик омиллар ва матн ичи (лингвистик) омиллари:

1. Экстралингвистик омилларга қуйидагиларни киритишимиз мумкин:

- матн муаллифи,
- матн муаллифининг интенцияси,
- матн реципиенти,
- маълумот берилиши усули,
- матн яратилиши жойи,
- матн яратилиши вақти,
- матн яратилиши мақсади,
- матннинг коммуникатив мақсади.

2. Лингвистик омиллар:

- матн мавзуси,
- матн мундарижаси,
- матн структураси,
- матннинг новербал элементлари ва уларнинг вербал элементлар билан ўзаро муносабати,

- матннинг синтактик хусусиятлари - матннинг лексик тузилиши,
- матннинг тоналлиги,
- матннинг прагматик таъсири.

Таниқли таржимашунос, функционал ёндашув тарафдори И.С.Алексеева ўзининг таржима олди тахлили схемасини ишлаб чиқиб, унга қуйидаги жихатларни киритади:

1. Матн ҳақида ташқи маълумот тўплаш:

- оригинал матн муаллифи;
- оригинал матн яратилиши ва чоп этилиши вақти;
- манбаа (китоб, интернет-сайт, журнал ёки газета).

Ташқи маълумотлар таржимонга таржима стратегиясини танлашда ёрдам беради. Масалан, оригинал матн XIX асрда яратилган бўлса, таржима архаизацияси талаб қилинади. Агар матн болалар учун мўлжалланган бўлса, таржимада мураккаб синтактик конструкцияларнинг, матнни қабул қилиниши ва тушунилишини қийинлаштирадиган бошқа элементларнинг ишлатилиши ўринли эмас.

2. Маълумот тузилиши ва зичлигини аниқлаш (И.С.Алексеева маълумотнинг тўрт турини ажратиб кўрсатади):

- когнитив,
- оператив,
- эмоционал,
- эстетик.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, ҳар бир матн маълум маънони ўзида мужассам этади. Матннинг таржима олди тахлили турли тадқиқотчилар томонидан тахлил қилиниб бир неча босқичларга бўлинган. Таржимон таржимани бошлашдан аввал юқорида келтирилган таржима олди тахлилларини қўлласа, таржиманинг асосий талаби, таржима сифатини янада юқорига кўтаришга эришади.



Адабиётлар.

- 1.Алексеева И. С. Письменный перевод / И. С. Алексеева. - СПб. : Союз, 2006. - 368 с.
- 2.Брандес М. П. Предпереводческий анализ текста / М. П. Брандес, В. И. Провоторов. - Курск : Изд-во РОСИ, 1998. - 115 с.
- 3.Гараева М.Р. Переводческий анализ текста. Учебное пособие. Казань, 2016 - 94 с.
- 4.Nord С. Text Analysis in Translation: theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis / С. Nord. - Amsterdam: Rodopy, 2005. - 274 p 9.
- 5.Схема переводческого анализа текста - <http://wikienglish.ru/?p=238>



ЭВИДЕНЦИАЛ ОМОФОН ҲОДИСАЛАР ТИПОЛОГИЯСИ

Махзуна Хамраева Гайратовна

ҚарДУ, хорижий тиллар факультети ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада инглиз тилидаги эвиденциал омофон бирликлар лексик-семантик нуқтаи назардан типология асосида таҳлилга олинган. Унда мазкур омоним гуруҳига мансуб бўлган омофон бирикмалари эвиденциаллик жиҳатидан ёритиб берилган.

Калит сўзлар: типология, эвиденциаллик, омофон, сема, гетероним, омограф, омоним, чалғитувчи сўзлар.

Маълумки, типология сўзи юнонча. typos - белги, из; намуна, шакл, + logos - фан ёки таълимот деган маъноларни англатади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида типология сўзига қуйидагича таъриф берилган: 1 Объектлар тизимини қисмларга ажратиш ва уларни умумлашма модель ёки тип ёрдамида гуруҳлаштиришдан иборат илмий метод. 2 Тил тузилишининг муҳим белгиларини айрим олинган тиллар орқали қурилишини ўрганиш, шунингдек уларни ҳар томонлама таққослаш асосида аниқловчи ва умумлаштирувчи тилшунослик бўлими [ЎТИЛ; 113].

Эвиденциаллик эса лингвистик категория бўлиб, бирор кимсанинг бирор объектни ўрганганлиги ҳақидаги маълумотни ёки маълумотлар базасини билдиради. Мисол учун бир эвиденциал морфема унга оид бўлган бир нечта маълумотларни қамраб олади. Бунда, бир эвиденциал тип сифатида бирор кимсанинг бирор объектни эшитиши, ҳис қилиши ёки туйишига айтилади [Alexandra; 38].

Инглиз тилида бошқа аксарият тиллардаги каби нутқда сўзлар шаклан ёки талаффузига кўра бир хил бўлиб келиши мумкин. Бу ҳодиса тилшуносликда одатда уч турга ажратилади: 1) график бир хиллик; 2) талаффузига кўра нисбий бир хиллик; 3) талаффуз жиҳатидан мутлақ бир хиллик. Бундай бир хиллик касб этган сўзлар "омограф", "омофон", "гетероним" каби терминлар билан ажратилади. Тилшуносликда буларнинг барчаси омонимлар сирасига киритилади.

Аммо аксарият олимлар ёзилиши жиҳатидан бир хиллик касб этувчи, бироқ турлича талаффуз этилувчи сўзларни, яъни омографларни омонимлар сирасига киритмайдилар. Улар омонимия ҳодисаси объекти сифатида асосан бир хил товуш таркибига эга бўлган, яъни талаффуз нуқтаи назаридан бир хиллик касб этувчи сўзларгагина эътибор қаратадилар [Шайкевич; 312]

Инглиз тили омофоник бирликларга бой бўлиб, турли олимлар уларга ҳар хил ёндашадилар. Мисол учун, Колумбия университети профессори Мичел Миоззо омофонларга қуйидагича изоҳ берган: "Омофонлар шундай бирликларки, уларни ўрганишдаги қийинчилик энг кўп қўлланувчи сўзларни тез-тез нутқимизда такрорлаб туришимиз натижасида юзага келади" дейди ва [Michele; 2] фикрининг далили сифатида hare - қуён ва hair - соч каби сўзларни келтиради. Бу икки сўз [he(r)] деб талаффуз қилинади.

Шунга ўхшаш фикрни Е.А.Гурджиеванинг омонимларга бағишланган тадқиқотларида ҳам учратиш мумкин: "Бир хил талаффуз қилинувчи, ҳар хил маъно англатувчи, лексик ва грамматик жиҳатдан фарқ қилувчи сўзлар омонимлар деб аталади ва улар таркибида асосан талаффузи бир хил бўлган сўзларни учратиш мумкин масалан: light - ёруғ ва light - енгил [lait]; ring - узук, ring - қўнғироқ қилмоқ [ri] дейди [Гурджиева;151].

"Одатда бир сўз туркумига мансуб бўлган сўзлар тўлиқ омонимлар саналади ва улар контекстда қўлланиш жараёнида барча грамматик шакллари тўла сақлаб



қолади" [Фомина; 68].

Т.В.Жеребилонинг "Тилшунослик терминлари луғати"да қуйидаги таърифга дуч келамиз: "ОМОНИМЛАР [қад. юнон. $\omicron\mu\omicron\varsigma$ < *homos* бир хил + *опута*, *ονυμά* ном]. Бир хил талаффуз этилувчи, аммо ҳар хил маъно ифодаловчи сўзлар" [Жеребило, 234]. Луғат муаллифи шунингдек, инглиз тилидаги ёзилиши жиҳатидан фарқ қилувчи, аммо бир хил талаффуз этилувчи *meet* – *гўш*[mi:t] ва *meet* – *кутиб олмоқ* [mi:t] сўзларини ҳам тўлиқ омонимлар сирасига киритади.

Профессор А.И. Смирницкий омоним сўзларни классификация қилиб, уларни иккита катта гуруҳга ажратади ва уларни тўлиқ омонимлар ҳамда қисман омонимлар дея номлайди [Смирницкий; 169]. 1. *Тўлиқ лексик омонимлар* деб, бир парадигмага кирувчи ҳамда бир хил сўз туркуми бўлиб келувчи сўзларга айтилади. Мисол учун, *match*, *матч-ўйин* ёки *мусобақа босқичи*, *match*, - *гузурт*. Ҳар иккала талаффуз ва хижжалаб айтиш жиҳатидан бир хил бўлган сўзлар от сўз туркумига мансуб. 2. *Қисман грамматик омонимлар* деб бир хил сўз туркуми категориясига кирувчи шаклан ва замон категорияси ҳам бир хил бўлган сўзларга айтилади. Мисол учун, *to hang* (*hung*, *hung*) феъл ҳамда *to hang* (*hanged*, *hanged*) феъл. 3. *Мураккаб лексик-грамматик* омонимлар эса бир хил шакл парадигмасига мансуб бўлган, аммо турли хил сўз туркуми бўлиб келувчи сўзлар ҳисобланади. Масалан, *rose* (*от*)- атиргул ҳамда *rose* - (*феъл*) кўтармоқ.

Ҳарвард университети олими Алфонзо Карамазза эса "Лексик жараёнлардаги тест назариясида омофонларнинг фаолияти сўзлардаги лексик жараёнларнинг натижасидир ва улар оғзаки нутқда чалғитувчи характерга эгадир", - деб таъкидлайди ва бунга *red* – *қизил* (сифат) ва *red* – *қизарган* (сифатдош) *red* – *кизил ранг* (от) сўзларини мисол қилиб келтиради.

Демак, икки сўзнинг маълум фонетик қонуниятларга кўра бир хил талаффуз этилиши омофониядир. Бу ҳодиса фақат икки сўзнинг бир хил талаффуз этилишида қайд этилади. Аммо иккидан ортиқ сўзнинг бир хил талаффуз этилиши омофония бўлмайди, деган фикрни илгари сурмайди. Бироқ, биз ўрганиб чиққан далиллар аксарият ҳолларда икки сўз орасида бир хил талаффуз юзага келишини кўрсатади. Омофонияни юзага келтирувчи икки сўз аслида фонетик структурасидаги маълум товуш орқали фарқ қилади. Лекин улар талаффуз жараёнида маълум қонуниятга кўра бир хил қайд этилади. Масалан: *principal-директор*, *principle-усул* [prɪnsəpl]; *bear- айиқ*, *bare-яланғоч* [beə], *I-мен*, *eye-кўз* [aɪ], *symbol-рамз*, *symbal-чолғу асбоби* [sɪmb], *berth-ётоқ*, *birth-туғилмоқ* [bɜ:θ], *knead-аралаштирмақ*, *need-керак* [ni:d], *knight-пицарь*, *night-тун* [naɪt], *sail-сузмоқ*, *sale-сотмоқ* [seɪl], *piece-бўлак*, *peace-тинчлик* [pi:s], *none-ҳеч бири*, *nun-роҳиба* [nʌn], *pair-жуфт*, *rear-нок*, [reə], *serial-серуал*, *cereal-бўтқа* [siəriəl], *steal-ўғирламақ*, *steel-нўлат* [sti:l], *alter-ўзгарши*, *altar-меҳроб* [ɔ:lte], *colonel-полковник*, *kernel-уруғ* [kɜ:nl] ва бошқалар.

Америкалик олима Мария Елена омофонларни одатда хато қўллаш мумкин бўлган сўзлар деб баҳолайди ва бунга қуйидагича изоҳ келтиради: "Нафақат инглиз тилида икинчи тил сифатида мулоқот қилувчилар, балки инглиз тили соҳиблари ҳам талаффузи бир хил бўлган сўзларни одатда нутқда тез-тез хато қўллайдилар. Баъзан бундай сўзлар шу қадар ўхшаш талаффуз қилинадик, суҳбат жараёнида кишилар улар орасидаги фарқни англолмай қоладилар. Айрим ҳолларда кишилар турлича ёзиб, бир хил талаффуз этиладиган сўзларни хижжалаб, харфма-харф айтилгандагина уларнинг аниқ маънолари англашилади", - дейди у. Олиманинг мақоласида мисол тариқасида қуйидаги сўзлар келтирилган: *cite* – *мисол келтирмақ*, *site* – *жой*, *макон*, *sight* – *кўз*, *кўриш қобилияти*. Инглиз тилида бу сўзларнинг ҳар учаласи [saɪt] деб талаффуз қилинади. [TOEFL, 264].



Шуни ҳам эътироф этиш лозимки, товуш фарқи ҳар қандай кўринишда бўлавермайди. Бу фарқ уларнинг артикуляцион ўрни ва усули бир бўлгани учун унинг иштирокига кўра фарқи бўлиши ҳам мумкин. Мисол учун, унли товушларда тилнинг кўтарилиши ва лаблар иштирокига кўра бир хил бўлиб, унлилар қаторига кўра фарқланади: *accept* [əksept]-*except* [iksept], *bazaar* [bəza:] - *bizarre* [biza:]. Ундошлар иштирокидаги сўзларда ҳам бу ҳолат кузатилади: *advice* [ədvaɪs]-*advise* [ədvaɪz], *rice* [raɪs]-*rise* [raɪz], *rays* [reɪs]-*raise* [reɪz], *board-maxma* [bɔ:d] , *bored-зеруккан* [bɔ:(r)d], ва ҳоказо. Бундай ҳолатда паронимлар юзага келади.

Бинобарин, инглиз тилидаги талаффуздош сўзлар евиденциясига кўра шундай чалғитувчи ва чалқаштирувчи характерга эгаки, баъзан уларнинг маънолари орасидаги фарқларни ҳатто контекстда ҳам аниқлаш мураккабдир.

Masalan, *I see **man/men** over there. I see a **pair/pear** in the garden. There is a **gorilla/guerilla** in the cage of the zoo.* [Hornby,335].

Юқорида келтирилган фикрлардан шундай хулосага келиш мумкинки, ҳозирги кунда инглиз тилшунослигида алоҳида эътибор қаратиб келинаётган “confusing words” (чалғитувчи сўзлар) ҳам омонимлар гуруҳига мансуб бўлган омофонлар сирасида ўрганилиши лозим. Чунки уларнинг ҳар иккаласи бир хил характерга эга бўлган тушунчалардир. Тилшуносликда

эвиденциал омофонлар ёки чалғитувчи сўзларнинг мавжуд бўлиши тилдан самарали фойдаланишда тўсиқ бўлмайди, албатта. Чунки омофоник жуфтликларнинг ҳар бири ўз семантик, грамматик ва бошқа хусусиятларига эга. Нутқда бундай сўзлардан унумли фойдаланиш ҳамда суҳбат жараёнида уларни тўғри ва ўринли қўллаш учун инглиз тилидаги талаффуздош жуфтликларнинг ҳар бирини изчил ўрганиш ва маъноларини яқиндан билиш талаб қилинади ҳолос.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Alexandra. Evidentiality (Linguistics) Oxford university press. 2004- p 452.
2. A. Pyle, M. Ellen. TOEFL -Test of English as a foreign language. First chapter. Cliffs USA, 1995. - P. 299.
3. A. S. Hornby, Oxford students dictionary of current English, 1984, p 569.
4. А. Гурджиева. Введение в языкознание. Ташкент "ўқитувчи" 1989.-312.
5. А.И.Смирницкий. Классификация омонимов. Москва 1985.
6. Жеребило Т.В. "Словарь лингвистических терминов". Назрань: ООО Пилигрим, 2010. - 486 с.
7. Michele Miozzo "The Representation of Homophones: Evidence From the Distractor-Frequency Effect" Journal of Experimental psychology: USA 2005. - p 12 .
8. Фомина М.И. Лексикология. М.: Высшая школа, 1990. - 415 с.
9. Шайкевич А.Я., Абдуазизов Е.А. Введение в языкознание. Ташкент: ўқитувчи, 1989. - 312 с.



НЕМИС ТИЛИДА КОНЦЕПТУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Покиза Примкулова

ЎЗМУ, ХФФ, Лингвистика(немис тили) мутахассислиги

1 - курс магистранти

Илмий раҳбар: Шухратхон Имяминова, УзМУ профессори

Аннотация: Ушбу мақолада немис тилида маъно кўчиш турлари ва бу соҳанинг ривожланиш жараёнлари ва концептуал метафоралар мазмун моҳияти тўғрисида сўз юритилади.

Калит сўзлар: метафора, метонимия, когнитив метафора, концептуал метафора.

Тил бевосита аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган маънавий мерос, бебаҳо бойлик ҳисобланади. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев бошчилигида турли соҳаларда ўсиш кузатилмоқда, жумладан спорт, маънавият ва маърифат, илм-фан, техника соҳаларини таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиқ. Ҳозирги кунда энг муҳим тармоқ ҳисобланувчи илм-фан соҳаси жадал суратлар билан ривожланиш ва мазкур соҳада кўпгина ютуқларга эришилмоқда. Хусусан, хорижий тилларни ўрганишга, хорижий мамлакатларнинг маъданияти, маънавияти, урф-одатлари билан танишиш ва таништиришга, ўзбек ва чет эл маъданияти, умуман, ҳаётини таққослаб ўрганишга муҳим эътибор қаратилаётгани ҳеч кимга сир эмас. Ўзбекистонда барча таълим тизимларида бир нечта тилларни ўргатиш учун шароитлар яратилган бўлиб, ёшларнинг ихтиёрида турибди. Ҳозирги кунда юртимизда инглиз, рус, немис, француз, хитой, япон тиллари муфассал ўргатилади. Мақсад, баркамол авлодни тарбиялашдир. "2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасининг ривожлантиришни бешта устувор йўналиши бўйича "Ҳаракатлар стратегияси" нинг "Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш" ва "Ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш" тўғрисидаги ақлан ривожланган мустақил фикрлайдиган ёшларни тарбиялаш, миллий ифтихор, ватанга садоқат ҳиссини шакллантириш айти пайтдаги давр талабидир" [1].

Сўзнинг ҳар қандай лексик маъноси маълум сабаб, талаб билан юзага келади ва ҳар қандай лексик маънонинг юзага келиши ўз асос ва қонуниятларига эга. Сўзнинг янги маъноси ҳамма вақт ҳам янги пайдо бўлган нарса-ҳодисаларни ифодалаш талаби билангина эмас, балки аслида бор бўлган нарса-ҳодисаларни ифодалаш талаби билан ҳам юзага келади. Аслида, бор нарса ҳодисаларни яна бошқа сўзлар билан аташнинг ўзиёқ маълум талаб билан, уни қандайдир ўзгачалик билан ифодалаш талаби натижасида намоён бўлади.

Ном кўчиши асосида янги маъно ҳосил бўлиши барча мутахассислар томонидан эътироф этилса-да, лекин ном кўчишига олиб келувчи ҳодисалар, уларнинг тури масаласидаги қарашлар турлича. Баъзи ишларда ном кўчишига олиб келадиган ҳодисанинг икки тури кўрсатилса, айрим ишларда бундай ҳодисаларнинг ундан кўп турлари кўрсатилади. Лингвистик адабиётларнинг кўпчилигида эса ном кўчишига олиб келувчи ҳодисанинг тўрт тури келтиради: 1) метафора; 2) метонимия; 3) синекдоха; 4) вазифадошлик;

Тилда илгари мавжуд бўлган номнинг муайян ўхшашлик асосида янги маъно учун қўлланиши оддий номинация вазифасинигина бажармайди, балки тингловчига таъсир этиш вазифасини ҳам бажаради, ҳамда тилнинг ифода имкониятларини кенгайтиради. Ана шундай кўчим - метафорадир. Метафора сўзи грекча metaphora сўзидан олинган бўлиб, бир предмет номига улар ўртасидаги



маълум ўхшашлик асосида кўчишидир [2].

Метафоранинг ўрганилиш тарихи жуда узоқ даврларга бориб тақалади. Аристотел замонидан буён у риторика, психология, фалсафа, стилистика, адабиётшунослик, таржимашунослик ва хатто кибернетика каби фан намоёндалари томонидан таҳлил қилиб келинди. Лекин бу билан масаланинг лингвистик аспекти етарлича ўрганилган деб бўлмайди. Ҳар қандай бадиий воситалар лисоний воситалар ёрдамида моддийлашади. Шунинг учун ҳам метафорани лингвистик нуқтаи назардан ўрганиш зарурдир [3].

Немис тилида метафораларнинг ўрганилиш тарихига назар ташлайдиган бўлсак, Аристотел замонидан буён ўрганилганини айнан немис олимлари ўз илмий ишларида келтириб ўтишган. Бу соҳада энг кўп изланган немис олимларидан қуйидагилар салмоқли янгиликларни олиб бора олганлар. G?nter Bader "Melancholie Metapher", Max Black "Models and Metaphors", Wolfgang Bergem va Lothar Bluhm "Metapher und modell ", Hans Blumenberg "Paradigmen zu einer Metaphorologie", Thomas Eder, Franz Josef Czernin "die Metapher in Wissenschaft und Literatur", Anselm Haverkamp "Theorie der Metapher ", Ulrich Krewitt "Metapher und tropische Rede in der Auffassung des Mittelalters " ва бошқалар шу жумласидандир [4].

Метафора асосида маъно кўчиш ҳодисаси бу - янги маъно ҳосил бўлишинига олиб келувчи асосий ҳодисалардан бири бўлиб, бу ҳодиса янги маъно ҳосил бўлиши ҳақида фикр юритилган ишларнинг деярли барчасида қайд этилади. Метафора асосида ном кўчиши - нарса, белги ёки ҳаракатга мос атаманинг ўзаро ўхшашлиги бўлган бошқа белги, нарса, ҳаракат ҳақидаги тушунча учун ҳам қўлланилади. Масалан: "Kopf des Nagels" [5] яъни "михнинг боши", аслида эса михнинг боши бўлмайди, балки у ташқи ўхшашлик асосида ёки маълум ўхшаш вазифани бажаради. Метафора маъно аниқлаш жиҳатидан жудаям ўхшатиш усулига ўхшаб кетади. Лекин иккаласининг ўртасида маълум маънода фарқли томонлари мавжуд. Ўхшатиш - бу маъно кўчиши эмас, балки у бошқасини ўрнини алмаштириб келади. Ўхшатиш асосида биз ҳеч қандай номнинг бошқа маънога кўчиши ҳодисасини кўрмаймиз, бу ҳодисада фақатгина икки томоннинг бир - бирига солиштиришини кўрамиз. Метафоранинг немис тилига мос бўлган хусусиятидан бири бу қуйидаги турларидир. Булар: мавжуд (lebendige), эскирган (verblasste), йўқолган (tote) метафоралардир.

Агар тингловчи ва сўзловчининг тасаввурида келтирилган метафоранинг таг маъноси тушунарли бўлиб, лекин икки предметнинг асосий таг маъноси йўқотилган бўлса, бундай метафоралар мавжуд бўлган (lebendige) метафорадир. Масалан, ёш ва жаҳлдор йигитни биз жангари хўрозга ўхшатишимиз мумкин "Streithahn".

Эскирган (verblasste) метафоралар - бундай метафораларда кўчма маъно асл маъно билан ўзаро боғлиқлиги яширин бўлган сўзлардир. Масалан, "Wetterhahn" сўзи, авваллари, бу сўз шамолнинг йўналишини билдирган, аслида бу ном бир кичкина хўроз номидан олинган бўлиб, кейинчалик бу ном ўз моҳиятини йўқотиб эскириб борган ва бу ном билан аввалги шамол йўналиши номлаш ҳаммага тушунарлилигини ҳам йўқотган.

Кейинги турида, яъни йўқолган (tote) метафораларда шундай сўзларни кўрамизки, уларнинг маънолари althochdeutsch ва mittelhochdeutschда бошқача номланиб, секинлик билан ўз номини йўқота борган.

Барча соҳаларда ўсиш ва янгиликлар бўлгани каби тилшуносликнинг ҳам замонавий тармоқлари ривожланди. Замонавий тилшуносликда ҳам бир қанча яна замонавий атамалар ва тушунчалар ҳам фанга кириб кела бошлади. Юқорида



маъно кўчишининг метафора усулини нима маънога эга эканлиги ҳақида сўз бросан бўлса, замонавий тармоқда эса " концептуал метафора", "когнитив метафора" атамалари кириб келди. "Когнитив метафора "тушунчасини илк бор фанга файласуф олим М.Блек олиб кирган ва у метафорага шунчаки орноментал бирлик яъни нутқ беаги сифатида эмас, балки чуқур моҳиятга эга ҳодиса эканлигини очиб берди [6]. Метафоранинг когнитив назарияси айнан шу тушунча асосида шакллланганлиги ва ушбу назария асосида "концептуал метафора "тушунчаси ўрганилиши тадқиқотларда кўриб чиқилди. Концептуал метафора ўзи нима? " концептуал метафора бу - маълум тушунча ёки тасвирни ифодалаш учун икки ва ундан ортиқ концептлар бирлашувидан хосил бўлган тасвирий ифода - кўчим жамланмаси концептуал метафорани хосил қилади". Когнитив тилшуносликда концептуал метафораларни ўрганиш устида ишлар олиб боориш жадал ўсиб бормоқда. Чунки метафорага бугунги кун тилшунослари онгнинг қийёсий - таҳлилий фаолияти сифатида баҳо беришмоқда. "Концептуал метафора "атамаларининг тилшуносликка илк бор Ж. Лаккоф ва М. Жонсонлар олиб кирди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. "2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони, Халқ сўзи, 2017-йил, 8-феврал, № 28
2. Nurmonov. A. Sobirov A. Qosimova N. Toshkent, Ilm- ziyo, 2013, 193-bet.
3. Бикертон Д. К. введение в лингвистическую теорию метафорий. Теория метафорий. -М., Наука, 1990. С. 287-506
4. <http://www.articles/muenster/read/ru>
5. Искос А, Ленкова А. deutsche Lexikologie, 1970. 124- бет
6. Блек М. Метафора // Теория метафоры. - М.: Пргресс, 1990. - 44- 67с



Ўқувчиларда дунёқарашни шакллантиришда ўзбек тилни ўргатишнинг асосий омиллари

Раимова Севар Собировна

Фурқат тумани 2-умумий ўрта таълим мактабининг
ўзбек тили фани ўқитувчиси

Аннотация

Мақола доирасида ўзбек тили дарслари жараёнида ўқувчиларда дунёқарашни шакллантиришда асосий роль ўйнайдиган омиллар хусусида фикр юритилган.

Калит сўзлар

Таълим-тарбия, дунёқараш, ижтимоий ҳодиса, тил, тафаккур, онг.

Ўқувчиларга таълим-тарбия бериш вазифаларидан бири уларда дунёқарашни шакллантиришдир. Бу вазифани ҳал қилишда мақсадга мувофиқ ишлашнинг етакчи шарти, ўқувчини шахс сифатида муваффақиятли камол топтиришдир. Қуйида кўрсатилган омиллар тилни ўргатиш билан боғлиқ ҳолда ўқувчиларда дунёқарашни шакллантириш усулини белгилайди.

1. Тилнинг ижтимоий ҳодиса сифатидаги моҳияти, унинг алоқа вазифасини ифодалашдан иборатдир. Мактабда, шу жумладан, бошланғич синфларда тилни ўргатишнинг етакчи йўналиши ўқувчилар тилнинг алоқа вазифасини бажаришни тушунишларига эришиш ҳисобланади.

2. Тил билан тафаккур узвий боғлиқ бўлиб, тафаккур сўз воситасида юзага чиқади. Тил тафаккурнинг маҳсули ҳисобланиб онгдан ташқарида ўзича яшамайди.

3. Тил ва тафаккур атрофимизни ўраб олган моддий борлиққа нисбатан иккиламчидир.

4. Тил барча томонлари ўзаро диалектик боғланишда ва бирликда бўлган мураккаб, кўп қиррали ҳодиса. Алоқа жараёнида тилнинг барча томонлари бир бирига таъсир этади, шундай шароитдагина тил ўзининг алоқа функциясини бажара олади.

Тилнинг ижтимоий моҳияти унинг алоқа функциясини бажаришда кўринади. Унинг жамият ҳаётидаги ролини аниқ тушунишга ёрдам бериш учун:

1. Ўқув жараёнида ҳар бир тил бирлигининг нутқимиздаги ролини ўқувчилар ўзлаштиришини таъминлаши зарур.

2. Ўқувчиларнинг тилнинг алоқа функциясини, тилнинг асосий бирликлар (фонема, морфема, сўз, сўз бирикмаси, гаплар)нинг вазифасини тушуниш жараёнида ўрганишдир.

3. Ўқувчиларнинг тилнинг коммуникатив функциясини тушунишлари "Тил ҳар бир киши ва умуман жамият ҳаётида қандай ролни бажаради?" саволига жамоа бўлиб жавоб топишда ижодий таъсир кўрсатади. Ёшлари ошган сари одамнинг одам бўлишида тилнинг ролини тушуна бошлайдилар.

Хулоса сифатида алоҳида таъкидлаш жоизки, ўзбек тили ўқитиладиган рус мактабларда ўқувчиларни дунёқарашини шакллантириш ва сўз бойлигини ошириш, хатосиз нутқ туза олиш кўникмасини шакллантириш учун юқорида кўрсатилган омилларга эътибор қаратиш кўзланган мақсадга эришишда асосий омил вазифасини ўташи, шубҳасиздир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Тошкент: Университет. - 2006.

2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўзбекистон. - 1992.



3. Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари. Тошкент: Ўқитувчи. - 1995.
4. Шоабдураҳмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи. - 1980



КОМПАРАТИВ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛЕКСИК БИРГА ҚўЛЛАНА ОЛИШЛАРИ

Душаева Умида Юсуфовна

Ўзбекистон Давлат Жаҳон Тиллари университети

Испан тили назарияси ва амалиёти кафедраси стажёр докторанти

E-mail: umida.77.ud@mail.com

Аннотация. Ушбу мақолада гап турғун ўхшаш бирикмалар, компаратив фразеологик бириклар ҳақида кетмоқда. Улар тилнинг интенсиф категориясини ифодалашнинг воситаларидан бири ҳисобланади. Мақолада лексик бирга қўшила олиш тушунчаси албатта сўзларнинг маъно даражасида мослашувини, яъни семантик бирга қўшиб ишлатиш мумкинлигини назарда тутди.

Калит сўзлар: лексик-стилистик, валентлик, синтагматик, мослашув

Кейинги йилларда тилшуносларнинг тил бирикларининг валентлилик хоссалари ва уларнинг нутқда ишлашининг ўзига хос хусусиятлари муаммоларини ўрганишга қизиқиши сезиларли даражада ортди. Тадқиқ қилинаётган бирикларнинг қўлланилиш контекстларини синчиклаб таҳлил қилиш зарурияти, шунингдек, ушбу тилнинг маъноларининг бирга қўшила олишининг "характерли шакли" ҳамда тил тизимининг вазиятларга ва контекстларга қараб қўллаш нормаларини ўрганишнинг долзарблиги шубҳа уйғотмайди. [В. Г. Гак. Семантическая структура слова как компонент семантической структуры высказывания. В кн.: "Семантическая структура слова". М., 1971]

Бирга /лексик ва грамматик/ қўллана олиш ҳодисалари билан боғлиқ муаммолар назарий тилшунослик учун ҳам, амалий тилшунослик учун ҳам катта қизиқиш касб этади. Сўзларнинг лексик-синтактик алоқаларини изчиллик билан тасвирлаш ва бирга қўшила олиш луғатларини тузиш зарурияти шу билан изоҳланадики, фикрни тўғри шакллантириш албатта сўзларнинг бирга қўшила олиш қонунларига амал қилишни, сўзларнинг бирга қўшила олиш қоидаларини билиш ҳорижий тилни ўрганишда айниқса муҳимлигини назарда тутди, чунки хилма-хил тилларнинг лексик-стилистик тизимлари, сўзларнинг бирга қўшила олиши ва мазмуний ҳажми ҳеч қачон бир-бирига тўлиқ "мос тушмайди".

Бирга қўшиб ишлатиш мумкинлик тушунчаси валентлилик, тарқалиш ва контекст тушунчаси билан жуда узвий боғлиқ бўлганлиги сабабли, юқорида номлари келтирилган категорияларни кўриб чиқиш зарур туйилади.

Муаллифларнинг кўпчилиги "тил бирикларининг тилнинг бошқа бириклари билан бирикишга киришиш қобилятини", [М. Д. Степанова. О "внешней" и "внутренней" валентности слова. ИЯШ, 1967, №3, стр. 14.] ҳар бир тил бирлиги учун хос бўлган "функционал-позицион имкониятини", [М. М. Маковский. Валентные отношения в лексике. ИЯШ, 1968, №6, стр. 20.] ёки бошқача сўзлар билан айтганда, тил бирикларининг ва категорияларининг яширин, аммо юзага чиқиши мумкин бўлган синтагматик хусусиятларини валентлик деб атайдилар.

Бирга қўшиб ишлатиш мумкинлик - бу тил бирикларининг потенциал синтагматик хусусиятларининг нутқда амалга ошишидир. Лексик бирга қўшиб ишлатиш "сўзларнинг лексик маъноси бўйича бирга қўшила олиши, у мазмуний ва ҳамма қабул қилган бўлиши мумкин", [А. А. Уфимцева. Лексика. В кн.: "Общее языкознание. Внутренняя структура языка". М., 1972, стр. 412.] ёки сўзларнинг шундай валентлиги-ки, у грамматик характеристикага боғлиқ эмас ва маъно даражасида "мослашув" билан аниқланиши мумкин, [Н. В. Коссек. К вопросу о



лексической сочетаемости. ВЯ, 1966, №1, стр. 97.] деб тушунилади.

Л. В. Шчерба, У. Вейнрейх, В. Г. Гак, Ю. Д. Апресянлар ўз ишларида тилларда маъноларнинг бирга қўшила олиш назариясини тизимли ишлаб чиқиш мақсадини қўйдилар.

Шубҳасиз, сўзларнинг бирга қўшила олиш қонунларини семантик даражада ўрганиш ҳамда мазмунларнинг бирикуви эҳтимолликларини ҳисоблаш билан боғлиқ тадқиқотлар ҳам ҳақиқий назарий жиҳатдан, ҳам амалий жиҳатдан маълум қизиқиш касб этади.

Лексик бирга қўшила олиш тушунчаси аллбатта сўзларнинг маъно даражасида мослашувини, яъни семантик бирга қўшиб ишлатиш мумкинликни назарда тутди. Бироқ, маълумки, семантик жиҳатдан тўғри келмайдиган бирикмалар нутқда жуда кам учрайди, чунки тил сўзларнинг мазмуний бирикишини назорат қилиш тузилишига эга ва интеллектга фақат маъноли бирикмаларгина ўтказилади.

Хулоса

Испан тили компаратив фразеологик бирликларининг лексик бирга қўшила олишининг ўтказилган таҳлили шундан далолат берадики, тадқиқ қилинаётган тил бирликларнинг нутқий амалга ошиши қонуниятларини тадқиқ қилишда улар учрайдиган қиёслаш жумлаларининг субъект позицияси ҳақидаги масала муҳимдир. Нутқда КФБ ларни тўғри ишлатиш ва ушбу шароитларда тил соҳиби қўллайдиган мулоҳазани келтириб чиқариш учун субъектнинг типига қараб компаративни танлашга қўйиладиган чекловларни билиш зарур.

Адабиётлар

1.В. Г. Гак. Семантическая структура слова как компонент семантической структуры высказывания. В кн.: "Семантическая структура слова". М., 1971

2.М. Д. Степанова. О "внешней" и "внутренней" валентности слова. ИЯШ, 1967, №3, стр. 14.

3.А. А. Уфимцева. Лексика. В кн.: "Общее языкознание. Внутренняя структура языка". М., 1972, стр. 412.

4.Н. В. Коссек. К вопросу о лексической сочетаемости. ВЯ, 1966, №1, стр. 97.



РОМАНТИЗМ И ВОСТОЧНЫЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ГЕТЕ

Искандарова Нодира Бахрамбековна

преподаватель кафедры "Узбекский язык и литература, языки"

Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии

e-mail: n.iskandarova7703@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается проникновение романтизма в Германию и восточные мотивы Гете в его произведении "Западно-восточный диван"

Ключевые слова: Романтизм, поэзия, мировая литература, культура, восточный колорит.

Эпоха Просвещения, которая ознаменовалась множеством глобальных событий: это Французская революция, смена общественных формаций; сменилась эпохой романтизма - эпохой, внесшей неоценимый вклад в развитии мировой литературы.

Романтизм был одной из великих литературных революций нового времени, именно он должен был выразить новый тип сознания, который сильно отличался от мирозерцания людей XVIII столетия, людей, которые жили в мире ясных, однозначных категорий; добро и зло были четко разграничены. Казалось, что силы угнетения воплощены в монархии, в рабстве крестьян, в невежестве и в подавлении свободной мысли. Трагический исход Французской революции явил миру разгул низких страстей, властолюбия, диктатуры, презрения к людям. Рождались новые формы угнетения человека, природа которых для романтиков была непостижима. Отсюда возник влекущий, неустанный интерес к тайне, ко всему загадочному, непредсказуемому, отличавший почти всех романтиков. Это была эстетическая новизна, резко отличавшая мир романтизма от упорядоченной ясности просвещения.

Просвещение апеллировало к всеобщим законам, романтики же обращались к личности человека. Не случайно, романтизм стал эпохой небывалого расцвета поэзии, наступала, по словам Стефана Цвейга, "лирическая весна Европы", время Жуковского и Байрона, Пушкина и Мицкевича, Гете и Гейне.

Апелляция романтиков к личности, была стихийным откликом на новые исторические условия; в передовых странах Европы, в Англии и Франции старый сословный корпоративный порядок уже рухнул. В остальной Европе все более осознавалась его обреченность. Нарастало ощущение, что личность в новых условиях не обрела свободы. В поисках духовной опоры романтики чаще всего обращались к прошлому, но они, в отличие от просветителей, уже верили в будущее. Личность чувствовала себя увереннее, если могла ощутить себя звеном длительного исторического процесса или частью народного целого. В первые два десятилетия XIX века почти во всех странах совершается новое открытие своей национальной истории, народных обычаев, песен, сказок, обрядов, старины. В этом отношении Германия опережала все страны, являясь им примером.

Германия стала по существу родиной романтизма, здесь возник и сам этот термин. Черты романтической эпохи очевидны уже в позднем творчестве Гете.

В качестве переходной фазы в европейской литературе рубежа XIX столетия нередко выделяют предромантизм. Две важнейшие его ипостаси, связанные с романтикой ужасного и мистического, нашли своё преломление и в творчестве Гёте. "Западно-восточный диван" - одна из великих лирических произведений Гете, где романтизм переплетается с восточными мотивами. Сборник был опубликован в 1819 году. Его появление положило начало новому явлению в



европейской литературе - это синтез восточной и западной культуры. Великий творец внес восточный колорит в западную поэзию своеобразно, но очень органично соединяя воедино две совершенно разные культуры. Благодаря Гете западные читатели приобрели возможность путешествия в мир Востока:

Север, Запад, Юг в развале,
Пали троны, царства пали,
На Восток отправься дальний
Воздух пить патриархальный
В край вина, любви и песни,
К новой жизни там воскресни.

Важную роль в формировании новой эстетической системы сыграл Восток, изучение культуры которого на Западе все больше расширялось. Восток всегда ощущал на себе пристальный интерес Запада. Литературные взаимодействия с Востока в западную литературу, перенесение восточных мотивов, образов и идей в западную поэзию несомненно связано с именем великого немецкого поэта романтика Гете. Для восточной поэзии свойственен неисчерпаемый иносказательный язык, данная традиция заимствована Гете у восточных поэтов, в частности, у Хафиза.

Данное произведение это своего рода диалог двух культур, это соприкосновение творчества немецкого поэта с персидским.

Гете ярко, по-юношески восторженно передает свои чувства в любовных стихах данного сборника. Эмоции переполняют поэта, когда он пишет о чувствах Хатемы и Зулейки, историю их любви Гете описывает в "Книге Зулейки". Здесь Гете счастлив, жизнелюбив, для него нет ничего невозможного. Художественный прием смещения во времени передает мысль Гете о непрерывности развития единого, всеобъемлющего человеческого мира.

Восточные поэты склонны к гиперболизации, мистицизму, Гете же более сдержан, умерен, для него важнее внутренний мир человека. Поэтическая культура для Гете - это понятие общечеловеческое, оно не принадлежит отдельной исторической формации, будь то Запад или Восток, ее нужно прочувствовать, пережить.

Результатом взаимодействия западного романтизма и восточной таинственности стало кульминационное произведение великого немецкого классика - "Западно - Восточный диван".

Литература:

1. Брагинский И.С. Западно-восточный синтез в Диване Гете и классическая поэзия. - Москва, 1963.
2. Иоганн Вольфганг Гете. Западно-восточный диван. - Москва, "Наука", 1988.
3. Иоганн Вольфганг Гете. Из моей жизни. Поэзия и правда. - Москва, 1969.
4. Иоганн Вольфганг Гете. Об искусстве и литературе. - Собрание сочинений в 10 т. Т.10
5. Романтизм и реализм в немецкой литературе 18 -19 вв./Сборник статей. - Куйбышев, 1984.



"ТИЛЛАРДАГИ ИРРЕАЛ ЛЕКСИКАНИНГ БАДИИЙ ДИСКУРСДАГИ РОЛИ"

Ниязова Айшолпан Абдикаримовна

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети 1-босқич таянч докторанти
lunavenus86@gmail.com

Аннотация

Мазкур тезисда афсона жанрининг таркибий қисми бўлган ирреал лексиканинг семантикаси, функционал жиҳатлари ва лингвокультурологик хусусиятлари ва уларнинг шу тилда сўзлашувчи халқ томонидан дунёнинг лисоний тасвирини яратишдаги роли ва ўрни масаласини муҳокама қилиш ҳақида гап боради.

Таянч сўзлар: ирреал лексика, афсона, масал, эртак, норреал, уйдирма, референт, мифлар, мифология.

Тилшуносликда антропоцентрик парадигманинг ҳукмронлиги тил бирликлари, унсурлари, категориялари ва бошқа базавий тушунча ва тамойилларига бўлган азалий қарашларни қайта кўриб чиқиш заруриятини келтириб чиқарди. Шу нуқтаи назардан мифологиянинг тилдаги излари ва тилнинг маданиятдаги излари, худди шу йўсинда мифологемаларнинг маданиятдаги излари масаласига бўлган қизиқишнинг уйғонишига туртки бўлди. Авваллари мифлар, яъни афсона, ривоят ва шу кабилар адабиётнинг бир жанр кўриниши сифатида адабиётшуносликда тадқиқ қилинган бўлса, эндиликда тилшунослар афсоналарга халқ маданиятининг инъикос этувчи нутқ маҳсулотлари сифатида қарай бошладилар. (Маслова В.А. с. 78-79.)

Ирреал лексика луғатларда денотати (референти) ҳаёлий, дунёда мавжуд бўлмаган объектлар билдирилади. Ирреал лексикага бундан ташқари ялмоғиз, семурғ, дев, алвасти, иблис, шайтон, сув париси, уч бошли аждар ва бошқа шунга ўхшаган сўзлар киритилади.

Бас, шундай экан, биз икки оғиз ирреал лексиканинг кони, макони бўлмиш-афсона жанри ҳақида гапириб ўтсак. (Денисова М.А. с.109)

Афсона оғзаки ҳикоят бўлиб, у ҳаёлий образ ёки тасаввур асосига қурилади, ҳикоя қилувчилар ва тингловчилар томонидан қачонлардир шундай бўлгандек қабул қилинади. Ривоятдан фарқли ўлароқ афсона заминидан албатта мўъжиза, сеҳр-жоду бўлади. Афсоналар Олам- Ер, Қуёш ва бошқа сайёраларнинг юзага келиши ҳақида, топонимик (Қор тоғи), дарё, денгиз, шаҳар, қалъа, қишлоқ, тепалик, эрам боғи, Биҳишт, Жаннат, пулсирот, қил кўприк ва ҳк.), элатларнинг келиб чиқиш, хайвонот дунёси (масалан шер, семурғ, анҳо, аждар, шайтон.)га бид, табиатдаги воқеа, ҳодисалар (масалан чақмоқ, зилзила, шамол, тошқин ва бошқалар.) Тарихий шахслар (масалан, Тумарис, Широқ, Иван Сусанин, Қирол Артур, Мерлин ва бошқалар.), диний (масалан, Нуҳ пайғамбар, Абу Муслим Жанғномаси, Афросиёб, исо Масиҳ, пайғамбар Лут ва бошқалар) ва бошқа турли туман мавзуларда бўлади. (Сафаров Ш.С. 636.)

Ирреал лексика қўлланиладиган яна бир жанр масал бўлиб у дидактик адабиёт жанри ҳисобланади. Таълимий характердаги, аксарият кичик шеърӣ, баъзан насрий шаклдаги асар-масалда инсонга ҳос хусусиятлар, жамиятга ҳос ижтимоӣ ҳодисалар, муносабатлар қушлар ва ҳайвонлар ўртасидаги муносабатлар ва табиат ҳодисалари воситасида акс эттирилади. Мазмуни мажоз асосига қурилади, комилликнинг ва киноянинг, ижтимоӣ танқид мотивининг устунлиги масалда ҳажвий руҳ бағишлайди. Масалнинг ҳикоя қисми ҳайвонлар ҳақидаги эртаклар,



новелла ёки латифаларга яқин бўлиб, хотимаси, таълимий хулосаси мақол, ҳикматли сўз ва иборалар тарзида бўлади. Масал материаллари аксарият эртақ, мажоз, новелла, латифа ва бошқаларда ҳам қўлланилиши мумкин.

Рамзли ҳикоядан фарқли ўлароқ масалнинг ўз анъанавий образлар ва мотивлар доираси мавжуд бўлади. Худди мана шу анъанавий образлар қаторида ирреал лексикага тегишли сўз ва иборалар фаол иштирок этади. Ҳайвонлар, ўсимликлар, қушлар, муайян тизимдаги одамлар қатори жонлантирилган нарсалар, шахслаштирилган хайвонлар ва ҳоказолар ёрдами сўзловчи айтмоқчи бўлган фикрини тингловчига етказди. (Юлдашев А.Г. с.131)

Ирреал лексика кенг қўлланиладиган яна бир жанр бу фантастик эртақлар бўлади. У ерда ирреал лексика қаҳрамонлари тўқима ва уйдирмага асосланган сеҳрли саргузашт ва маиший характердаги эпик бадиий асарда ҳикоя қилувчининг коммуникатив мақсади ва ниятига кўра турли образларни гавдалантиришда фаол иштирок этади.

Ирреал лексикани билдирувчи сўзлар бу жанрда ҳаёт ҳақиқатини ҳаёлий ва ҳаётий уйдирмалар асосида тасвирланганлиги, тилсим ва сеҳр воситаларига асосланиши, воқеа ва ҳаракатларнинг ажойиб, гаройиб ҳолатларда кечиши, қаҳрамонларнинг гайри табиий жасорати билан фольклорнинг бошқа жанрлардан фарқ қилинишини таъминлайди. Бу ердаги уйдирма муҳим мезон бўлиб, сюжет воқеаларининг асосини ташкил этади, сюжет чизигидаги динамик ҳаракатларнинг конфликт ечимини таъминлайди. (Расулова М.И. с.47)

Ирреал лексикани ёрдамида воқеа ва ҳодисаларни ҳаётда бўлиши мумкин бўлмаган ёки мавжуд бўлган ҳодисалар тарзида тасвирлашда иштирок этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология М.2008, 320с.
2. Расулова М.И. Основы лексической категоризаций в лингвистике. Т., Изд. Фан, 2013, 340с.
3. Сафаров Ш.С. Семантика, Т.Фан, 2013, 340с.
4. Юлдашев А.Г. Идиоматичность узбекской картины мира- В сб: Вопросы когнитивной лингвистики, Москва, 2020, №1 сс. 130-135.
5. Денисова М.А. О некоторых принципах лексикографического описания без эквивалентных и фоновых слов. // Проблемы учебной лексикографии, -М.Ря, 1978, сс.107-111.



РЕЧЕВАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Урунова Дилафруз Уткировна

Г.Навоий, школа №1,

Учитель II категории начальных классов

Аннотация: в данной статье рассматриваются такие понятия, как "речевая деятельность", "устная речь", "аудирование", "говорение" и т.д. Также изучается развитие устной речи учащихся на уроках русского языка как иностранного.

Ключевые слова: речь, речевая деятельность, устная речь, аудирование, говорение.

У человека наряду с трудовой, научной, государственной, политической и другими существует самая распространенная - речевая деятельность. Без нее невозможна никакая другая, она предшествует, сопровождает, а иногда формирует, составляет основу деятельности. Речевая деятельность - это деятельность, имеющая социальный характер, в ходе которой высказывание формируется и используется для достижения определенной цели (общения, сообщения, воздействия). Другими словами, речевая деятельность состоит в порождении или восприятии речи средствами языка с целью обмена информацией. Это система умений творческого характера, которая направлена на решение различных коммуникативных задач. Предметом речевой деятельности является мысль как форма отражения окружающей действительности во всех её проявлениях. Основным средством существования, оформления и выражения мысли выступает язык.

Устная речь - это любая звучащая речь. В устной речи большую роль играют место логического ударения, степень четкости произношения, наличие или отсутствие пауз. Устная речь обладает таким интонационным разнообразием речи, что может передать все богатство человеческих переживаний, настроений и т.п. Устную форму речи характеризуют:

- большая доля паралингвистической информации (мимика, жесты, позы);
- линейность во времени;
- необратимость отзвучавшего отрезка речи;
- темп, задаваемый говорящим;
- высокая степень автоматизированности.

Устную речь составляют аудирование и говорение. Аудирование и говорение - это такой вид речевой деятельности, который нацелен на восприятие, прием информации и последующую ее переработку, поэтому их относят к рецептивным видам речевой деятельности. Процесс восприятия состоит из анализа и синтеза разноуровневых языковых единиц (фонем, морфем, слов, предложений), в результате чего происходит преобразование воспринятых звуковых сигналов в смысловую запись (т.е. наступает смысловое понимание).

В процессе обучения аудирования преподаватель должен развивать у учащихся навыки: - интонационного и фонетического слуха; - слуховой памяти; - прогнозирования.

А учащийся должен научиться:

- распознавать и воспринимать языковые формы;
- извлекать содержание из звучащего текста;
- перекодировать полученное содержание;
- добиваться понимания с помощью переспроса, просьбы повторить, пояснить, сказать иначе.



Второй вид устной речевой деятельности - это говорение. Говорение - продуктивный вид речевой деятельности, это вид речевой деятельности, который реализуется, когда в сознании говорящего возникает потребность в речевом воздействии на собеседника. Это процесс, обратный аудирования - при аудировании происходит восприятие чужой речи, а при говорении происходит воспроизведение своих мыслей. Если в аудировании процесс шел от восприятия формы к осмыслению, то при говорении процесс идет от содержания к форме.

Говорение имеет несколько уровней:

1. Начальный (ответы на вопросы при отсутствии или наличии опор, но обязательно с участием преподавателя);

2. Средний (опора на текст, средства наглядности);

3. Самостоятельный (отсутствие опор, кроме знаний по предмету высказывания; использование в речи сложных предметно-смысловых конструкций). Умение говорить предполагает выработку умений выражать свою мысль коммуникативно осмысленно, грамматически правильно.

Обучая говорению как средству общения учащихся учат: а) запрашивать информацию друг у друга и у преподавателя; б) обмениваться мнениями и суждениями; в) вести групповую беседу в связи с прочитанным или услышанным; г) адекватно реагировать в стандартных ситуациях общения при знакомстве, встрече и т.д.; д) описывать, рассказывать, пересказывать, рассуждать, дискутировать. При этом большое внимание обращается на выработку коммуникативных умений: начать общение, стимулировать речевого партнера к его продолжению.

Список использованной литературы:

1. Вятютнев М.Н. Теория учебника русского языка как иностранного (методические основы). - М.: Русский язык, 1984. - 144 с.

2. Бубнова Г. И., Гарбовский Н. К. Письменная и устная коммуникации: Синтаксис и просодия. - М., 1991.

3. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие для вузов. - М.: Высш.шк., 2003.



РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ВОСИТАЛАРИ ВА МЕТОДЛАРИ

СРЕДСТВО И МЕТОДЫ КОНТРОЛЯ ЗНАНИЕ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

MEANS AND METHODS OF MONITORING STUDENTS' KNOWLEDGE IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

PhD. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович
ТВЧПДИ Гуманитар фанлар факультети,
Тарих кафедраси катта ўқитувчиси,
haydarov_sulaymon82@mail.ru

Аннотация: мазкур мақолада рақамли таълим муҳитида тарих дарсларида талабаларнинг билим сифатини аниқ баҳолаш муаммолари ҳақида сўз юритилади. Шунингдек, тарих фани бўйича назорат жараёнининг автоматизациялашуви бўлажак тарихчиларни тайёрлаш тизимини мукамаллаштиришга имкон бериши очиқ берилган. Рақамли таълим муҳитида юқори суръатда сифатли педагогик назоратни амалга ошириш ва талабаларнинг билими даражасини ҳолис ва аниқ баҳолаш имконини берадиган замонавий тест технологияларидан фойдаланиш бугун жуда муҳим саналади.

Калит сўзлар: рақамли технологиялар, таълим жараёни, сифатли таълим, тарих дарслари, рақамли таълим муҳити.

Бугун рақамли технологиялар кириб бормаган таълим даргоҳи бўлмаса керак. Олий ўқув юртлиридаги компьютер-тест синовлари олдида турган масала бу талабалар билимининг сифатини назорат қилишнинг замонавий усулларини ишлаб чиқишнинг истиқболли йўналишларини излаб топишдан иборатдир. Мазкур муаммо компьютер технологиясидан графика, дарс тақдимоти, кўргазмалар ўқув воситаси сифатида фойдаланиш мумкин бўлган тарих дарсларида айниқса аҳамиятлидир.

Талабалар ўқиётган тарих таълими сифатини баҳолашда, бўлажак мутахассиснинг профессионал компетенциясининг асосини ташкил этувчи билим, кўникма ва маҳоратнинг шаклланганлик даражасини педагогик назорат қилиш тизимининг бор ёки йўқлиги муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Олий таълим тизими учун билимни назорат қилиш воситалари ва методлари жуда муҳим рол ўйнайди, шу боис бугун компьютер технологияларидан нафақат таълим беришни индивидуллаштириш ва амалий билимларни ҳосил қилишда, балки таълим жараёнида билимга баҳо бериш ва назорат қилишда ҳам воситаси сифатида фойдаланилмоқда.

Таълим олаётганларнинг билимини педагогик баҳолашнинг самарали усули бу компьютер-тест синовларидир. Олий ўқув юртлири таълим тизимига компьютер назоратини татбиқ қилиш талабанинг ўқув-билув фаолиятини самарали бошқариш воситаси бўлиб хизмат қилади. Мазкур назорат тури талабанинг ўқув-билув фаолиятини тизимли тарзда ташкил этиши ва таълим мазмунини муваффақиятли ўзлаштиришни мақсад қилган ҳолда назорат қилишнинг текшириш, ривожлантириш ва таълим бериш вазифалари билан ишончли алоқани ўрнатиши лозим.



Талабаларнинг касбий тайёргарлик сифатини баҳолаш усулини стандартизациялаш зарурияти олий ўқув юртлари таълим жараёнида тест технологияларини самарали қўллаш муаммосини муҳим масалага айлантирди.

Олий ўқув юртларида тарих дарсларида талабаларнинг тест технологияларидан фойдаланиши бўлажак тарихчиларнинг касбий компетенцияларининг асосини ташкил этувчи билим, қобилият ва кўникмаларига холис баҳо бериш имкониятини беради.

Амалиётда ўқитувчига таълим олаётганларнинг билим даражасини баҳолаш имконини берадиган валид тестлар яратиш ва татбиқ этиш олий ўқув юрти педагог-ходимдан нафақат ўз фани доирасида чуқур билимга эга бўлишни балки, бу фан тестларини амалиётда қўллай билиш кўникмасига эга бўлишни ҳам талаб этади.

Шубҳасиз, тест синовларида компьютер технологияларининг афзаллиги беқиёс. Улар олий ўқув юрти ўқитувчисини ўқув жараёнини анъанавий ташкил этиш доирасида оралиқ баҳолаш ва якуний имтиҳон ўтказиш каби кўп вақтни талаб этадиган мунтазам ишдан озод қилади. Бундан ташқари, масофавий таълимда компьютер технологиялари педагогик назорат қилишнинг асосий воситаси бўлиб хизмат қилмоқда. Касбий таълимнинг бошланғич босқичларида компьютер-тест синовларини қўллаш борасида маълум бир муаммоларга дуч келиш мумкин, ammo олий таълим даражасида талабалар юқори компьютер саводхонлигига эга бўлиши лозим.

Олий ўқув юрти таълим жараёнида компьютер-тест синовларидан фойдаланиш ўқитувчи ва талаба ўртасида ўзаро ҳамкорликдаги муносабатларни таъминлайди. Рақамли технологиялар ёрдамида билимни назорат қилиш ўқитувчига ўқув гуруҳи талабаларининг ўрганаётган материални бир вақтнинг ўзида қай даражада ўзлаштирганлиги тўғрисида объектив маълумот олишга ёрдам беради. Бу каби назоратнинг техник жиҳатдан амалга ошиши кўчириб ёзиш каби муаммони олдини олиб, ҳар бир талабага ўқув топшириққа ўз жавоб вариантини бериш имкониятини беради.

Рақамли технологиялар ёрдамида талаба билимини назорат қилишнинг ижобий тарафи бу унинг холислигидир. Бу каби назоратни амалга оширилиши натижасида талаба бу каби имтиҳондан кўрқмайдиган ва ўз баҳосини оширишнинг бошқа йўллари қидирмайдиган бўлади. Ўқитувчида эса таълум олувчининг билимининг реал даражасини аниқлаш имконияти пайдо бўлади.

Рақамли таълим муҳитида тест синовлари ўтказишнинг афзал томонларидан яна бири олинган натижаларни қайта ишлаш жараёнини автоматлаштирилгани, назорат тизимининг объективлиги ва талабаларнинг тарих фанидан исталган мавзу бўйича профессионал тайёргарлик даражасини текшириш тезлигидир. Олинган маълумотлар ўқитувчига талабалар фанга тегишли қайси мавзу ёки бўлимни ўзлаштиришда қийинчиликка дуч келаётганини ва тест синовлари натижаларига кўра бу муаммоларни бартараф этишнинг самарали усулларини аниқлашга имкон беради. Шу тариқа, тест синови тизимида талабаларнинг билимини баҳолаш учун тест назоратидан фойдаланишнинг кўпгина афзалликлари пайдо бўлади.

Билимни назорат қилишнинг компьютерлаштирилган тизимини қўллаш имкониятларини уларни олий таълим тизимига амалий татбиқ этиш нуқтаи назаридан ўрганишда шуни айтиш керакки, уларнинг барчаси қуйидаги таркибий қисмлардан иборат бўлади: тестларни ишлаб чиқиш, тест синовларини ўтказиш ва олинган натижаларни таҳлил қилиш. Шу тариқа, компьютер ўқитиш воситалари, коммуникация-рақамли тизимлар ва технологиялар таълим сифатига баҳо бериш, тарих фани доирасида ўтказилган тест синовларининг статистик маълумотларини



йиғиш, улар устида ишлаш учун манба яратиб беради.

Рақамли назорат-ўқитиш тизими маълумотлар базасида уч турдаги тест-топшириқлар бирлашиши мумкин:

- I даражадаги тестлар, бунда бир нечта тайёр жавоблар ичидан кўпроқ тўғри келадиганини белгилаш керак бўлади;

- II даражадаги тестлар, бунда берилган расмдан сўралаётган, керакли жойни кўрсатиш керак бўлади;

- III даражадаги тестлар, бунда талабаларга мавзуга доир тасодифий танланган таянч маълумотлар берилади, улар эса топшириққа мустақил равишда ўз жавобларини беришлари керак бўлади.

I, II ва III даражадаги вазифаларда барча турдаги маълумотлар ишлатилса бўлади (матнли, статистик, анимацион графика, аудио ва видеоклиппи).

Намуна: Юз йиллик урушнинг бошланиш сабабини оламит ва уни таркибли қисмларга ажратамиз.

Таъриф: 1337- йилда бошланган юз йиллик урушга Англия қироли Эдвард III нинг Франция тахтига даъво қилиши сабаб бўлган.

Ушбу таърифни таҳлил қилиш орқали биз тест топшириқларини тузиш учун зарур бўлган қисмларни ажратиб оламит:

- 1) 1337 йилда урушнинг бошланиши,
- 2) Англия қироли Эдвард III,
- 3) урушнинг Англия ва Франция ўртасида кечиши,
- 4) Эдвард III нинг Англия тахтига даъво қилиши.

Якуний имтиҳон учун тестлар тўплами I даражадаги тестлардан иборат бўлиши мумкин. Бу каби тест матн кўринишидаги савол ва зарурият тугилса қўшимча равишда расм, чизма, тасвирдан иборат бўлиши мумкин. I даражадаги тестга ўқитувчи бир нечта жавоб тайёрлайди (6 тагача). Ҳар бир жавобга баҳо белгиланади. Тест топшириғида умуман хато вариант бўлиши керак эмас, шу боис ўқитувчилар имкон қадар мантиқсиз жавоблар сонини чеклаган ҳолда тест топшириқларини тузишлари керак.

Талабалар аввалроқ, имтиҳонгача мавзулар ва саволлар рўйхатини олишади. Имтиҳондан 2-3 кун аввал ҳар бир талабага тест ечиб машқ қилиш имконияти берилиши мумкин. Шунини айтиш керакки, талабаларнинг фикрига кўра қийин фанлардан бири ҳисобланмиш тарих фани имтиҳони олдинги тайёргарлик натижасида енгил ўтиб, кам вақт олади.

Имтиҳон учун умумий баҳони қуйидаги усулда аниқлаш мумкин. Тизим талабаларнинг ҳар бир бўлим бўйича олган ўртача балани аниқлайди ва уни статистик маълумотлар файлида сақлайди. Бу маълумот ўқитувчи томонидан кўриб чиқилади ва якуний баҳо қўйилади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, тарих фани бўйича якуний назорат жараёнининг автоматизациялашуви бўлажак тарихчиларни тайёрлаш тизимини мукаммаллаштиришга имкон беради, талабани аттестациядан ўтказишнинг умумий ҳолатига холис баҳо беришга ёрдам беради, талабани инфорацион-рақамли муҳитда ўзини-ўзи ривожлантиришга тайёрлайди, унинг профессионал компетенцияларини ривожлантиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ё. Абдуллаев. Статистиканинг умумий назарияси тестлар// FarDU. 1996
2. Ахатова Р. Ю. Технология разработки интеллектуальной системы тестирования и ее внедрение в учебный процесс// Магистерская диссертация. Ташкентский университет информационных технологий. 2012



- 3.С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." Scientific journal. 1(7). 610-617
- 4.Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671
- 5.Хайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.
- 6.Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи "Scientific Progress" Scientific journal 1(1). 12-17.
- 7.Сулаймон Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли. Science and Education, 1(6), 174-179.
- 8.С.А. Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Science and Education. 1(9). 458-461.
- 9.Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2021). Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги "Scientific Progress" Scientific journal 1(3). 9-14.



СХОДНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ ПЕРЕДАЧА ПРИ ПЕРЕВОДЕ (на основе материалов из русского и узбекского языков)

Хужаева Дилдора Икромбаевна

Совместитель- преподаватель по русскому языку в УзГУМЯ

Аннотация. В этой статье дается всесторонняя информация о переводе и о роле фразеологических единиц в ней. Даны определенные рекомендации переводчику для более живой передачи художественных произведений учащимся при переводе

Ключевые слова: перевод, фразеологизм, пословица, ценности, художественность, значение, стиль.

Процесс перевода фразеологизмов, считаясь одной из самых сложных и спорных задач в теории и практики перевода, этот процесс требует от переводчика большой ответственности, творческих исканий, внимательности и мастерства. В плане изучения фразеологизмов имеют большое значение создание адекватного перевода, авторский стиль и стиль перевода, отражение национального колорита в переводе и исследование важных теоретических проблем. Перевод фразеологизмов имеют большое значение в отражении индивидуального авторского стиля при переводе. В связи с тем целесообразно было бы упомянуть следующие идеи ученого переводчика Я. И. Рецкира: "При переводе для четкой передачи авторского стиля решающим элементом считается правильный выбор лексических фразеологических средств". Благодаря художественному переводу обогащается фразеология языка. Роль фразеологии в отражении национального духа, выраженного в языке художественной литературы, считается несравненной. В переводческой деятельности перевод фразеологизмов занимает главное место. Поэтому переводчик сам лично должен быть осведомленным об этой проблеме. Ученый переводчик А. Б. Фёдоров считает целесообразным применение следующих способов при переводе фразеологизмов:

1. Точный перевод фразеологизмов с полным сохранением значения их структуры.

2. С частичным изменением значения или формы фразеологических единиц оригинала

3. Возможность перевода фразеологизмов путем подбора фразеологизмам оригиналам их соответствующих аналогов в языке перевода.

По указанию автора, в случаи неприменимости первых и вторых способов перевода фразеологизмов, считается приемлемым их замена с имеющимися в языке перевода выражениями с переносным значением. Этот способ занимает огромное место в процессе перевода. Каждое выражение или словосочетание, примененное с переносным значением, считается для переводчика действительным фразеологизмом. Входящие в состав фразеологизмов, созданные и совершенствованные народом в течение столетий, пословицы, поговорки и идиомы становились нашим богатым наследием. Пословицы, являясь одним из обладающих краткой формой, но глубоким содержанием жанром устного народного творчества, создавались на основе многовековых жизненных наблюдений народа, социально-экономического, политического и культурного опыта. Пословицы по своим социальным, идейным задачам, становятся выразителем мировоззрений в основном широкой народной массы, а в некоторых случаях определенного социального слоя или группы. По этой причине, тематический объём пословиц является очень обширным, и будет невозможным ограничить этот объём в пределах



незначительной жизненной реальностью, и в связи с этим не найдется ни одна сфера социальной жизни которая бы не нашла своё яркое отражение в пословицах. Например:

В русском языке: Худые вести на крыльях летают

В узбекском языке: Ёмон сўзининг қаноти бор.

Пословицы являются огромной сокровищницей нашей речи для выражения нашей мысли чётко, ясно и образно, и их применение с искусством делает произведение писателя, речь оратора многозначительным и привлекательным, способствуют к становлению более впечатлительным для образного выражения своей мысли. Сопоставительное изучение пословиц и процесс их перевода имеют научное и практическое значение. Также стоит упомянуть о наличии буквального, пояснительного или описательного способов при переводе фразеологических единиц.

Например:

В русском языке: Хорошо смеётся тот, кто смеётся последним.

В узбекском языке: Охирги кулган яхши кулади.

Исследование соответствующих эквивалентов к словам и выражениям, использование выражений, эквивалентных по смыслу с теми, что раскрыты в произведении, расширяя пределы образности перевода, способствуют к более выразительному его чтению. Переход фразеологизмов с полным сохранением значений слов в их структуре, считаясь одним из самых распространенных способов перевода, способствует к вхождению новых фразеологических единиц в язык перевода произведения и обогащению фразеологического состава данного же языка. Это положение можно ясно обнаружить в следующих примерах:

Например:

В русском языке: В здоровом теле- здоровый дух.

В узбекском языке: Соғлик-туман бойлик.

